Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayoti va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. O'tmishda Sharq mutafakkirlari o'z hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, ma'naviyatimiz sarchashmasi bo'lgan ta'lim-tarbiya, shaxs kamoloti haqida boy tarixiy tajribani meros qilib qoldirgan. Maqolada talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, xalq pedagogikasida shaxsni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish haqidagi o'ziga xos pedagogik g'oyalari haqida so'z yuritiladi.

Аннотация

Будущее каждой социальной системы, человеческая перспектива, жизнь и уровень жизни людей напрямую связаны с развитием науки и культуры. В прошлом восточные мыслители на основе своего жизненного опыта оставили богатый исторический опыт образования и развития личности, который является основой нашей духовности. В статье говорится об особенностях воспитания учащихся в национальном духе на основе народной педагогики, об уникальных педагогических идеях индивидуального воспитания, обучения и развития в народной педагогике.

Abstract

The future of every social system, human perspective, people's life and standard of living are directly related to the development of science and culture. In the past, Eastern thinkers, based on their life experiences, left a rich historical experience of education and personal development, which is the foundation of our spirituality. The article talks about the specific features of educating students in the national spirit on the basis of folk pedagogy, the unique pedagogical ideas of individual upbringing, education and development in folk pedagogy.

Kalit so'zlar: xalq pedagogikasi, qadriyat, tarbiya, shaxs, ta'lim, ma'naviyat.

Ключевые слова: народная педагогика, ценности, воспитание, личность, обучение, духовность.


Key words: folk pedagogy, value, education, personality, education, spirituality.

KIRISH

Ma'lumki, inson qayta tiklanmaydigan eng qimmat resurs, bebaho qadriyat sanaladi. Insonning mamlakat va insoniyat uchun qilishi mumkin bo'lgan eng katta xizmati esa Bernard Shou aytganiday, bolalarini tarbiyalashidir. Ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash xususida fikr yuritilishi ta'lim-tarbiya jarayonini aksiologik yondashuv asosida amalga oshirish zaruriyatini yuzaga chiqaradi. Bu esa talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalash aslida ularning bo'lajak pedagog sifatida fasilitatorlik qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Fasilitatorlik – bu guruhdagi faoliyatni tashkil etishda pedagogning rolli pozitsiyasini yuzaga chiqaradi. Milliy ruhda tarbiyalanayotgan talabada fasilitatorlik qobiliyatlarining vujudga kelishi tabiiydir. Chunki aynan xalq pedagogikasi fasilitatorlarda mavjud bo'lgan xayrixohlik, tushunish, hamdardlik kabi fazilatlarini o'zida namoyon etadi. Milliy ruhda tarbiyalanayotga talaba kelgusida shaxsiyatga yo'naltirilgan modelni qo'llaydigan pedagog-fasilitatorga aylanishi sir emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalash aksiologik yondashuvni talab etadi. Chunki, aksiologiya (yunoncha «axia» - qimmat, qadr va «logos» - ta'limot) qadriyatlar haqidagi soha sanalib, ajdodlarimizning shaxs o'zligini anglash jarayonini hayotiy zaruriyatga aylantirganini ko'ramiz. Talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalash jarayonida



2- rasm. Yetti kunlik kalamush bolalariga gormonlar qo‘shilmasi yuborilganda saxaraza faolligini ichak uzunligi bo‘ylab tarqalishi. Izoh: Ordinatsiya o‘qida - ferment faolligi (mkmol/ min/g). Absstsiss o‘qida – ichakning bo‘limlari.

Gidrokortizon va tiroksin aralashmasi o‘n to‘rt kunlik kalamush bolalariga yuborilganda saxaraza fermenti faolligining induksiyalanishi kuzatildi. Bunday induksiyalanish 48 soatdan so‘ng maksimal darajaga yetdi va undan keyin asta sekin pasayib bordi. Yigirma bir kunlik kalamush bolalarida saxaraza fermentining faolligi gidrokortizon va tiroksin qo‘shilmasi ta‘sirida o‘zgarmadi.

Ichakning saxaraza hazm etish mexanizmi gidrokortizon va tiroksin gormon qo‘shilmalari ta‘sirida ancha yuqori. Buning sababi saxaraza fermenti faolligining gidrokortizon ta‘sirida induksiyalanish xususiyati tiroksin bor muhitda kuchayadi. Boshqacha qilib aytganda, gidrokortizon va tiroksin gormonlari birgalikda ta‘sir etganda saxaraza fermenti faolligining induksiyalovchi kuchi summasiyalashadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, sutemizuvchilar avlodida laktotrof ovqatlanish davridan mustaqil (definitiv) ovqatlanishga o‘tish oldidan saxaraza fermenti faolligining induksiyalanishi kuzatiadi. Laktotrof ovqatlanish davrida saxaraza hazmini ta‘minlovchi yashirin manba deyarli mavjud emas. Mustaqil ovqatlanishga o‘tish oldidan yosh organizmlarda saxaraza fermentining maksimal faolligi ichakning proksimal va medial qismlariga ko‘chadi va ichakning distal qismi yashirin manba vazifasini bajaruvchi bo‘limga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Komilova B.O. Gidrokortizonning laktaza va saxaraza faolligiga ta‘siri // Tibbiyotda yangi kun. 2020, 2/1 (30/1). –B. 197-200.
2. Komilova B.O., Avezova S.M., Raxmonov R.R. Ontogenezda laktozaning o‘zlashtirilishi va unga ta‘sir etuvchi omillar // Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. 2020. -№12. –B. 21-24.
3. Komilova B.O. Ontogenezda laktaza va saxaraza faolligiga tiroksinning ta‘siri // Biologiya i integrativnaya meditsina. 2021. -№6 (53). –B.148-155.
4. Кучкарова Л.С., Кудешова Г.Т., Дустматова Г.А. Гормональная регуляция ассимиляции углеводов в тонкой кишке крыс периода молочного питания // Научное обозрение. Биологические науки. 2017. -№2. –С. 108-116.
5. Estere Seinkmane – November 2018.

yoki umuman hazm bo'lmashligiga olib keladi. Bu esa organizmni turli tuman me'da-ichak kasalliklarga chalinishiga va ba'zan o'limiga ham sabab bo'ladi.

MAVZUNING DOLZARBLIGI


Ontogenezda ichak uzunligi bo'ylab funksional faolliklarning taqsimlanishini o'rganish ovqat hazm qilish fizilogiyasining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham biz o'z izlanishimizda o'suvchi organizm ichagining turli bo'limlarida saxarozalarning gidrolizlanishi uchun zarur bo'lgan saxaraza fermenti faolligining o'zgarishini mukammal o'rganishga harakat qildik, chunki bu nazariya amaliy jihatdan o'ta muhim hisoblanadi.

MATERIAL VA TADQIQOT USLUBLARI

Saxaraza fermentining faolligi glyukooksidaza usuli yordamida aniqlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ichak bo'limlaridagi saxaraza fermenti faolligining topografiyasi hayvonlarning yoshiga qarab o'zgaradi. Uch va yetti kunlik kalamush bolalarida saxaraza fermentining faolligi mavjud emas. O'n kunlik kalamush bolalarida saxaraza faolligi ichakning distal qismi hisobiga ilk bor paydo bo'ldi. O'n to'rt kunlik kalamush bolalarida fermentning faolligi ichakni medial qismiga ko'chadi. Keyinchalik (14-28 kunlik kalamush bolalarida) saxaraza faolligini oshishi ichakning proksimal va medial bo'limlari hisobida amalga oshdi, distal bo'limida esa ferment faolligi progressiv ravishda pasayadi (1-rasm).



1-rasm. Turli yoshdagi kalamush bolalarining ichak ezilmasidagi saxaraza faolligini ichak uzunligi bo'ylab tarqalishi. Izoh: Ordinot o'qida - ferment faolligi (mkmol/min/g). Absiss o'qida - ichakning bo'limlari.

Uch kunlik kalamushlarning bolalariga gidrokortizon va tiroksin qo'shilmasi yuborilganda ichakning uchala bo'limida saxarazaning faolligi paydo bo'ldi. Saxarazaning faollanishi gormon yuborilgandan 24 soat o'tgach kuzatila boshlandi va 96 soatdan so'ng fermentning faolligi eng yuqori darajaga yetdi. Saxaraza fermentining faolligi 120-168- soatlarga kelib, asta sekin pasaya bordi va me'yoriy guruh hayvonlardagi ko'rsatgichlar darajasiga yaqinlashdi.

Yetti kunlik kalamush bolalariga gidrokortizon va tiroksin aralashmasi yuborilganda ichakning barcha bo'limlarida saxaraza fermentining faolligi ortdi. Bunday induksiyaning gormon yuborilgandan 24 soat o'tgach kuzatildi va 72 soatdan so'ng maksimal darajaga yetdi. Keyinchalik (144 va 168- soatlarda) asta sekin me'yoriy ko'rsatgich darajasigicha pasayib bordi (2-rasm).

ICHAK TURLI BO'LIMLARIDAGI FERMENTLAR FAOLIGINING AYRIM GORMONLAR TA'SIRIDA O'ZGARISHI**ИЗМЕНЕНИЕ АКТИВНОСТИ ФЕРМЕНТОВ В РАЗЛИЧНЫХ ЧАСТЯХ КИШЕЧНИКА ПОД ВЛИЯНИЕМ ОПРЕДЕЛЕННЫХ ГОРМОНОВ****CHANGES IN THE ACTIVITY OF ENZYMES IN DIFFERENT PARTS OF THE INTESTINES UNDER THE INFLUENCE OF CERTAIN HORMONES****Komilova Baxmal Odilovna¹**¹Buxoro davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar kafedrasida dotsenti**Annotatsiya**

Ichak bo'shlig'ida mavjud moddalarga nisbatan ovqat hazm qilish a'zolarining moslanishi natijasida me'da-ichak tizimining morfologik tuzilishi va funksional holati uning boshlang'ich qismidan oxirgi qismiga qarab keskin o'zgarib boradi. Ichakning boshlang'ich va o'rta qismlari oqsil, yog' va uglevodlarni gidrolizlanib, ularning so'rilishida muhim o'rin tutadi. Ichak oxirgi qismining funksional faolligi past va u asosan yashirin manba bo'lib xizmat qiladi. Me'da-ichak tizimining funksional faolligi ba'zi sabablarga ko'ra pasayganda ichakning oxirgi qismidagi fermentlar faollashib, kompensatorlik vazifasini bajaradi.

Аннотация

В результате адаптации органов пищеварения к веществам, находящимся в кишечной полости, морфологическое строение и функциональное состояние желудочно-кишечной системы резко изменяются от ее начального отдела к конечному. Начальные и средние отделы кишечника играют важную роль в гидролизе и всасывании белков, жиров и углеводов. Функциональная активность последнего отдела кишечника не высока и он служит секретным источником. Когда функциональная активность желудочно-кишечной системы по каким-либо причинам снижается, ферменты последнего отдела кишечника активируются и выполняют компенсаторную функцию.

Abstract

As a result of adaptation of the digestive organs to substances found in the intestinal cavity, the morphological structure and functional state of the gastrointestinal system changes sharply from its initial section to its final section. The initial and middle sections of the intestine play an important role in the hydrolysis and absorption of proteins, fats and carbohydrates. The functional activity of the last section of the intestine is low and it serves as a secret source. When the functional activity of the gastrointestinal system decreases for some reason, the enzymes of the last section of the intestine are activated and perform a compensatory function.

Kalit so'zlar: proksimal, kompensator, medial, distal, saxaraza, laktotrof, definitiv, repressiya va induksiya.

Ключевые слова: проксимал, компенсатор, медиал, дистал, лактация, сахараза, лактотроф, дефинитив и индукция.

Key words: proximal, compensator, medial, distal, sucrose, disaccharidase, lactotrophe, definitive, repression and induction.

KIRISH

Membrana yuzasida ovqat hazm bo'lish jarayoni A.M.Ugolev tomonidan kashf etilgandan so'ng fiziologiyada qator yangi tushunchalar paydo bo'ldi. Bulardan biri funksional faollikning me'da-ichak uzunligi bo'ylab tarqalishidir. Adabiyotlardan ma'lumki, me'da-ichak tizimining morfologik tuzilishi va funksional holati uning proksimal qismidan distal qismiga qarab keskin o'zgarib boradi. Bu o'zgarish ichak bo'shlig'ida mavjud moddalarga nisbatan ovqat hazm qilish a'zolarining adaptatsiyasi natijasida paydo bo'ladi.

Klinikadagi kuzatuvlar va maxsus tajribalarning ko'rsatishicha, odam va hayvonlarda oqsil, yog' va karbonsuvlarni gidrolizlanib, shimilishida ichakning boshlang'ich va o'rta qismlari muhim o'rin tutadi [1,2,4,5]. Ichak distal qismining funksional faolligi past va u asosan yashirin manba bo'lib xizmat qiladi. Me'da-ichak tizimining funksional faolligi stress vaqtida va dori-darmonlar qabul qilinganda pasayib, ichakning distal qismidagi fermentlar faollashib, kompensatorlik vazifasini bajaradi [2,3,4].

Sut bilan ovqatlanish davrida eca aksincha, oqsil, yog', karbonsuvlarning gidrolizlanishi va so'rilishi, asosan, ichakning distal qismida sodir bo'ladi. Shuning uchun ham bu bo'lim funksiyasini odam va hayvonlarning emizikli bolalarida pasayishi yoki shikastlanishi oziq moddalarning qisman

shunchalik yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shuningdek, sport mashg'ulotlari o'smirlik davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy his-tuyg'ularni bostirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari asosida jismoniy mashqlar kulrang hujayralarni yaxshiroq ishlashini ta'minlashi aniqlandi. Jumladan, kulrang hujayralar his tuyg'ular va stressni tezda yengib, ongli ravishda qiyin qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jismoniy mashqlar o'rta maktab yuqori sinf o'quvchilarining ijodiy salohiyatini faollashtirishga yordam beradi. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi qanchalik yuqori bo'lsa, ularda diqqatni jamlash, stressga dosh berish, neurotransmitterlar o'rtasidagi buzilgan muvozanatni tiklash qobiliyati shunchalik yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shuningdek, sport mashg'ulotlari o'smirlik davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy his-tuyg'ularni bostirishga yordam beradi. Sport, axloqiy tarbiya jarayonini rag'batlantiradi va o'quvchini imkon qadar chiniqishini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Артиқов.Ж.Б “Жисмоний тарбия дарсларида ўрта мактаб ёшидаги ўғил болаларни табакалаштирилган жисмоний тайёргарлигини асослаш” Маг.дисс., Тошкент ш. – 2012. – 80 б.
2. Андре Алеман. Мозг на пенсии. Научный взгляд на преклонный возраст. Перевод с английского Иделии Айзятуповой. Изд. «Манн, Иванов и Фербер». Москва, 2016. – 336 с.
3. Агаджанян Н.А. Адаптация и резервы организма. - М.: Физкультура и спорт, 1983. – 316 с.
4. Богданов А.В. Влияние учебной нагрузки на умственное и физическое состояние студентов. Вестник Бурятского государственного университета, 2011. №13. –С. 12-15.
5. Комилова Б.О. Ақлий ва жисмоний меҳнатнинг физиологик асослари // IV Международная научно-практическая интернет конференция «Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации» Выпуск 4, 30-31 мая 2015 года. –С.4-5.
6. Мануков С. Бегом за интеллектом // Ассоциация Сиб Академ Инновация, 2012. – 180 с.
7. Рютина Л. Н., Дьякова А. В. Влияние физической культуры на умственную работоспособность // Pedagogical Sciences // «Colloquium-journal», 2019. №7. –С. 28-32.
8. Стасевич К. Физическая активность и мозг // Наука и жизнь, 2017. №9. –С. 38-40.

mustahkamlashda jismoniy tarbiya hamda sport muhim o'rin tutadi. Neyrofiziologlarning ta'kidlashicha, jismoniy faol odamlarning miyasi kattaroq bo'lib, 30 yoshdan 90 yoshgacha bo'lgan davrda u o'rtacha 15% ga qisqaradi. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadigan keksa odamlarda MRI tasvirlarida miyaning oldingi qismida kulrang va oq moddalar massasining ko'payishi ham qayd yetilgan [1,4,6,7].

Neyrobiologlar asosiy e'tiborni xotirada muhim rol o'ynaydigan gippokampga qaratadilar. Aerobika mashqlari bilan shug'ullanganda gipokampning hajmi 2% ga oshadi, cho'zish mashqlari bilan shug'ullangan guruhlarda esa uning hajmi 1,5% ga kamayadi (bu keksa odamlar uchun normaldir). Miyaning qarishga kamroq moyil bo'lgan yana 2 ta sohasini tahlil qilish natijalariga ko'ra, olimlar hech qanday farq topmaydilar va kuchli jismoniy mashqlar miyaning yillar davomida pasayib ketadigan miya qismini ortishiga olib keladi degan xulosaga kelishadi [2,3,5,8]. Odatda, optimal jismoniy faollikdan keyin paydo bo'ladigan eyforiya hissi endokannabinoidlar tufayli paydo bo'ladi. Bular miyada sintez qilingan va turli nerv reseptorlariga ta'sir qiluvchi neurotransmitter molekulalaridir. Endokannabinoidlar ishtahani tartibga solishda ishtirok etadi, shuningdek, xotira, o'rganish va his-tuyg'ularga ta'sir ko'rsatadi [2,7].

Jismoniy mashqlar stressni kamaytiradigan va yengil eyforiyaga olib keladigan neurotransmitterlarning chiqarilishini rag'batlantiradi. Faol hayot tarzi bilan shug'ullanuvchi shaxslar har qanday muammolarga qaramay, faol va qiziquvchan bo'lib qoladilar, ya'ni stress omillarini osongina yengadilar. Bunga miyadagi neuropeptid moddalarning sintezi tufayli erishiladi. Miyaning stressga qarshi kurashish uchun mas'ul bo'lgan miya qismlarida neuropeptid moddalarning miqdori jismoniy faoliyatdan keyin sezilarli darajada oshadi. Stress paytida hujayralar orasidagi aloqalar zaiflashadi va buziladi. Yangilari esa shakllanmaydi. Nerv hujayrasi "kontaktsiz" bo'lib qoladi va nerv zanjirlarining xilma-xilligi kamayadi [2]. Shuningdek, sport zalida muntazam shug'ullangan ishtirokchilarda miyaning ushbu sohalarida metabolizm jarayoni kuchayib, neyrotrofinlar ko'plab ishlab chiqariladishi hisobiga neyronlarning faolligi oshadi. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, kuchli mashqlardan keyin signal beruvchi oqsil darajasi bir necha kun davomida yuqori darajaga ko'tariladi [7].

Tadqiqotimizning maqsadi o'rta maktablarda sport bilan shug'ullanadigan va shug'ullanmaydigan yuqori sinf o'quvchilarining fiziologik xususiyatlarini o'rganish hamda ularning aqliy faoliyatini rivojlanishida jismoniy mashqlarning ahamiyatini ochib berishdan iborat. Tadqiqot ob'yekti sifatida Buxoro shahridagi 20-o'rta ta'lim maktabi tanlab olingan bo'lib, tadqiqotlar sport bilan shug'ullanadigan va shug'ullanmaydigan 15-17 yoshdagi ko'ngilli bolalar guruhida o'tkazilgan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar o'quv jarayonini optimallashtirish va o'rta maktab o'quvchilarining salomatligini va ruhiy-hissiy holatini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bizga ma'lumki, jismoniy mashqlar kayfiyatni yaxshilaydi va stressni yengillashtiradi. Jismoniy faollik qon oqimini yaxshilab, barcha organlar va tizimlarning yaxshi ishlashiga yordam beradi, shuningdek, korteks va gipokampning qon bilan ta'minlanishini rag'batlantiradi.

O'rta maktablarda sport bilan shug'ullanadigan va shug'ullanmaydigan yuqori sinf o'quvchilarining fiziologik xususiyatlarini tahlil etish hamda ularning aqliy faoliyatini rivojlanishida jismoniy mashqlarning ahamiyatini o'rganish maqsadida Buxoro shahri 20-o'rta ta'lim maktabida tadqiqot o'tkazildi. Buning uchun 15-17 yoshdagi o'rta maktab o'quvchilari orasida maxsus anketa-so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma asosida maktab o'quvchilarini sport bilan shug'ullanmaydigan, 1 yilgacha sport bilan shug'ullangan, 2 yil va undan ortiq sport bilan shug'ullangan uchta kichik guruhlariga ajratildi. Tadqiqot guruhlaridagi o'quvchilarning yurak urishi, o'pkasining tiriklik sig'imi va tana vazni belgilangan tartibda o'lchandi. Olingan natijalar sport bilan shug'ullanmaydigan, bir yilgacha sport bilan shug'ullangan hama ikki yil va undan ortiq sport bilan shug'ullangan o'quvchilar kesimida tahlil etildi. Tadqiqotlar davomida, ushbu guruhlardagi o'quvchilarning aqliy qobiliyati hamda diqqatni jamlash xususiyatlarini aniqlash bo'yicha anketa-so'rovnoma o'tkazildi. Anketa-so'rovnoma natijalari hamda o'quvchilarning yurak urishi, o'pkasining tiriklik sig'imi va tana vazniga oid ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlillari shundan dalolat beradiki, o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi qanchalik yuqori bo'lsa, ularda diqqatni jamlash, stressga dosh berish, neurotransmitterlar o'rtasidagi buzilgan muvozanatni tiklash qobiliyati

YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING AQLIY FAOLIYATIGA JISMONIY MASHQLARNING TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ ФИЗИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ НА УМСТВЕННУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТАРШИХ ШКОЛЬНИКОВ

INFLUENCE OF PHYSICAL EXERCISES ON MENTAL ACTIVITY OF HIGH SCHOOL CHILDREN

Komilova Baxmal Odilovna¹

¹Buxoro davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar kafedrasida dotsenti

Toxirova Maloxat Rasuljon qizi²

²Buxoro davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Sport mashg'ulotlari hissiy va ruhiy stressga dosh berishga, o'smirlilik davrida yuzaga keladigan salbiy his-tuyg'ularni bostirishga yordam beradi. Stress paytida hujayralar orasidagi aloqalar zaiflashadi va buziladi. Faol hayot tarzi bilan shug'ullanuvchi insonlar faol va qiziquvchan bo'lib, stress omillarini osongina yengadilar. Jismoniy mashqlar kulrang hujayralarni yaxshiroq ishlashini ta'minlaydi. Bu esa his tuyg'ular va stressni tezda yengib, ongli ravishda qiyin qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Аннотация

Спортивные тренировки помогают справиться с эмоциональными и умственными нагрузками, подавить негативные эмоции, возникающие в подростковом возрасте. Во время стресса связи между клетками ослабевают и разрываются. Те, кто ведет активный образ жизни, активны и любопытны, легко преодолевают стрессоры. Упражнения заставляют серые клетки работать лучше. Это помогает быстро преодолевать эмоции и стрессы и принимать осознанные решения.

Abstract

Sports training helps to cope with emotional and mental stress, and suppress negative emotions that arise in adolescence. During times of stress, connections between cells weaken and break. Those who lead an active lifestyle, active and curious, easily overcome stressors. Exercise makes gray cells work better. This helps you quickly overcome emotions and stress and make informed decisions.

Kalit so'zlar: Aerobika, stress, sport, neyrofiziologiya, gipokamp, endokannabinoid, metabolizm, korteks, ergonomika.

Ключевые слова: Аэробика, стресс, спорт, нейрофизиология, гиппокамп, эндоканнабиноиды, обмен веществ, кора головного мозга, эргономика.

Key words: Aerobics, stress, sports, neurophysiology, hippocampus, endocannabinoids, metabolism, cerebral cortex, ergonomics.

KIRISH

Sog'lom insongina o'zining qobiliyati, salohiyati va tafakkurining mahsulidan foydalanib kamolot cho'qqisiga chiqadi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Biz sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom avlod deganda faqat jismoniy sog'lomlik emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz". Inson kamoloti aqliy va jismoniy rivojlanishning uzviy birligi bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi islohatlar, ma'naviy-ma'rifiy tizimdagi yangilanishlar zaminida hayotimizning asosiy mazmuni bo'lgan farzandlarimizning sog'lom turmush tarzini yaratishdir.

Hozirgi kunda o'rta maktablarning yuqori sinf o'quvchilarining axborot va intellektual yuklamasi ortib bormoqda. Shundan kelib chiqib, mazkur yosh doirasida stressdan himoyalaniish va insonning aqliy qobiliyatlarini yaxshilash usullarini o'rganishga oid tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inson salomatligi bolalikdan shakllana boshlaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, salomatlikning 50 % - turmush tarziga, 20 % - naslga, 20 % - atrof-muhit holati va taxminan 10 % tibbiyot va sog'liqni saqlash imkoniyatlari hisobiga ta'minlanar ekan. Salomatlikni saqlash va

eroziyasini bartaraf etish takomillashtirilgan qishloq xo'jaligi amaliyotlari, barqaror yerlarni boshqarish va o'rmonlarni qayta tiklash bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Bundan tashqari, o'zgaruvchan iqlim sharoitlarining tuproq eroziyasiga ta'sirini yumshatish uchun iqlimga chidamli strategiyalar muhim ahamiyatga ega. Davlat idoralari, tadqiqotchilar va mahalliy hamjamiyatlarning hamkorligi orqali O'zbekiston o'zining qimmatli tuproqlarini asrab-avaylash va aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga harakat qilishi mumkin.

Tuproq eroziyasi turli xil tabiiy va insoniy omillar ta'sirida bo'lgan dinamik va murakkab jarayondir. Tuproq eroziyasining turlarini va ularning sabablarini tushunish eroziyaga qarshi samarali kurash va yerni boshqarish amaliyoti uchun zarurdir. Tuproq eroziyasini yumshatish tuproq sifatini saqlab qolish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun juda muhimdir. Eroziyaga qarshi kurash choralarini, masalan, o'rmonlarni qayta tiklash, terraslash va yerlarni himoya qilish uchun ishlov berish mahalliy va global miqyosda tuproq eroziyasining salbiy oqibatlariga qarshi kurashishga yordam beradi.

Tabiiy va antropogen tuproq eroziya jarayonlari ekotizimlarga, qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga va jamiyat farovonligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy eroziya Yer geologik tarixining ajralmas qismi bo'lsa-da, inson faoliyati eroziya tezligini sezilarli darajada tezlashtirdi, bu esa atrof-muhitning keng tarqalishiga olib keldi. Antropogen tuproq eroziyasini yumshatish uchun barqaror yer boshqaruvi amaliyotini joriy etish, o'rmonlarni qayta tiklashni rag'batlantirish va kelajak avlodlar uchun tuproqlarimizni asrab-avaylash muhimligi haqida xabardorlikni oshirish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gafurov, M., Mukhamedjanov, M., & Bekchanov, M. (2017). Climate change and land degradation in Uzbekistan: Need for adaptation. *Environmental Earth Sciences*, 76(18), 634.
2. Ismailov, A., Vlek, P. L., & Martius, C. (2013). Assessing land use change and desertification in Uzbekistan using satellite imagery. *Environmental Earth Sciences*, 68(1), 205-216.
3. Tashpulatov, B., Warrington, D., Tashpulatov, N., & Aliev, K. (2016). Wind erosion and deflationary desertification in Uzbekistan. *Environmental Earth Sciences*, 75(4), 309.
4. Kurbanov, E. M., Holzworth, D., Ibragimov, N., & Lusch, D. P. (2009). A review of environmental issues in Uzbekistan. *Environmental Management*, 44(5), 847-858.
5. Abdullaev, I., Rakhmatullaev, S., Azizov, M., & Lamers, J. P. (2013). Socio-environmental impacts of small reservoir development in Fergana Valley, Uzbekistan. *Physics and Chemistry of the Earth, Parts A/B/C*, 61, 38-45.
6. Khamzina, A., Lamers, J. P., & Vlek, P. L. (2010). Soil salinity and exchangeable sodium percentage in cotton-growing soils of the lower Amu Darya River basin, Uzbekistan. *Agriculture, Ecosystems & Environment*, 139(4), 632-641.
7. Eshchanov, B., Frör, O., Khamzina, A., Lamers, J. P., & Vlek, P. L. (2019). Adoption and disadoption of sustainable land management practices in Uzbekistan: Scale effects and need for context-specific solutions. *Land Use Policy*, 80, 8-18.
8. Ibragimov, N., Hockmann, H., & Rungsuriyawiboon, S. (2012). An impact analysis of trade liberalization on Uzbekistan's agriculture. *Agricultural Economics*, 43(3), 263-279.
9. M. Juliev, A. Pulatov, S. Fuchs, and J. Hübl, 'Analysis of Land Use Land Cover Change Detection of Bostanlik District, Uzbekistan', *Pol. J. Environ. Stud.*, vol. 28, no. 5, pp. 3235-3242, May 2019, doi: 10.15244/pjoes/94216.
10. Juliev M, Gafurova L, Ergasheva O, et al. Land Degradation Issues in Uzbekistan. In: Al-Quraishi AMF, Mustafa YT, Negm AM (eds) *Environmental Degradation in Asia*. Cham: Springer International Publishing, pp. 163-176.
11. Gafurova L, Juliev M. Soil Degradation Problems and Foreseen Solutions in Uzbekistan. In: Dent D, Boincean B (eds) *Regenerative Agriculture*. Cham: Springer International Publishing, pp. 59-67.
12. Juliev M, Matyakubov B, Khakberdiev O, et al. Influence of erosion on the mechanical composition and physical properties of serozems on rainfed soils, Tashkent province, Uzbekistan. *IOP Conf Ser: Earth Environ Sci* 2022; 1068: 012005.

Tuproq eroziyasi tabiiy geomorfik jarayon bo'lib, unga turli omillar ta'sir qilishi va tezlashishi mumkin. Ushbu qo'zg'atuvchi omillarni tushunish tuproq eroziyasini samarali baholash va boshqarish uchun juda muhimdir. Ushbu bobda tuproq eroziyasini qo'zg'atuvchi asosiy tabiiy va antropogen omillar ilmiy tadqiqotlar va ekspert bilimlari asosida o'rganiladi [12].

Tabiiy omillar

Yomg'ir va yog'ingarchilik: Yomg'irlar tuproq eroziyasining asosiy omili hisoblanadi. Yomg'ir hodisalarining intensivligi, chastotasi va davomiyligi eroziya tezligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kuchli yog'ingarchilik suv oqimining ko'payishiga va tuproqning parchalanishiga olib kelishi mumkin, bu esa eroziyaning asosiy qo'zg'atuvchisiga aylanishi mumkin [2].

Nishab va topografiya: Relyefning tikligi tuproq eroziyasiga ta'sir qiladi. Tuproq yonbag'irlarda tortishish kuchi tufayli tezroq suv oqimi va tuproqning ko'proq ajralishi kuzatiladi. Vodiyalar va kanallar kabi topografik xususiyatlar eroziyani kuchaytirib, suv va cho'kindilarni kanalizatsiya qilishi mumkin [1].

O'simlik qoplami: O'simliklar tuproq eroziyasining oldini olishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'simlik ildizlari tuproq zarralarini barqarorlashtiradi va yomg'irning tuproq yuzasiga ta'sirini kamaytiradi. O'rmonlarni kesish yoki haddan tashqari o'tlash kabi o'simliklarni olib tashlash eroziya darajasini oshirishi mumkin [4].

Tuproq xossalari

Tuproq turi va tuzilishi: Tuproqning xususiyatlari, shu jumladan tuzilishi (masalan, loy, qum) va siqilish uning eroziyaga moyilligiga ta'sir qiladi. Loy kabi nozik teksturali tuproqlar qum kabi qo'pol tuproqlarga qaraganda eroziyaga ko'proq moyil bo'ladi [6].

Tuproqning namligi: Tuproqning namligi uning eroziyaga chidamliligiga ta'sir qiladi. Quruq tuproq eroziyaga ko'proq moyil bo'ladi, chunki u suvni o'ziga singdira olmaydi va ushlab turolmaydi, bu esa tez oqish va tuproqning ajralishiga olib keladi [5].

Antropogen omillar

Yerdan foydalanish va yer tuzish: Qishloq xo'jaligi, qurilish, konchilik va shaharsozlik kabi inson faoliyati tabiiy landshaftlarni buzishi va tuproq eroziyasini oshirishi mumkin. Noto'g'ri ishlov berish yoki eroziyaga qarshi choralar ko'rilmaligi kabi yerdan foydalanishning beqaror usullari eroziyani yanada kuchaytirishi mumkin [3].

O'rmonlarni kesish: Yog'och, qishloq xo'jaligi yoki rivojlanish uchun o'rmonlarni tozalash himoya o'simlik qoplamini olib tashlaydi, bu esa tuproqni shamol va suv eroziyasiga nisbatan zaifroq qiladi.

Chorvachilik: Chorvachilikning haddan tashqari o'tlatilishi tuproqning siqilishiga, o'simliklarning kamayishiga va yaylovlarda va cho'llarda tuproq eroziyasining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Konchilik va karyer qazish: Qazib olish sanoati, ayniqsa, meliorativ amaliyotlari yetarli bo'lmagan hududlarda tuproqning keng buzilishi va eroziyasiga olib kelishi mumkin [7].

Urbanizatsiya: Shahar qurilishi tabiiy drenaj shakllarini o'zgartiradi va suv o'tkazmaydigan sirtlarni oshiradi, bu esa shaharlarda sirt oqimi va eroziyaning ko'payishiga olib keladi.

Iqlim bilan bog'liq omillar

Iqlim o'zgarishi: Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan harorat va yog'ingarchilik shakllarining o'zgarishi tuproq eroziyasiga ta'sir qilishi mumkin. Yomg'irning intensivligi va chastotasining oshishi eroziyaning yanada jiddiy hodisalariga olib kelishi mumkin [9].

Tabiiy hodisalar

Tabiiy hodisalar: O'rmon yong'inlari, vulqon otilishi, zilzilalar va ko'chkilar kabi tabiiy hodisalar tuproqni bezovta qilishi va eroziyaga olib kelishi mumkin.

Ushbu qo'zg'atuvchi omillarning o'zaro ta'sirini tushunish hududning tuproq eroziyasiga zaifligini baholash va eroziyaga qarshi samarali kurash va yerni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish uchun juda muhimdir. Tabiiy va antropogen omillarni hisobga olgan holda, tuproq eroziyasining ekotizimlar, qishloq xo'jaligi va aholi punktlariga salbiy ta'sirini yumshatish mumkin [3].

XULOSA

Tuproq eroziyasi O'zbekistonda dolzarb ekologik muammo bo'lib, qishloq xo'jaligi, suv resurslari va yer sifati uchun turli sabablar va keng ko'lamlil oqibatlariga olib keladi. Tuproq

yuvilib ketadi va eroziya jarayonlari hududlarning hosildorligini keskin pasayishiga olib keladi [2]. Qattiq yuvilgan tuproqlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan deyarli chiqib ketadi va foydalanishga yaroqsiz bo'lib qoladi [3].

O'zbekistonda tuproq eroziyasining sabablari

Qishloq xo'jaligi amaliyoti: O'zbekiston iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga tayanadi va an'anaviy dehqonchilik usullari ko'pincha tuproq eroziyasiga yordam beradi. Haddan tashqari yaylovlar, doimiy bir xil turdagi ekinlar va noto'g'ri sug'orish texnikasi tuproqning degradatsiyasi va eroziyasiga olib kelishi mumkin [4].

O'rmonlarni kesish: Qishloq xo'jaligi, o'tin va qurilish uchun daraxtlar va butalarni olib tashlash o'simlik qoplamini kamaytiradi. Natijada, o'simliklarning tuproq eroziyasidan himoya qilish funksiyasi susayadi.

Sug'orish amaliyoti: O'zbekistonning keng sug'orish tizimlari, xususan, paxta sanoatida botqoqlanish va sho'rlanishga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida tuproq tuzilishiga ta'sir qiladi va eroziyaga moyilligini oshiradi [5].

Iqlim omillari: Mamlakatning qurg'oqchil iqlimi vaqti-vaqti bilan kuchli yog'ingarchilik hodisalari bilan yuzaki oqim va tuproq eroziyasiga yordam beradi. Iqlim o'zgarishi yog'ingarchilik shakllarini o'zgartirish orqali bu muammoni yanada kuchaytiradi

Shamol eroziyasi: O'zbekistonning qurg'oqchil hududlarida kuchli shamol bo'shashgan tuproq zarralarini harakatga keltirib, shamol eroziyasiga olib keladi. Haddan tashqari yaylovlar va yerlarning tanazzulga uchrashi ushbu hududlarning zaiflashishiga yordam beradi [6].

Tuproq eroziyasining ta'siri

Ekin maydonlarining yo'qolishi: Tuproq eroziyasi unumdor ustki qatlam qatlamini pasaytiradi, natijada qishloq xo'jaligi unumdorligi pasayadi va yerlar dehqonlar tomonidan tashlab ketilishi mumkin.

Suv sifatining yomonlashishi: Eroziyaga uchragan tuproq cho'kindilari suv havzalariga kirib, suv sifatiga ta'sir qilishi va suv ekotizimlariga potensial zarar yetkazishi mumkin.

Kamaytirilgan suv saqlash sig'imi: Sug'orish kanallari va suv omborlarida to'plangan cho'kindilar ularning saqlash imkoniyatlarini pasaytirib, suvni boshqarish va taqsimlashga ta'sir qiladi.

Yer degradatsiyasi va cho'llanish: Tuproq eroziyasi yerning degradatsiyasiga yordam beradi, bu esa oxir-oqibat cho'llanishga olib kelishi mumkin - unumdor yer qurg'oqchil cho'lga aylanadi [7].

Tuproq eroziyasiga qarshi kurash

Teraslash va tuproqni saqlash: Oqim tezligini kamaytirish va infiltratsiyani rag'batlantirish uchun, ayniqsa, qiya qishloq xo'jaligi yerlarida terraslash va tuproqni saqlash usullarini qo'llash.

Sohil bo'yi bufer zonalar: cho'kindilarni kamaytirish va suv sifatini himoya qilish uchun suv havzalari bo'ylab qirg'oq bufer zonalarini yaratish [8].

Yaxshilangan sug'orish amaliyoti: botqoqlanish va sho'rlanishni minimallashtirish uchun yanada samarali va barqaror sug'orish usullarini qabul qilish.

O'rmonlarni qayta tiklash va agroo'rmon xo'jaligi: o'simliklar qoplamini yaxshilash va tuproq eroziyasini kamaytirish uchun o'rmonlarni qayta tiklash va agroo'rmonchilik amaliyotlarini rag'batlantirish [9].

Iqlimga chidamli qishloq xo'jaligi: iqlimga chidamli dehqonchilik amaliyotlarini rag'batlantirish, ekinlarni diversifikatsiya qilish va o'zgaruvchan iqlim sharoitlariga moslashish uchun qurg'oqchilikka chidamli navlardan foydalanish.

Qonunchilik va siyosat: Barqaror amaliyotni qo'llab-quvvatlash uchun yerdan foydalanish va tuproqni saqlash bilan bog'liq qonunchilik va siyosatni mustahkamlash [10].

Tuproq eroziyasining turlari

Tuproq eroziyasi - bu tuproq zarralari shamol, suv yoki inson faoliyati kabi turli xil omillar ta'sirida siljishi, tashish va cho'kish natijasida yuzaga keladigan tabiiy jarayon. Tuproq eroziyasi tabiiy hodisa bo'lsa-da, u inson faoliyati ta'sirida tezlashib, kuchayib, atrof-muhit va qishloq xo'jaligi uchun zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin [11].

Tuproq eroziyasi jarayonlarining tezlashtiruvchi omillari

O‘ZBEKISTONDA TUPROQ EROZIYASINING SABABLARI VA EROZIYAGA TASIR QILUVCHI OMILLAR

ПРИЧИНЫ ЭРОЗИИ ПОЧВ В УЗБЕКИСТАНЕ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЭРОЗИЮ

CAUSES OF SOIL EROSION IN UZBEKISTAN AND FACTORS AFFECTING EROSION

Juliyev Muxiddin Komilovich¹

¹Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, “TIQXXMI” MTU- tabiiy fanlar PhD doktori, laboratoriya mudiri, Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti - tabiiy fanlar PhD doktori, dotsent

Gafurova Laziza Akramovna²

²O‘zbekiston Milliy Universiteti – biologiya fanlari doktori. Professor

Xolmurodova Madinabonu Dilmurod qizi³

³Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, “TIQXXMI” MTU-Tayanch doktoranti

Abdikairov Bekmurat Edilbay Uli⁴

⁴Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti-Tayanch doktoranti

Annotatsiya

Markaziy Osiyodagi dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan O‘zbekiston turli tabiiy va antropogen omillar ta‘sirida tuproq eroziyasi bilan bog‘liq jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Tuproqni eroziyadan himoya qilish masalalari jahonda va O‘zbekistonda global muammoga aylanib bormoqda. Asosan qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil iqlimi, keng qishloq xo‘jaligi amaliyoti va cheklangan suv resurslari bilan mamlakat tuproq eroziyasiga ayniqsa moyil. Ushbu maqolada biz O‘zbekistondagi tuproq eroziyasi muammolari, ularning sabablari, ta‘siri va ushbu muhim ekologik muammoni hal qilish borasidagi sa‘y-harakatlarni ko‘rib chiqamiz.

Аннотация

Узбекистан, не имеющая выхода к морю страна в Центральной Азии, сталкивается со значительными проблемами эрозии почвы, вызванной различными природными и антропогенными факторами. Вопросы защиты почв от эрозии становятся глобальной проблемой в мире и в Узбекистане. Благодаря преимущественно засушливому или полусушливому климату, экстенсивным методам ведения сельского хозяйства и ограниченными водными ресурсами страна особенно подвержена эрозии почвы. В этой статье мы рассмотрим проблемы эрозии почв в Узбекистане, их причины, последствия и усилия по решению этой важной экологической проблемы.

Abstract

Uzbekistan, a landlocked country in Central Asia, faces significant soil erosion challenges driven by various natural and anthropogenic factors. The issues of soil erosion protection are becoming a global problem in the world and in Uzbekistan. With its predominantly arid to semi-arid climate, extensive agricultural practices, and limited water resources, the country is particularly susceptible to soil erosion. In this article, we will examine the problems of soil erosion in Uzbekistan, their causes, effects, and efforts to solve this important environmental problem.

Kalit so‘zlar: tuproq, eroziya, ekotizim, tabiiy resurs, terassa.

Ключевые слова: почва, эрозия, экосистем, природные, терраса.

Key words: soil, erosion, ecology, natural resource, terrace.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan bo‘lib, tekislik va tog‘li relyefning o‘ziga xos uyg‘unligi hisoblanadi. Umumiy maydoni 44,884 mln.ga. Respublikamiz hududida eroziyaning barcha turlari kuzatiladi: suv, shamol, zararli shamol harakati nafaqat tuproqqa, balki bevosita o‘simliklarga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ularning qurib ketishi, mexanik shikastlanishi va boshqalarni keltirib chiqaradi [1]. Shu sababli, tuproqni muhofaza qilish muammosi katta ahamiyatga ega, chunki eroziya jarayonlari natijasida tog‘li hududlar tuproqlarining halokatli qashshoqlanishi sodir bo‘ladi, tuproqning eng unumdor qismi

Nowadays, social media plays a big role in illuminating the life of the society. The origin of many euphemisms is related to this media. The English-speaking media, which includes radio, television, newspapers, and magazines, frequently uses a lot of euphemisms. Furthermore, it's conceivable that even smart students who pay close attention to euphemisms may struggle to understand and interpret them. According to Roe, Burns, and Smith, euphemisms and figurative language provide serious challenges for learners of foreign languages because they frequently lack the prior information necessary to understand euphemisms and terms used metaphorically in various settings. There are some other euphemisms which can be used instead of some words in our social life: *It's not a purchase you're trying to justify; it's an "investment"*. By using the word "investment" instead of the word "purchase" in this sentence, an additional meaning can be imposed on the sentence. People who like to do a lot of shopping are often called *"over-spenders"*. The use of the euphemism *"just experiencing lifestyle inflation"* instead of this word softens the impolite meaning of the word. In addition, there are euphemisms related to human health, and by using the phrase *"have the sniffles"* instead of *"have a cold"*, a person can show changes related to his health.

It is obvious that *"vomit"* is an impolite word that should be replaced by another word. For example, it can be substituted by the word *"tossed their cookies"*. In addition, in some uncomfortable situations, a person may cry. Even in this case, we may need a lot of help from our friends. Instead of the word *"cry"*, the euphemism *"eyes are leaking"* can be used. For example: *"She's not crying; her "eyes are leaking."* Sometimes telling older people that you are *old* is a sign of rudeness. It is also possible to use the euphemism *"over the hill"* instead of this word.

CONCLUSION

Thus, based on previous examples of euphemism, it may be concluded when it comes to interpreting euphemistic expressions, the situations they are used should be taken into consideration. The following conclusions have been made according to the research results:

- the speaker should use parallel euphemism to his impolite word in order to get rid of uncomfortable situations;
- euphemisms should be used according to the context meaning. Otherwise, they may convey another meaning in another situation;
- the speaker should try to convey the meaning without maintaining the original euphemism.

It means that he can use neutral terms. Moreover, it should be mentioned that this article presents information on euphemisms which are used in social life, but it does not cover all words. Our next research may reveal further information on the analysis of euphemisms.

REFERENCES

1. Al-Shawi, Muna Ahmad. "Translating euphemisms: Theory and application". Journal of American Arabic Academy for Sciences and Technology 4.8 (2013): 123-132.
2. Bowers JS, Pleydell-Pearce CW (2011) Swearing, Euphemisms, and Linguistic Relativity. PLoS ONE 6(7): e22341. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0022341>
3. Hojati, Alireza. "A Study of Euphemisms in the Context of English-speaking Media". International Journal of Linguistics 4.4 (2012): 552.
4. Hojati, Alireza. "A Study of Euphemisms in the Context of English-speaking Media". International Journal of Linguistics 4.4 (2012): 552.
5. Lacone, S. Write to the Point: How to Communicate in Business With Style and Purpose. The United States of America: Career Press. 2003. -P.60.
6. Pavlenko, A. (2006). *Bilingual minds: emotional experience, expression and representation*. Toronto: Multilingual Matters. p. 260.
7. Roe, B., Burns, P., & Smith, S. *Teaching Reading in Today's Elementary Schools*. The United States of America: Cengage Learning.2003.
8. Waljinah, Sri, et al. "The study of euphemism in social media: Digital technology-based learning media innovation". International Journal of Innovation, Creativity and Change 12.2 (2020): 172-184.

in the context and express a different meaning outside of the context. We often use such words in our daily life. We tried to express the main meaning of collected data.

RESULTS AND DISCUSSIONS

Human connection is an integral part of social life. Since humans are social beings that require interaction with one another, communication is a basic necessity in daily life. Speaking, writing, and body language are all ways that a language may be used to communicate. People must thus use caution when speaking in order to ensure that the engagement goes properly. Nonetheless, there are a few terms that are awkward and impractical to employ in these kinds of social situations. People can inadvertently use offensive language in public when interacting with one another, and they may not even realize that their remarks could offend someone else. There is a phrase in linguistics for refining words that are used in substitute of disagreeable ones. The research is known as euphemism. As Allan & Burridge stated euphemism is a term that can be used to utter a dis-preferred expression so that it can save or maintain the image of the speaker, the hearer or other people. By substituting the pleasant term (euphemism) for the unpleasant word (taboo), it may be demonstrated. During our research, we studied many materials. We found euphemisms that people use in their social life and analyzed them in the discussion section of the article.

Oral communication is a general example that people can use in their daily lives. For example, it would be more courteous to ask, "Excuse me, where is the restroom?" instead of, "Excuse me, where is the toilet?" when someone wants to ask about the restroom. In everyday human communication, euphemisms are used both in spoken and written forms. There are several spoken instances of euphemisms used in a variety of contexts.

Beizaae & Mirza noted that individuals frequently use more expressive language while speaking to express their thoughts and emotions. However, it differs from written communication, which often expresses ideas, emotions, and feelings using more formal language. Nonetheless, the goal of euphemisms, whether they be spoken or written, is always to make the reader or hearer feels comfortable rather than ashamed. According to those perspectives, euphemisms are inevitable in day-to-day human communication. There are countless euphemisms that we use in our daily life. We will analyze the most used euphemisms in this part:

- the word "*let go*" can be used instead of the word "*fired*" when a person is fired; "Let go" instead of "fired";
- the use of the word "*bit the dust*" instead of the word "*died*" softens the situation;
- the use of the word "*fat*" seems rather rude to an obese person. Because of this, if this word is replaced by the word "*big boned*", it will be appropriate;
- "*darn*" is considered a more polite word instead of "*damn*" in the situation where the person is still out;
- we know that in our daily life we can face situations related to cheating. In this case, the use of the word "*spin the truth*" instead of the word "*lie*" softens the situation;
- calling people ugly is the highest form of rudeness. Because of this, the use of the word "*unique looking*" instead of the word "*ugly*" does not have a negative effect on a person and is also pleasing;
- the words "*vertically challenged*" can be used instead of the word "*short*" to express the shortness of something or an object;
- instead of using the word "cheating" during exams, you can use the word "stepping out";
- calling people "*dumb*" can make things worse. The use of "*not the sharpest tool in the shed*" *instead* indicates that person has rich lexical resource;
- Using the word "*economical*" instead of the word "*cheap*" is an example of the use of euphemisms.

There are strong objections to the use of euphemisms since they can be used to trick people, even if it is generally accepted that using them to make unmentionable subjects more talkable and less insulting is a desirable thing. In this case, Lacone comments that "euphemisms can also hide seemingly simple and straightforward words behind deceptive or overly complex ones".

purposefully included into a society's products to serve specific interests. Ultimately, however, linguistics-the study of language-has advanced, and linguists have produced theories of language to help people use language more widely while avoiding offensive terms. In this instance, euphemism is a field of linguistics that will stand for forbidden words or speech. The purpose of euphemism is to shield the author, speaker, hearer, reader, or any combination of these from potential embarrassment and offense. This crime can be committed by bringing up a forbidden subject-such as religion or death-or by bringing up the possibility that the topic at hand-such as politics or social issues-may be delicate. One of the first linguistic devices, the euphemism, masks the human situation.

According to Oxford dictionary, the word "euphemism" is defined as a subtle or indirect word or expression that replaces a word or expression that is considered too harsh or impolite when referring to something unpleasant or embarrassing.

The development of society and the increasing number of people cause the emergence of new concepts in society. As there is growth where there is development, the development of the language will continue in this way. The increase of the new worldview caused the expansion of lexical sources. Naturally, words increase depending on whether they express positive or negative meanings. For example, the phrase "lavatory" was employed as a euphemism to convey the need to use the restroom in order to avoid using the word "toilet," but over time, it became associated with prohibited behavior. Because of this, several euphemisms that convey the same meaning-like restroom, washroom, and bathroom-have evolved. Taboo and euphemism share another similarity in that they both have a strong sense of national identity. Since every country has a unique culture, it might be challenging to guarantee that individuals from diverse backgrounds would comprehend the same concept. Therefore, there will be various euphemisms to correspond with certain taboo phrases among various ethnic groups.

LITERATURE REVIEW

Muna A. Al-Shawi defines this word as "mild, polite and less distasteful expressions and phrases that replace their offensive equivalence in which culture plays a crucial role in translating them from a language to another different one and they pose difficulty for some translators". Alireza Hojati studied euphemisms in the context of English-speaking media. He adds to the definition: "Euphemisms are frequently used by speakers of different languages to soften the impact of concepts with the potential to cause offence and social disapproval". We know that this kind of words can express cultural meaning of the language. That's why, during the study I looked through the materials conveying cultural characteristics of euphemisms. Amongst them, Abdul Karim Panjaitan is of the opinion that euphemism is not only a linguistic phenomenon, but also a cultural phenomenon, but also a social phenomenon, which reflects the values, aesthetics, and virtues of society. Young researchers often compare the words "taboo" and "euphemism". But these two phenomena can be different from each other. Panjaitan commented on two cases in his article: "The emergence of euphemism has replaced taboo in language. The existence of taboo words constantly stimulates the emergence of euphemism, and the two complement each other. Therefore, taboo words and euphemisms are variable". According to Pavlenko, one of the most important functions of euphemisms is "to protect speakers from undesired emotional arousal". Moreover, Lim adds about the usage of euphemisms in social life: "euphemisms are commonly used in people's daily speech and fulfill two functions in it, namely, toning down the nature of potentially offensive things which people need to mention and speak about, and neutralizing negative connotations associated with offensive entities". According to Cameron, euphemism is like a delicate cloud of linguistic cotton-wool, a somewhat poetic description that conveys its calming and pleasant impact. According to Rawson, euphemism, linguistic fig leaves, and verbal flourishes are all related. The former describes how euphemism is used to conceal or cover up awkward situations.

METHODOLOGY

Our research is related to the analysis of euphemisms used in social life, in which we used word analysis methodology to analyze words. In addition, revealing the meaning of the found materials and phrases in context is our main issue. There are words that have a different meaning

INTERPRETATION OF EUPHEMISMS USED IN SOCIAL LIFE

IJTIMOY HAYOTDA QO‘LLANILADIGAN EVFEMIZMLAR TAVSIFI

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЭВФЕМИЗМОВ, СВЯЗАННЫХ С ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНЬЮ

Gulamova Dilobar Imamkulovna¹

¹Asian International University

Annotatsiya

Turli tillarda so‘zlashuvchilar odatda odamlarni xafa qiladigan yoki ijtimoiy tanqidga olib keladigan g‘oyalar ta‘sirini kamaytirish uchun evfemizmlardan foydalanadilar. Ommaviy axborot vositalarining qo‘llanilishi natijasida hozirgi kunlarda evfemizmlardan tez-tez foydalanilmoqda va yangidan-yangi tushunchalar paydo bo‘lmoqda. Ushbu maqola ham evfemizmlarning insonlar hayotidagi va har kungi hayoti uchun qanchalik zarurligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda insonlar kunlik ishlatadigan evfemizmlarning tahlili olib boriladi. Bilamizki, insonlar jamiyatda doimiy muloqotda bo‘ladi. Ular o‘zlarining fikrlarini, munosabatlarini til orqali namoyon qiladi. Bundan tashqari jamiyatda bo‘ladigan voqealarga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishadi. Insonlar muloqot paytida o‘zlari bilmagan holda evfemizmlardan foydalanishadi. Ushbu izlanish paytida biz ham shunday iboralarni topib, ularni semantik, sotsiologik, kulturologik va pragmatik nuqtayi nazaridan tahlil qildik.

Abstract

Speakers of different languages commonly use euphemisms to lessen the impact of ideas that might offend people or create social criticism. The media has been using euphemisms more frequently these days, and new, contentious euphemisms have also emerged. This article is also aimed at determining how necessary euphemisms are in people’s lives and everyday life, in which the analysis of euphemisms that people use on a daily basis is carried out. We know that people are in constant communication in society. They show their signs and relations through language. In addition, they react to events positively or negatively in the society. People unknowingly use emoticons during communication. During this research, we found such expressions and analyzed them from the semantic, sociological, cultural and pragmatic points of view.

Аннотация

Носители разных языков обычно используют эвфемизмы, чтобы уменьшить влияние идей, которые могут оскорбить людей или вызвать социальную критику. В наши дни средства массовой информации стали чаще использовать эвфемизмы, а также появились новые спорные эвфемизмы. На определение того, насколько необходимы эвфемизмы в жизни и повседневной жизни людей, также направлена данная статья, в которой проводится анализ эвфемизмов, которые люди используют в повседневной жизни. Мы знаем, что люди находятся в постоянном общении в обществе. Свои знаки и отношения они показывают посредством языка. Кроме того, они положительно или отрицательно реагируют на события в обществе. Люди неосознанно используют смайлы во время общения. В ходе данного исследования мы обнаружили такие выражения и проанализировали их с семантической, социологической, культурологической и прагматической точек зрения.

Key words: social life, society, communication, taboo words, daily communication, pragmatic, sociolinguistic approach, cultural meaning.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy hayot, jamiyat, muloqot, tabu so‘zlar, kundalik muloqot, pragmatik, sotsiolingvistik yondashuv, madaniy ma‘no.

Ключевые слова: социальная жизнь, общество, общение, табуированные слова, повседневное общение, прагматический, социолингвистический подход, культурный смысл.

INTRODUCTION

A group of individuals that are intricately linked due to a shared system, custom, set of laws, and set of rules that govern communal existence is called a society. A community of individuals who are bound together in collective life due to the demands of necessity and influence (belief, thought, and ambition) is called a society.

A system in which individuals are interrelated and constitute a single entity is called a society. For their needs to be met, social people depend on other social humans. In society, they are unable to live alone. Additionally, employing symbols to communicate amongst actors is one of society’s requirements. In this instance, language serves as a mediator to help people in society communicate with one another.

Another way that language is tied to social issues is that particular terms in a language cannot always be used in all contexts or settings. This is because regulations are made or

mulla Abdurahmon biravga mirzo Anvarning tegiga yaqinda suv keladi” degan emish... “Bu nima degan gap, mirzo, nega sizning tegingizga suv keladi?” deb so’raydi. Men kuldim... “Hozircha tegim quruq, basharti tegimga suv kelsa, bo’zchiligni o’rgatasizmi?” deb so’radim. Savolimga javob bermaydi, faqat sizning so’zingizni aytib: “Imomimiz fisqi-fasod, bunday kishini haydaganingiz ma’qul” deydi” [2, 182-283 b.].

Demak, badiiy asar tarkibidagi retrospektiv qism kim tomonidan bayon etilishiga ko’ra turli shakllarda qo’llanilishi mumkinligi haqidagi qarashlar o’z isbotini topadi.

Asarda muallif voqealar rivojini to’xtatmay, sharoit taqazosidan yoki kitobxonni hayojonda ushlab turish (intrigani saqlash) maqsadida ayrim voqealarni izohlamaydi. Natijada, ayrim holatlar kitobxonda noaniqlik keltirib chiqaradi:

“... Biz o’tkan 51-nchi faslda Anvar bilan Ra’noni Sultonlining darbozasida qo’yib, 52-nchi-faslga sakragan edik. Shunda chala qolg’an bir necha ahvolni hozir aytib kechmasak, muhtaram o’qug’uchig’a Sultonali masalasi bir oz onglashilmay qoladirg’an ko’rindi. Shundog’ki, Anvarning majburiyat ostida Ra’no bilan kelishi Sultonali juda ham shoshirib qo’ydi. Ikki orada kuchlik muhabbat borlig’ig’a yana bir karra amalda qanoat hosil qilg’anidek, ularning istiqbolini qorongiliqda ko’rdi” [2, 260-262 b.].

Shu o’rinda retrospeksiyaning davriy nuqtai nazaridan ham turli shakllari mavjud ekanligini guvohi bo’lamiz. Berilgan misollardan kelib chiqqan holda retrospeksiyaning – **yaqin o’tmishga, o’tmishga va uzoq o’tmishga murojaat** kabi shakllari mavjud.

Nutq shakliga ya’ni kim tomonidan bayon etilganiga ko’ra retrospeksiyaning shakllarini ko’rdik. Xuddi shu bayon etilgan voqeaning qanday shaklda kelishiga ko’ra ham shakllarga ajratish mumkin. Badiiy asarda biz bevosita **retrospektiv-dialog** shaklida kelganini ko’ramiz:

“ – Manavi osonliqni qarang, taqsir. Duo qilib qalam uchisiga bo’zni berdim, olmaydi. “Yopiray, ozsindiyov, qurg’ur” deb qo’rqdim. “Arza o’runlasa yana xizmat qilarmiz, mirzaboshi”. Yana yo’q, “toza falakat bosti” deb tursam, “arzaga haq olmayman, bo’zingni olib ketavur” – degani ekan. Baraka topqurni qarang, taqsir. A, shundaqa odam ham bo’ladimi, Samad og’a. “Oltin olmasang, duo ol” deb qo’limni ochtim. Ha, endi buni qo’yavuring. Ertasi kechqurun gula to’g’rilab o’ltursam eshikni birav taqillatadi. “Ha, kelavuring”. Do’konxonaga bo’z qo’ltuqlag’an bir kishi kirdi” [2, 69-70 b.].

XULOSA

Romanda retrospeksiya, uning turli shakllari va retrospektiv elementlardan adib mohirona foydalangan. Abdulla Qodiriyning ushbu romani misolida retrospeksiyaning badiiy asarda **retrospektiv-dialog, biografik-retrospeksiya, hikoyachi-muallif, hikoyachi-personaj retrospeksiyasi, yaqin o’tmish, o’tmish, o’zoq o’tmishga** murojaat shakllidagi turli xil ko’rinishda qo’llanilib, asar voqealari rivojiga turtki beruvchi va voqealar rivojini tormozlantiruvchi vazifalarni bajaradi. Shuningdek, asarga badiiy jihatdan putur yetkizmagan holda, kitobxonni asosiy voqealarga tayyorlash, asar qahramonlari xarakteri qirralarini ochish, ularning xatti-harakatlari sabablarini izohlash kabi turli xil funksiyalarni bajarishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Rahimov Z., Gulomov D. Retrospective plot features // EPRA International Journal of Multidisciplinary research (IJMR) – 2020. Issue:11. november, No6, page 510-513.
2. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon, – Toshkent: Sharq, 2004. 287 b.
3. Rahimov Z. “Ko’hna dunyo” romani poetikasi. Filol. fan. nom. diss... –Farg’ona, 2005.
4. Rahimov Z., Gulomov D.D. Retrospective structure in fiction. “Actual problems of classical and modern uzbek literature” collection of the international online conference, 2020, page 153-160.

“Mehrobdan chayon” romanida adib umumiy hisobda **40 marta** turli xil ko‘rinishdagi retrospeksiyaning foydalanilganligini guvohi bo‘lamiz. Abdulla Qodiriy ijodidagi retrospeksiyaning o‘ziga xos jihatlardan biri, muallafning asosan **“biografik retrospeksiya”**dan foydalanadi. Masalan,

“Solih maxdum 1230-1290 hijriy yillarda “Ho‘qandi firdavsmonand”da yashag‘an bir muallim va imom, o‘z zamonasining istilosi bilan aytkanda “maktabdor domla”dir. Solih maxdum sinfi jihatdan ulamo oilasiga mansub bo‘lib, bobosi Olimxon va Umarxon davrlarida muftilik, qozilik mansablarida xizmat qilg‘an, otasi ersa Qo‘qonning Madali (Muhammadali) xon madrasasida necha yillar mudarris bo‘lgandir. Qisqasi maxdumning ota-bobolari xonlar qoshida mumtoz va xalq nazarida “sharaflik va muhtaram” mavqi’ni ushlab kelganlar” [2, 8-11 b.].

Yozuvchi dastlab Solih maxdum o‘tmishiga qaytib, uning oilasi haqida ma‘lumot berdi. Demak, biografik retrospeksiya – u yoki bu qahramonning harakterdagi tushunarsiz jihatlarni ochib berish, izohlash uchun qo‘llaniladi. Keyinchalik voqealar uning oilasi o‘tmishiga aniqlik kiritishni taqazo etib, muallif uzoqroq o‘tmishga qaytadi. Keyingi sahifada voqealarning mantiqiy davomi sifatida Solih maxdum bolaligi tasviri berildi:

“Solih maxdum otasining vafotida yigirma yoshliq talaba edi. Otasi marhum bo‘lg‘andan so‘ng o‘zidan bir necha yosh kattaroq og‘asi Marg‘ilong‘a imom bo‘lib oilasi bilan ko‘chib ketdi. Solih maxdum onasi va o‘n olti yoshliq Na‘ima ismlik singlisi bilan Qo‘qonda qo‘ldi. Birar joydan kelim bo‘lmag‘anliqdan bu oila ko‘b tanglikka tushib oxirda Solih maxdum tahsilni tark etishka, qorin to‘ydirarliq bir kasb izlashka majbur bo‘ldi” [2, 12-13 b.].

Kitobxon asarda tasvirlanadigan Solih maxdum obrazining asosiy voqealargacha bo‘lgan o‘tmishi, personaj evolutsiyasi haqida ma‘lumotga ega bo‘ldi. Endigi voqealar uning xarakterining ayrim xislatlarini izohlashni taqazo etdi:

“Yuqoridan o‘qug‘uchig‘a bir daraja onglashilg‘an bo‘lsa kerakki, yaqin yigirma yillardan beri maxdumning maxdumning kelimi shahar yoki qishloq so‘rab turg‘an bir bekcha bo‘lasa-da, undan quyiroq, har holda shahar madrasasida darsto‘lik qilib, vaqfni o‘z qabzig‘a olg‘an bir mudarrisning tushimidan albatta ko‘b. Kelimning shu yo‘sun yaxshi bo‘lishig‘a qaramasdan uning tabi‘atida harchand tirishilsa ham maxtab bo‘lmaydirg‘an xususiyatlar bor: xasislikka o‘xshag‘an holat, tama‘girlik kabi odat, ichqoraliq singari harakat va amsoli...” [2, 14-19 b.].

Xuddi shunday shaklda muallif Nigorxonim, Ra‘no va keyingi o‘rinlarda Anvar va uning oilasi haqida retrospeksiya yordamida ma‘lumot berib, izohlab kitobxonni asosiy voqealarga tayyorlab oladi. Demak, asar boshidagi retrospektiv qism bir vaqtning o‘zida qahramonlarni anglash va keyingi voqealarda ularni xatti-xarakatini tushunish imkoniyatini beradi. Bunday holatda retrospektiv qism syujet voqealarini rivojlantiruvchi vazifasini ham bajaradi. Ayrim tadqiqotchilarning naznida badiiy asarda retrospeksiyaning qo‘llanilisha syujet rivojini ortga tashlaydi degan yanglish fikr mavjud. Retrospeksiyaning foydalanilgan voqealar rivoji bir qarashda sekinlashgandek tuyulishi mumkin. Aslida esa retrospeksiyaning unumli foydalanilganda voqealar rivoji tashqi harakat dinamikasidan ichki harakat dinamikasiga ko‘chadi. Ammo biz har doim ham shunday bo‘ladi degan fikrdan yiroqmiz. Ba‘zi holatlarda mualliflar voqealar rivojiga shunday shiddat beradiki, natijada kitobxon bu voqealar tezligiga berilib, moslashib keyingi shiddatni sezmay qoladi. Shu o‘rinlarda muallif retrospeksiya yordamida voqealar rivojini bir muddatga sekinlashtiradi, o‘quvchiga harakat dinamikasini anglab olishga imkoniyat berganday bo‘ladi. Bunday holatlarda retrospeksiyaning syujet rivojini tormozlantiruvchi funksiyasi ko‘rinadi. Demak retrospeksiyaning syujet voqealarini **rivojlantiruvchi** va **sekinlashtiruvchi** funksiyalari mavjudligi haqidagi fikr o‘z isbotini topadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bizga ma‘lumki, badiiy asar tili bir muncha murakkablikka ega. Epik asarlarda asosan voqealar bayonini muallif o‘z qo‘lida ushlab turadi. Ba‘zi holatlarda muallif voqealar bayonini personajga topshiradi. Shunga ko‘ra badiiy asarda **hikoyachi-personaj retrospeksiyasi**[3, 69-70 b.]ga ham duch kelish mumkin:

“– Sizning shu gapingiz bilan bir kishi yodimg‘a tushti: o‘zi mulla Abdurahmonning qavmlaridan bo‘lg‘an oq ko‘ngilli sodda bir kishi bor. Oti... ha, oti Safarboy, kasbi bo‘zchilik. O‘tkan kun o‘rdadan qaytib borsam, shu kishi uyda meni kutib o‘lturibdir. Xo‘sh, keling, Safar aka? — Kuygan-pishkan, menga “arz” qildi: mulla Abdurahmonning bir do‘stidan eshitkan emish, go‘yo

**ABDULLA QODIRIY IJODIDA RETROSPEKTIV SYUJET
("MEHROBDAN CHAYON" ROMANI MISOLIDA)****РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ СЮЖЕТ В РАБОТАХ АБДУЛЛЫ КАДИРИ
(НА ПРИМЕРЕ СКОРПИОНА С АЛТАРЯ)****RETROSPECTIVE PLOT IN THE WORK OF ABDULLA KADIRI
(ON THE EXAMPLE OF THE NOVEL "SCORPION FROM ALTAR")****G'ulomov Doniyorbek Dilshodjon o'g'li¹**¹Farg'ona davlat universiteti, adabiyotshunoslik kafedrası o'qituvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy ijodida syujet qurilishining retrospektiv tipi, o'ziga xosligi, mazmuni va shakliga ko'ra ko'rinishlari, retrospektiv qismning kim tomonidan qo'llanilishiga ko'ra shakllari, retrospektiv elementlar va ularning badiiy asardagi vazifalari "Mehrobdan chayon" romani misolida tadqiq etilgan.

Аннотация

В этой статье рассматривается ретроспективный тип, уникальность, содержание и структура сюжета в произведениях Абдуллы Кадири, формы ретроспективной части в зависимости от того, кто их использует, элементы ретроспекции и их функции в художественном произведении на примере романа "Скорпион из Алтаря".

Abstract

In this article, the retrospective type, uniqueness, content, and structure of the plot in the works of Abdulla Qodiriy, the forms of the retrospective part depending on who is using them, the elements of retrospection, and their functions in the literary work are explored, using the example of the novel "Scorpion from the Altar".

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, roman, retrospeksiya, syujet, retrospektiv elementlar, voqea, voqealar rivoji, badiiy asar, kitobxon, funksiya.

Ключевые слова: Абдулла Кадыри, роман, ретроспектива, сюжет, ретроспективные элементы, событие, развитие событий, художественное произведение, читатель, функция.

Key words: Abdulla Qadiri, novel, retrospective, plot, retrospective elements, event, events narration, artwork, reader, function.

KIRISH

O'zbek romanchiligi asoschisi, Turkiston jadidchilik harakati yorqin namoyondasi Abdulla Qodiriyning ijodi, yaratgan asarlari hanuzgacha yuzlab ilmiy asarlar, monografiyalar, va ilmiy maqolalarga asos bo'lib kelmoqda. Adibning ikkinchi yirik asari "Mehrobdan chayon" 1928-yil fevral oyida yozilib, 1929-yilda Samarqandda bosib chiqarildi. Roman mavzui "xon zamonlari" davridagi ijtimoiy hayot, amaldorlar zulmi, o'zboshimchaliklarini yoritishga qaratilgan bo'lsada, roman yozilgan davr muhiti ufurib turadi. Asarning "Mehrobdan chayon" nomlanishi unda bosh qahramon etib ziyolilar olinishidan maqsad – muqaddas va aziz joydan chiqqan qallob, munofiq, hasadgo'y, e'tiqodsiz, muallif tili bilan aytganda "chayon"lar haqida so'zlash, ularning kirdikorlarini fosh etish edi. Muallif Anvar va Ra'no sevgi sarguzashti, shaxsiy taqdiri misolida butun davr ijtimoiy muhitini yoritib bera olgan deysh mumkin.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR

Roman syujeti qurilishi ham Qodiriyga xos mahorat bilan tuzilgan. Jumladan, roman syujeti qurilishining **retrospektiv usuli** [1,510-513b.], **retrospektiv elementlardan** mohirona foydalanilgan. Tarixiy romanlarda davr, tasvirlanayotgan voqealar ko'lami kengligi bois retrospektiv syujetdan foydalanish juda qulay vositadir. Yozuvchining voqealarni to'liq bayon etishga urinishi, uning ko'lami kengayib ketishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida asarning badiiy qiymatiga putur yetkazadi. Badiiy asar shunchaki keng ko'lamdagi voqealar bayoni bo'lib qolishiga va kitobxonni ko'pincha zerikib qolishiga olib kelishi mumkin. Endilikda, yozuvchi bevosita asosiy voqealar bayoniga o'tadi. Asarning ma'lum qismiga yetganida, biror holat, harakterni izohlash ehtiyoji tug'ilganda uning o'tmishiga qisqa murojaat qilishi, avvaliga tushunarsiz xatti-harakat va voqealarga aniqlik kiritishi mumkin. Bu esa yozuvchi zimmasidagi vazifani yengillashtiradi.

yomon xulqqa mayli baland bo'ladi. U bolaligi tabiatidan u voyaga yetmagan va aqli mukammal bo'lmagan bo'ladi. Axloqini takomillashtirish uchun u atrofdagilarga taqlid qilishi kerak bo'ladi. Ya'ni bola atrofida qaysi hodisani ko'proq ko'rsa, o'sha narsa unda ko'proq rivoj topadi. Bolada tarbiyaning shakllanayotganining birinchi alomati bu unda hayoning namoyon bo'lishidir. Demak, e'tibor berish kerakki, agar unda hayo paydo bo'lgan bo'lsa, u ko'proq vaqt boshini quyi solib yuradi va yomonlik qilmaydi. Mana shu holatlar uning odobining dalillaridir. Chunki shunday bo'lsa, uning nafsi yomonliklardan uzoq va yaxshilikka moyil ekanligini ko'rsatadi. Bu narsa uning tarbiya topayotganining alomatidir. Shunday bo'layotgan bo'lsa, uni tarbiyalashga yanada ko'proq harakat qilish kerak hamda beparvolik va o'z holiga tashlab qo'yishdan saqlanish kerak. Bolaga tarbiya berishning boshi shu ediki, bu unga odobi qarama- qarshi bo'lgan bolalar bilan ko'p aralashtirish, ular bilan haddan tashqari ko'p o'tirishi va erkalanishidan ehtiyot bo'lsin. Chunki bolaning nafsi sodda bo'ladi va atrofdagilarning shakllari, harakatlarini juda tez qabul qiladi. Uning har bir yaxshi harakati uchun mehr berib, rag'batlantirib turish kerak. Xususan, mol-u dunyo va nasabi jihatidan emas, balki uning aqli, tarbiyasi, diyonati yaxshi tomonga rivojlanayotgani uchun ko'proq rag'batlantirish kerak.

Yuqoridagi parchalardan Nosiruddin Tusiyning oila, ayol va bolalarga qanday muomalada bo'lish kerakligi haqidagi fikrlarini bilib oldik. Darhaqiqat uning bu tavsiyalari hozirgi kunda ham nihoyatda dolzarb. Har bir kishi Nosiruddin Tusiyning "Axloqi Nosiriy" asarini o'qib chiqsa, albatta, o'ziga manfaatlarni topa oladi. Natijasi esa avval oilada, keyin butun jamiyatda ijobiy ko'rinishda aks etadi. Abu Ali ibn Sino va Nosiruddin Tusiy butun olamga dong'i ketgan hayot faylasuflari edi. Chunki ularning asarlari, falsafiy va axloqiy qarashlari hozirgi kunda ham insoniyat uchun ish bermoqda. Shuning uchun ham ularning shaxsiyati va asarlariga qiziqish va o'rganish hamon davom etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Ali Ibn Sino. "Al-ishorat va at-tanbihot" (Nosiruddin Tusiy sharhi) Qohira. Nosiruddin Tusiy "Axloqi nosiriy" asari. Tehron. 1356- hijriy-shamsiy yil.
2. Dinorshoyev M.D. Filosofya Nasiriddina Tusiy. Dushanbe. "Donish". 1968.
3. Abd al-Amir A'som. Faylasuf Nosiruddin Tusiy. Bayrut. 1980-y.
4. Nosiruddin Tusiy. Fan muammosiga sharhlar. Eron, Mashhad universiteti, 1345 h-sh.y.
5. Ibn Sino "Kitob ash – shifo" (Al – Xitoba) Qohira – 1954 147-b.
6. ziyo.uz.

axloqshunoslik, tibbiyot, biologiya, matematika fanlari, adabiyot, fiqh, hadisshunoslik, Qur'oni karimning sharhlari, kalom kabi ilmning barcha sohalarini qamrab olgan 200 ga yaqin asarlari[12] Sharq va G'arb olimlarining tadqiqot ob'yektiga aylandi. Tusiyy ijodining ensiklopedik xarakterga ega ekanligi uning dunyoqarashi haqida turli bahslarni keltirib chiqardi, mutafakkirning falsafiy - axloqiy qarashlari chuqur tahlil va taqlid ob'yektiga aylandi. A'som singari boshqa tadqiqotchilar ham Nosiruddin Tusiyni Bag'dod olimlari va faylasuflarini mo'g'o'llar bosimidan qutqarganligini ta'kidlashadi.

Mutafakkirning falsafiy qarashlarini tadqiq qilgan olimlar unga nisbatan juda ham yuqori baho beradilar. Masalan, akademik M.D.Dinorshoyev quyidagilarni ta'kidlaydi: "Mashhur ingliz sharqshunosi Arberrining "Nosiruddin Tusiyy Ibn Sinodek mutafakkirning maqomini egallashga qodir bo'lgan dovruc qozondi",- degan fikri to'laqonli asosga ega"[13]. Xuddi shunday fikrni arab faylasufi A'som ham bildirib o'tadi: "Nosiruddin Tusiyy falsafiy qarashlari bo'yicha Farobiy, Ibn Sino va Ibn Rushd kabi mutafakkirlardan o'tib ketdi. Lekin Ibn Sino borasida bunday deyish mushkul, chunki Nosiruddin Tusiyy "Shayx-ur-Rais"ning "al-Ishorot va at-Tanbehot" asrining sharhini yozgan". Bundan tashqari A'som Tusiyni ham nazariya sohasida va amaliyotda sinochilikning asoschisi va izdoshi deb hisoblaydi. Nosiruddin Tusiyyning falsafiy qarashlari, xususan, ontologik va gnoseologik qarashlarida Ibn Sinoning falsafiy qarashlarining kuchli ta'sirini ko'ramiz. Tusiyyning axloqiy qarashlari ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Falsafaning vazifasi, Nosiruddin Tusiyy fikricha, mavjudotni, ya'ni barcha mavjud narsalarning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, biridan ikkinchisiga o'tishi darajalarini atroflicha o'rganishdan iboratdir. Uning o'rgatishicha, olam yaxlit, murakkab borliqdir. Bu borliqni har tomonlama tekshirish uchun mutafakkir zaruriyat, imkoniyat, voqelik va sababiyat prinsiplarini asos qilib oladi. "Borliqni, - deb yozadi ibn Sino, - ta'rifsiz aql orqali bilish mumkin, chunki uning turi, ko'rinishi yo'q, undan mashhur va umumiyroq narsa yo'q, uni ta'riflab bo'lmaydi. Borliq ikki qismga bo'linadi, ulardan biri borlig'i o'z zotidan bo'ladigan, ikkinchisi esa borlig'i zotidan boshqasidan bo'ladigan narsalardir. Birinchisi o'z zotidan boshqasidan bo'ladigan narsalardir". Buni Nosiruddin Tusiyy imkoniy vujud deb ataydi[14]. U zaruriy vujudni hech narsaga bog'liq bo'lmagan bir butunlikni tashkil etuvchi, eng irodali, qudratli, dono va biluvchi Tangri deb ataydi. Qolgan barcha narsalar imkoniy tarzda mavjud bo'lib, zaruriy vujuddan kelib chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, Nosiruddin Tusiyy Xudo va barcha narsalarni – sabab va oqibat holatida bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Nosiruddin Tusiyy ilmiy falsafiy sistemasida sababiyat prinsipi muhim o'rinni egallaydi. Bu prinsip orqali Tusiyy butun borliqning, borliq predmetlari va hodisalarining kelib chiqishi, mavjud bo'lishini tushuntiradi. Nosiruddin Tusiyyning "Axloqi nosiriy" asarining ayrim boblaridan parchalar keltiramiz. Kimki bir ishda nom chiqarsa, o'sha ishda ustunlik va kamolotga erishishga harakat qilsin va past daraja bilan qanoatlanmasin. Shuningdek, o'zida bor ilm bilan qanoatlanib qolmasin. Bilish kerakki, kishilar uchun yorqin, ya'ni xursand kundan yaxshiroq ziynat yo'qdir. Oila qurishga shunchaki shahvatni qondirish yoki boshqa shunga o'xshagan narsalar emas, balki molni himoya qilish va yaxshi nasl qoldirish kabi ikki narsa sabab bo'lishi kerak. Soliha ayol nikohda erkakning mol - dunyosi va uning qismlarida, uyni tutishda uning sherigi va erkak uyda bo'lmagan paytlarda uning o'rinbosaridir. Eng yaxshi ayollar aqlli, diyonatli, iffatli, zukko, hayoli, eriga yuragi achiydigan, mehrini izhor qiladigan, tilini tiyadigan, eriga itoat qiladigan, eriga xizmat qilishda o'z nafsini kamtar tutadigan, uning roziligi uchun o'zini baxshida qiladigan, viqorli, haybatli, o'z oilasiga juda yaqin turadigan, eri uchun o'zini ziynatlab yuradigan bo'ladi. Va u aqim[11] bo'lmasligi kerak. Shuningdek, uyini tartib – intizomda saranjom tuta olish, uni asrab – avaylashdan xabardor va shularga qodir bo'lishi kerak. Davralarda, suhbatlarda muomalasi, quvnoqligi bilan barchaning ko'nglini ola biladigan, erning qayg'ularini esa quva oladigan bo'lishi lozim. Ayolda aql, iffat va hayo, albatta, bo'lishi shart. Go'zallik, nasab va boylikni shu uch xislatdan afzal bilish mashaqqatni olib keladi hamda din va dunyo ishlarini barbod qiladi. Ayolning go'zalligi uchungiga ularga sovchilikka borish mumkin emas. Farzand dunyoga kelishi bilan, birinchi bo'lib, unga yaxshi nom qo'yish kerak. Agar unga nomunosib ism qo'ysa, butun umri davomida bundan ko'ngli o'ksib yashaydi. Chunki enagadan farzandga yaxshi va yomon odatlar hamda ko'proq illatlar sut orqali o'tadi. Bolaning oziqlanishi, ya'ni emizilish jarayoni tugashi bilanoq uning odobi va axloqining tarbiyasi bilan shug'ullansin, toki bola boshqalardan yomon xulqni o'zida shakllantirishidan oldin ota – onaning o'zi unga yaxshi odob hamda tarbiyani o'rgatsin. Chunki bola juda sezgir bo'ladi va

Kinematografiyada "Avitsenna" filmi (1956) rejissyor Komil Yormatov tomonidan suratga olingan. Ibn Sinoning yoshlik va o'spirin yillariga bag'ishlangan O'zbekfilm hamda Tojikfilm kinostudiyalari tomonidan ishlangan "Donishmandning yoshligi" filmi 1982-yilda suratga olingan. Olimning yoshlik yillaridan to vafot etguncha hayotidan hikoya qiluvchi 1987 - yil suratga olingan "Avitsenna" («Bu - Ali Sina») teleseriali. 2013 - yil N. Gordonning kitobi asosida («The Physician») Filipp Shtyolsning "Shifokor: Avitsennaning shogirdi" filmlari ekranga chiqdi.

Abu Ali ibn Sinoning hijriy sana (musulmon kalendari) bo'yicha 1000 yillik yubileyi 1954-yili Tehronda va Jahon tinchlik Kongressida o'tkazilgan. Shu vaqtda allomaning xoki eski maqbaradan yangisi (Hamadon)ga ko'chirib o'tkazilgan.

XULOSA

Xulosa qilganda, shuni aytish mumkinki, Ibn Sino o'zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlari keyingi faylasuf olimlarning falsafiy ta'limotlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Mutafakkir o'z asarlarida ilm va odob-axloq uyg'unligi, barkamol avlod kamoloti va baxt-saodati, adolat va diyonat, insonlarning o'zaro do'stligi, hamkorligi, rahbarning burchi va mas'uliyati to'g'risida qiziqarli g'oyalarni ilgari surgan. Buyuk faylasuflarimiz ilgari surgan fikrlari bugungi kunda o'z isbotini topmoqda. Buyuk yurtdoshlarimizning o'zlarining ilmiy - nazariy tadqiqotlari, tajribalarida tabiatdagi barcha hodisalar muayyan tabiiy qonuniyat asosida yuz beradi, tashqi kuchning ta'siri uni izdan chiqarishi mumkin, degan xulosaga keladi. Bu bugun o'z isbotini topgan haqiqatdir. Insoniyat tabiatdan foydalanishda tabiat qonunlariga emas, aksincha, shaxsiy manfaatlariga asoslanib faoliyat ko'rsatishi oqibatida tabiatdagi muvozanatning sezilarli darajada buzilgani, ya'ni, dunyoning turli burchaklarida tabiiy ofatlar: suv toshqinlari, zilzilalar, o'rmon yong'inlari va boshqa shu kabi talofatlarning ro'y berayotgani hech kimga sir emas. Inson tabiiy muhitga ta'sir etar ekan, uning o'zi ham "aks ta'sir"ga duch kelmoqda.

Endi bir oz Nosiruddin Tusiy haqida to'xtalamiz. Abu Jafar Muhammad ibn Muhammad Nosiruddin Tusiy (1201-1274) - XIII asr fors matematik va astronomi, Kamoliddin ibn Yunusning shogirdi, o'ta serqirra olim, falsafa, jo'g'rofiya, musiqa, optika, tibbiyot, minerologiyaga oid asarlar muallifi. Yunon ilmi bilimdoni bo'lgan, Yevklid, Arximed, Avtolik, Feodosiy, Menelay, Apolloniy, Aristarx, Gipsikl, Ptolomeylarning asarlarini sharhlagan.

Nosiruddin at-Tusiy 1201-yil Xurosonning Tus shahrida tug'ilgan va Qur'on, hadislar, shia huquqshunosligi, mantiq, falsafa, matematika, tibbiyot va astronomiyani o'rganib, o'sha yerda yoshligidan tahsil olishni boshlaydi.

Tusiyning merosiga yuzlanar ekanmiz, biz yana bir bor dunyo va dunyo madaniyatining birligida vaqtlarning uzviy bog'lanishiga amin bo'lamiz. Shunday qilib, u o'z asarlarida osmon mexanizmini asos qildi. 400 yil o'tgach, ular G'arbiy Yevropa olimlari tomonidan qayta kashf qilingan. Bolalar astronomi Tixo Brage (1546-1601) Tusiyning hisob-kitoblarini qaytarib, 700 dan ziyod yulduzlar katalogini tuzgan. Bragening ilmiy ishi asosida I. Kepler osmon mexanikasini yaratgan. I. Nyuton ularning mehnatlariga tayangan holda, mexanikaning tayanch qonunlarini yaratgan. Tusiyning matematik mehnatlari Italiya, Angliya, Fransiya - Yevropa Uyg'onish davrining bosh markazlarida nashrdan chiqqan.

Tusiyning jahon ilm-faniga qo'shgan ahamiyatli hissalaridan biri butun Sharqda tanilgan Marog'adagi astronomik rasadxonasining yaratilishidir. Rasadxona 1259 - yil hozirgi Janubiy Ozarbayjon hududida tashkil etilgan.

Tusiy Hulaguga rasadxona qurilishi masalasida murojaat qiladi, ammo qurilish xarajatlari juda katta tuyuladi. Shunda Tusiy Hulaguga askarlar uyquga ketgan vaqt tog'dan mis tog'orani uloqtirishni tavsiya qiladi. Tog'ora tog'dan tushib, katta shovqin ko'taradi va askarlar sarosimaga tushadi va Tusiy shunday deydi: "Biz bu shovqinning sababini bilamiz, askarlar esa bilmaydi; biz xotirjammiz, ular esa xavotirda; shuningdek, biz osmon hodisalaridan boxabar bo'lamiz, biz yerda xotirjam bo'lamiz". Bu so'zlar Hulaguni ishontiradi va rasadxona qurilishiga 20 dinor ajratadi. Tusiyning iltimosiga binoan, Hulagu askarlardan ularning qo'lga tushgan olimlarni o'ldirmay, Marog'aga olib kelishlariga buyruq beradi, bu yerga mo'g'ullar qo'llariga tushgan barcha qo'lyozmalari-yu astronomik moslamalarni keltirishgan.

Nosiruddin Tusiy o'zining ensiklopedik bilimi va aqliy salohiyati tufayli real voqelikning barcha ziddiyatlarini ko'ra olgan takrorlanmas faylasuf hisoblanadi. Mutafakkirning falsafa,

beradi. Ibn Sino arzimagan kasallikka bardosh bera olmaslik, yengiltaklik, birovning mehnati evaziga topilganlarni o'zlashtirib olish, kekkayish kabi xislatlarni qoralaydi, ularni yomon odatlar qatoriga kiritadi. U kishidagi qiziqqonlik ham kishining or-nomusini yerga uradigan xatti-harakatlardandir deb hisoblaydi. Ibn Sino yozadi: "Insonlarning doimiy tobe bo'lib yashashlari, boshqalar tomonidan o'z nafsini masxara qilishiga chidash, jabr-zulmga toqat qilish, yetishmovchilik kabilar kishini keyinchalik qiziqqon bo'lishiga sabab bo'ladi"[10].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ibn Sino insonning yaxshi axloqiy fazilatlariga kishilarning yomon xulq va xatti - harakatlarini qarama-qarshi qo'yadi. U inson qochishi kerak bo'lgan nuqsonlarga aldash, nafrat, zaiflik, rashk, adovat, o'ch olish, sergaplik, so'kinish, bo'hton, bema'nilik, irodasizlik va boshqa yomon xislatlarni kiritadi. Eng katta nuqson deb, kishining yuksak fazilati hisoblangan, ilmga qarama-qarshi turgan johillikni tushunadi. Uningcha, yanglishish – fikr ravshanligiga, axmoqlik – ziyraklikka, nafrat – sevgiga, takabburlik va shafqatsizlik – adolatga qarshi turadi. Axloq normalarini kasb etishda odat katta rol o'ynaydi. Yomon xulq kabi yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi. Ibn Sino o'zini nazoratga olish maqsadida shunday deydi: - "Men tafakkur qilib, o'zimga zarur bo'lgan nasalarni o'qishga kirishdim; bu yo'lda aqlni ishga solib, o'zimni ko'p yomon kirdikorlardan saqlashga ulgura oldim; yomonliklardan chetlashishga olib boradigan har xil xususiyatlarimni bilib oldim. Qaysi fe'l-atvorim menga do'st-u qaysisi dushman ekanini, qaysilarining meni to'g'ri yo'lga-yu, qaysilari egri yo'lga boshlashini angladim. Xullas, men o'zimni o'zim yaxshilab sinchiklab o'rgandim, kimligimni tushundim va shundan keyin ishimni bilib qilgan edim, natijada katta-katta yutuqlarga erishdim"[11]. O'z qissalarida Ibn Sino mardlikni targ'ib qilib, munofiqlik, sergaplik, yolg'onchilik, ishyoqmaslikni, riyokorlarning ikkiyuzlamachiliklarini fosh etadi. Ibn Sino kishilarni ilm - fanni o'rganishga, kasb-hunar egallashga da'vat etadi.

Ibn Sino tabiiy fanlar, mineralogiya, kimyo, botanika, astronomiya, matematika, tibbiyot, adabiyot, musiqa rivojiga beqiyos hissa qo'shgan bo'is uning yaratgan asarlari dunyo tillariga – nemis, ingliz, rus, arab, ispan, italyan, fransuz kabi tillarga tarjima qilingan.

Mustaqilligimiz tufayli yurtimizda sharq allomalarining ilmiy merosini o'rganishga e'tibor kuchaytirilgan. Jahonning turli kutubxonalarida Abu Ali ibn Sino asarlarining qo'lyozmalari saqlanadi. Shu jumladan, yurtimizda O'zbekiston FASHI da alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo'lyozmasi mavjud. Ibn Sinoning g'oyalari rivojini va qarashlari evolyutsiyasini tushunish uchun uning 20 tomlik "Kitab al-Insaf" ("Adolatlilik kitobi"), ayniqsa, muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ming afsuski, u yo'qolib ketgan. O'zining oxirgi asarlaridan bo'lgan "Mubahisat" ("Bahslar") kitobining kirish qismida olim shunday yozadi: "Men "Insaf" ("Adolat") nomli kitob yozdim. Bu kitobda men olimlarni 2 guruhga bo'ldim: sharqliklar va g'arbliklar. Ular doimo bahs-munozara yuritishadi. Har bir bahsda men ularning qarama - qarshi fikrlarini ko'rsataman va shundan so'ng ushbu masalaning adolatli yechimi yo'lini ko'rsataman. Kitobda taxminan 28000 ta muammo ko'rib chiqilgan".

Uning sharafiga Karl Linney Akant oilasiga mansub o'simlikni Avitsenniya deb nomlaydi. Tojikistonda Ibn Sinoning sharafiga Tojikiston davlat meditsina universiteti hamda avvalroq "Lenin tog'i" nomi bilan ma'lum tog' cho'qqisi nomlangan. Dushanbe shahrida uning sharafiga maydon nomlanib, ozarbayjonlik haykaltarosh Umar Eldarov tomonidan yasalgan olimning haykali o'rnatilgan. 2009 yil iyun oyida Eron hukumati tomonidan Venadagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining bo'limiga hozirda Vena xalqaro markazi Memorial maydonidan joy olgan Fors olimlari pavilonini tortiq etadi. Fors olimlari paviloni o'z ichiga to'rt mashhur olimlarni olgan: Ibn Sino, Beruniy, Zokiriy Roziy hamda Umar Xayyom. O'zbekistonning Afshona qishlog'ida Ibn Sino muzeyi mavjud.

1990 - yil Buxoroda Abu Ali ibn Sino sharafiga nomlangan meditsina instituti ochilgan. Sovet va rossiyalik astronom Lyudmila Ivanova Chernix tomonidan 1973 - yil 26 - sentabrda ochilgan asteroidga Avitsenna - Ibn Sino nomi berilgan. Ibn Sino sharafiga Oydagi vulqon nomlangan. Kardiogrammalar va ko'krak bezlarining rentgen suratini avtomatik o'rganish uchun IBM tomonidan yaratilgan dastur Avitsenna nomini olgan.

Samarqandda, Buxoroda, Uchqo'rg'on tumanida Ibn Sino ko'chasi, Ust-Kamenogorskda, Donetskda Avitsenna ko'chasi mavjud. Anqara va Hamadon shaharlarida hamda Rigadagi Gaylezers kasalxonasi majmuasi parkida Abu Ali ibn Sino haykali bor.

bo'ladi. Ibn Sino Sharqda «Shayxur-Rais», G'arbda esa «Avitsenna» nomi bilan mashhur. U 1037 - yilda (hijriy 428) 57 yoshida Hamadon shahrida vafot etadi.

Mutafakkirning turli fanlarga oid 450 dan ortiq ilmiy asarlar yozganligi ma'lum. Biroq bizgacha Ibn Sinoning 242 ta asari yetib kelgan. Shulardan 4 tasi adabiyotga, 5 tasi musiqaga, o'ndan ortig'i astronomiyaga oid asarlar va hokazo...

Uning nasriy asarlari arab tilida yozilgan. «Yusuf» qissasi Qur'on syujeti asosida yozilgan birinchi asar bo'lib, ramziy-majoziy usuldadir. «Risolat - at tayr» («Qush risolasi»), «Uyg'oq o'g'li Tirik» («Hayy ibn Yaqzon») kabi asarlari ham ramziy-majoziy uslubda, «Salomon va Ibsol» esa ishqi-sarguzasht asardir. Ibn Sino shoir sifatida doston, qasida, g'azal, ruboiy, fardlar yozgan. Asarlari: «Kitob ash-shifo», «Donishnoma», «Kitob al-qonun fi-t-tib» («Tib qonunlari kitobi», 5 kitob, 14 jilddan iborat bo'lgan), «Tibbiy urjuza», «Faan ash-she'r» («She'r san'ati», she'r ilmi, yunon she'riyatining tur va shakllari haqida), «Musiq ilmda katta to'plam» va boshqalar. Ibn Sinoning tasavvufiy asarlar doirasiga «Qushlar haqida kitob», «Sevgi haqida kitob», «Duo mohiyati haqida kitob», «Ziyoratchilik mohiyati haqida kitob», «O'limdan qo'rqishdan xalos bo'lish haqidagi kitob», «Qismat kitobi» kabilar kiradi.

Ibn Sino tabobat bilan juda erta qiziqqan va bu soha uning qiziqishlarining katta qismini egallay boshlaydi. Hali 12 yoshga to'lmasidanoq, Ibn Sino o'sha vaqtlarning faylasufi va tabibi Abu Salah al-Masihiyning maslahatiga ko'ra uning ta'limotini egalladi. U tez orada shunchalik mashhur shifokor bo'lib ketadiki, uni saroyga og'ir kasal bo'lib qolgan Buxoro amiri Nuh ibn-Mansurni davolash uchun chaqirtirishadi. Minnatdorlik evaziga Ibn Sino somoniylarning kitob omboridan foydalanish ruxsatiga ega bo'lgan. Buxoro kutubxonasi — o'z davrining eng yirik va eng mashhur kitoblar ombori hisoblangan.

Umrining so'nggi o'n tort yili Isfahonda (1023-1037) amir al-Davla saroyida xizmat qilish bilan o'tadi. U bosh shifokor va amir maslahatchisi bo'ladi va hatto uni yurishlarda ham kuzatib borgan. Bu yillar davomida Ibn Sino o'zining tanqidiy yondashuvi bilan adabiyot va falsafa ta'limoti bilan shug'ullanadi. Uning ko'p qo'lyozmalari, shu jumladan, «Insof kitobi» («Kitab ul-insaf») Isfahonga G'azna qo'shinlari bosqinchiligi sababli yonib ketgan. Isfahon podshosining yurishlaridan birida Ibn Sino og'ir oshqozon kasaliga chalilib, uni tuzata olmaydi. Ibn Sino 1037-yili iyun oyida notanish odamga vasiyatini aytib, vafot etadi. O'z vasiyatida u barcha qullarini ozod etib, barcha mol-mulkini kambag'allarga tarqatishlarini so'raydi. Ibn Sino Hamadonda shahar devori ostiga ko'milgan, oradan sakkiz oy o'tgach, uning xoki Isfahonga olib o'tiladi va amir maqbarasida qayta ko'miladi.

Abu Ali Ibn Sino asarlarida kamolotga erishishning birinchi mezonini -ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib, avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, - deydi u. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi.

Ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlarga va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishish lozimligini, jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerak deb ta'kidlaydi. Jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini ta'kidlaydi. Jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi, basharti podshoning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'oloni to'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i lozim. Ibn Sino o'zining «Axloq haqidagi risola»sida axloqiy xislatlardan or -nomus, sha'n, qadr-qimmat, qanoat, saxiylik, g'ayratlilik, sabr-toqat, halimlik, sirni saqlay bilishlik, ilm-ma'rifatli bo'lish, ochiqlik, vijdonlilik, do'stlik, sadoqatlilik, kamtarlik, saxiylik, adolatlilik kabi shaxs ma'naviyati kategoriyalariga ta'rif beradi. Ibn Sino o'zining bu asarida insonning umumiy fazilati haqida gapirib, kishilarda yuz beradigan yaxshi va yomon xulqlarning paydo bo'lish sabablari haqida to'xtaladi. Ibn Sino fikricha, yaxshi va yomon xulqlarning hammasi odatdan paydo bo'ladi, odamlarning yaxshi yoki yomon bo'lishiga hukumat ahllarning ham ta'siri kattadir. Olimning axloqiy qarashlarini uning «ash-Shifo» asarlarining ko'pgina bo'limlarida ham uchratamiz. Bunda Ibn Sino insonda bo'ladigan g'azablanish, xavfning paydo bo'lishi, qo'rqoqlikning ma'nisi, uyalish va surbetlik xislatlarining qanday kelib chiqishi haqida bosh qotiradi, kishidagi g'amxo'rlik va shafqat deganda nimani tushunish kerakligi, shu bilan birga, kishidagi hasad, o'ch olish, g'ayrlik va nafrat, mensimaslik kabi axloqiy illatlarga batafsil ta'rif

ABU ALI IBN SINO VA NOSIRUDDIN TUSIYNING FALSAFIY QARASHLARI
ФИЛОСОФСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ АБУ АЛИ ИБН СИНА И НАСИРУДДИНА ТУСИ
PHILOSOPHICAL VIEWS OF ABU ALI IBN SINA AND NASIRUDDIN TUSI

Berdiyev Orifjon Lermontovich¹

¹Buxoro davlat universiteti Ё Islom tarixi va manbashunosligi falsafa kafedrasasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ilk Uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino hamda uning izdoshi bo'lgan Nosiruddin Tusiyning falsafiy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan hamda bugungi kundagi ahamiyati ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье сравниваются философские взгляды Абу Али ибн Сины и его последователя Насируддина Туси великого мыслителя периода Раннего Возрождения, и раскрывается их значение.

Abstract

This article compares the philosophical views of Abu Ali ibn Sina and his follower Nasiruddin Tusi the great thinker of the Early Renaissance, and reveals their significance.

Kalit so'zlar: *aql, axloq, baxt-saodat, lazzat, insoniylik, fazilat, nafs, sabr-toqat, saxiylik, g'ayratlilik.*

Ключевые слова: *интеллект, мораль, счастье, удовольствие, человечность, добродетель, желание, терпение, щедрость, энтузиазм.*

Key words: *intelligence, morality, happiness, pleasure, humanity, virtue, desire, patience, generosity, enthusiasm.*

KIRISH

X-XI asrlarda yashab ijod qilgan buyuk faylasuf va tabib Abu Ali ibn Sino va XIII asrda yashab ijod qilgan Nosiruddin Tusiylarning falsafiy qarashlari bugungi kunda beqiyos ahamiyatga egadir. Faylasuflar o'zlarining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodlari, boy meroslari bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynashdi. Shu jumladan, bugungi kunda yurtimizda Ibn Sino va Tusiylarning ilmiy meroslarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'rta asrlarda Sharq olamida yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosini chuqur muhokama qilish va anglash, uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o'rni va roliga baho berish bugungi kun falsafasining dolzarb masalalaridan biridir. Abu Ali ibn Sino va Nosiruddin Tusi O'rta asrlarda yashagan yetuk olimlar hisoblanib, ularni o'z ruhiyati, kuchi, qomusiy aqli, ilmiy-falsafiy intilishlari va talablari bilan uyg'onish davrining buyuk mutafakkirlari bilan qiyoslash mumkin. Ularning asarlarida ilmiy teranlik, falsafiy mushohadaning kengligi ko'zga tashlanadi. Abu Ali ibn Sinoning ko'p tomli qomusiy "Shifo", mashhur 5 kitobdan iborat "Tib qonunlari" hamda Nosiruddin Tusiyning "Axloqi Nosiriy" asarlari buning yaqqol isbotidir. O'z asarlarida mantiqiy madaniyat yutuqlarini umumlashtirib, ularni o'zining shaxsiy yangiliklari bilan to'ldirgan holda, Ibn Sino, YUNESKO ning Bosh konferensiyasining XX sessiyasi qarorida ko'rsatib o'tilganidek, falsafa, mantiq, tibbiyot, tabiatshunoslik, sotsiologiya, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, she'riyatning rivojlanishiga o'zining ulkan hissasini qo'shib, dunyoning barcha mamlakatlarida ilm-fan taraqqiy etishiga katta ta'sir o'tkazgan. Ular yashagan davrdan keyin 10 asr vaqt o'tdi. Bu davr ichida falsafa va ilm-fan oldinga salmoqli qadam tashladi: falsafaning yuqori shakli - dialektik va tarixiy materializm vujudga keldi, fan atom sirini ocha oldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda Ibn Sino va Nosiruddin Tusiylarning qarashlaridagi ko'plab narsalar zamonaviy tushunchalarga hamohangligi va dolzarbligi bilan ajralib turadi. Ularning go'yolari zamonaviy ilmiy bilimlar xazinasiga ham kiritilmoqda. Ularning olamning abadiyligi hamda materiya buzilmasligini ta'minlovchi atributlar haqidagi g'oyalari, tabiiy qonuniyat, hodisalarning sababli bog'liqligi va umumiy o'zgaruvchanligi, olamni anglash va boshqa g'oyalari bunga misoldir.

Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino hijriy 370 (milodiy 980) yilda Buxoroning Afshona, hozirgi Isfana qishlog'ida tug'ilgan. Ibn Sino 1002 yilda Buxorodan chiqib ketadi. Urganch, Obivard, Naso, Nishopur, Jurjon, Ray, Isfahon, Hamadon kabi shaharlarda

tugatish to'g'risida"gi Deklaratsiya, "Irqiy kamsitishlarning barcha shakllarini tugatish to'g'risida"gi xalqaro konvensiya va boshqa xalqaro hujjatlarga qo'shilgan. Bu esa jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy murosamo tamoyillarini amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Xoja Ahror Valiyning aql – zakovati, murosamo falsafasiga doir ilmi, muqaddas islom dini va falsafasi, naqshbandiya tariqatining rivojiga katta hissa qo'shgan piri murshid sifatida hozirgi kunda ham ibrat maktabidir. Inson o'zi bilan o'zi va atrofdagilar bilan murosamo yashashi uchun asosiy mezonlaridan biri uning o'zligini anglashidir. Xoja Ahror Valiyning murosamo falsafasida o'z-o'zini anglash murosamo hayotning asosi ekanligini ta'kidlangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xoja Ubaydulloq Ahror. Fiqroti Ahrorijya. /Tabarruk risolalar. Nashrga tayyorlovchi,– Maqhud Xasaniy, Baqhriddin Umrzoq, Xamidulloq Amin. T.: Adolat, 2004, –B 326.
2. Faqhriddin Ali Safoy. Rashaqotu aynilxaet (Obi xaet tomchilari) / Nashrga tayyorlovchilar: Maqhud Xasaniy, Baqhriddin Umrzoq. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 2004. –B 390.
3. Berезиков E. Svyatye lyudi Turkestana. –T.: Kamalak, 1992. –B. 125.
4. Sul-ton I. Baqhovuddin Naqshband abadiyati. –T.: Fan, 1994. –B. 10.
5. Xoja Ubaydulloq Ahror. Fiqroti Ahrorijya. /Tabarruk risolalar /Nashrga tayyorlovchi.: Maqhud Xasaniy, Baqhriddin Umrzoq, Xamidulloq Amin. - Toshkent: Adolat, 2004. – B. 59.
6. Mirzo Kenjabek. Dunening murshidi. Xazrati Xoja Ubaydulloq Ahror: "Risolai Volidijya" nazmiy tarjimasi qisqa sharxi. -Toshkent: Fan, 2004. –B 35.
7. Raqmatova X.X. Xoja Ahror Valiy ma'naviy merosida murosamo falsafasiga doir g'oyalar tahlili. -Buxoro: Sadrid-din Salim Buxoriy. 2023. –230-B.

Xoja Ahror borliq masalasi bo'yicha gapirar ekanlar mavjud, bor narsalar haqida fikr yuritganda jonsiz, jonli mavjudotni tilga oladilar. Ularni borligini inkor etmaydilar, lekin ularning ilohiy mohiyatini anglash uchun ularga me'yoridan ortiq bog'lanmaslik kerak, deyдилar. U kishi aytadi: "Dunyoning hammasi ortiqchadir; magar besh narsasi (ortiqcha emas): jonni saqlab turadigan non; tashnalikni ketkazadigan suv; satri avrat bo'ladigan libos; amal qiladigan ilm; unda yashaydigan maskan"(5; 59).

MUHOKAMA

Xoja Ahrorni dunyodagi narsalardan besh narsa inson uchun zarur deganidan shunday fikrga kelish mumkinki, u kishi quyidagilarni inson uchun muhim degan:

1. Inson tanasi me'yorida ishlashi, ya'ni u banda sifatida o'zining haqqini ado etishi uchun zaruriy miqdordagi oziq-ovqatni me'yorida iste'mol etishi kerak, chunki u nurga aylanadi va quvvat bo'ladi;

2. Inson tanasi sog'lom bo'lishi uchun uni zaruriy miqdordagi suyuqlik bilan ta'minlash lozim;

3. Inson jamiyatda xizmatda bo'lishi, insonlar bilan munosabatda kirishi, issiq-sovuq havodan himoyalaniishi uchun zarur kiyim-kechak, ya'ni libos kerak;

4. Amal qiladigan ilm, ya'ni ilmeki, insonni holatini yaxshilash, jamiyatdagi o'z o'rnini topish va o'zgalarga ezgulik qilishga yordam beradi, keraklidir;

5. Inson yashash, ilm olishi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan maskan – uy-joy, maktab, o'quv va kasb-hunar o'rganadigan, mehnat qiladigan joylar zarur.

Mazkur fikrlardan kelib chiqib, mutasavvif borliqning ilohiy mohiyatidan kelib chiqib, borliqqa me'yor darajasida munosabatda bo'lish murosali hayot kechirishning asosiy shartlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Xoja Ahror takror-takror yozadi: "Maskani agar baland – yaxshi yoki boshqacha bo'lib, o'ziga kifoya qilsa juda ulug' ish bo'ladi, yeyish agar oyoqdan qolmaydigan miqdorda bo'lsa, qanoat bisyor yaxshidir. Kiyinish agar issiq-sovuqdan asraydigan miqdorda bo'lsa, yetarlidir"(5; 62). Ko'z ko'rish uchun, quloq eshitish uchun bo'lgani kabi, qalbning sifati Haqdan ogoh bo'lishdir va unda g'ayr – nafs istaklari bo'lmasligi lozim. Dilni ogohlik holatida asrashda nafas olishning ahamiyatini Xoja Ahror ta'kidlaydi. Darhaqiqat, nafas olish insonni butun olam quvvatlari bilan bog'laydi.

Dilni Haq muhabbati qamrab olsin, deydi Xoja Ahror. "Bu nosutiy mone'lardan uzilish muqaddimasiz muyassar bo'lmagay", (5; 69) bu esa qalbgga taalluqli ma'rifatsiz hosil bo'lmasligini Xoja Ahror ta'kidlab, "eng muhim ish shulki, dil nimaga payvasta ekanligini bilsinlar." Bahouddin Naqshband Naqshbandiya ta'limotiga kiritgan "Vuqufi qalbiy" – qalbdan ogoh bo'lish rashhasi Xoja Ahror Valiy tomonidan yanada mukammallashtirilganligi va qalb holati insonni murosali, rizo, musolaha, ixtilot holatiga kirishiga yordam beradi.

Insonlar orasidagi murosali munosabat qalb holatiga bog'liq. Qalbni poklashda zikr – Oллоh va uning ne'matlarini yodlash amaliyotining ahamiyati kattadir. Xoja Ahror "Zikri dil" haqida fikr yuritib, Oллоh zikri dilda bardavom, doimiy bo'lishi kerakligini uqtiradi. Mutasavvif risolada bu dunyoning o'tkinchi ekanligi, molu – dunyo, boylik, yil, kun hammasi bir kun ko'ngildan mahv bo'lishi, shuning uchun, ko'ngil va fikrni zikr ila munavvar etmoq kerakligini quyidagi misralarda ifodalaydi:

Har nafasni dami oxir bilibon,
Anda bu nav' taalluq qilibon,
Zikri mazkurga bo'lg'il mashg'ul,
Bu yo'sinliqki, degumdur sanga yo'l(6; 35).

Xoja Ahror Valiyning yuqorida qayd etilgan jamiyatda barqarorlikni ta'minlashda tasavvufiy murosaning o'rniga doir g'oyalari hozirgi davrda Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda dasturilamaldir.

XULOSA

Yurtimizda inson huquq va manfaatlari oliy qadriyat sifatida belgilanib, ijtimoiy murosani amalga oshirish uchun ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi", "Bola huquqlari to'g'risida"gi, "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini tugatish to'g'risida"gi, "Xalqlarning tinchlikka doir huquqlari to'g'risida"gi konvensiyalar, "Din va e'tiqod asosidagi murosasizlik va kamsitishlarning barcha shakllarini

da'vat etiladi. Insonni ma'naviy yuksalish va poklanishdan chalg'ituvchi bo'islar ko'p, - ular – nafsa, shuhrat, boylik, unvon, obro', takabburlik, ixtilof kabilardir.

Ye.Berezikovning yozishicha, Xoja Ahror tabiiy ruh bilan inson ruhi o'rtasidagi bog'liqlikni, aloqalarni izlagan. Uni sirli bir holat chulg'ab olib, yaqinlari, tengqurlari davrasidan yiroqlashtirgan, mistik xayolot beorom ruhiga taskin bergan(3; 125).

Xoja Ahror Valiy o'z-o'zidan yuksak axloqiy, ma'naviy, tasavvufiy jihatdan yuksak maqomga erishgan emas. Fikrimizcha, mutasavvifning falsafiy-axloqiy va antropologik qarashlarini shakllantirgan – Naqshband tariqatidir. Adabiyotshunos olim Izzat Sulton fikriga ko'ra, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshband va Xoja Ahror Valiy ta'limoti o'rtasida "uzilmas aloqa" mavjud(4; 10). Agar Yassaviy inson o'zining azaliy pokligini saqlashi uchun bu dunyodan yuz o'girish, o'zini qiynaydigan ko'pgina "bu dunyo ehtiroslari"ni yanchib, Oллоh bilan yakka qolishi, ya'ni umrini odamlardan uzoqda, uzlatda, yolg'izlikda, toat-ibodat bilan o'tkazishi lozim, deb hisoblasa, G'ijduvoni "Dast ba kuru, dil ba yor" da'vati orqali insonni xalqi manfaatlarini bilan yashashga, xalq ustiga tushgan yukni o'z ustiga olishga, halol mehnat qilib yashashga chaqirgan. Naqshband esa yuqoridagi da'vat oldiga ilohni qo'yadi: "Dil ba Yoru, dast ba kor" ("Dilingni Oллоhga, qo'lingni ishga bag'ishla").

Xoja Ahror Naqshbandiya tariqatini davom ettirgan va XV asr naqshbandiya tariqatining davomchisi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Faxruddin Ali Safiyning yozishicha, Xoja Ahror aytdilar: "Hazrati Abdulxoliq quddusi sirrahuning so'zlari tururkim: "Shayxlik eshigin bog'lagil, yorliq eshigin ochg'il, xilvatning eshigin bog'lagil, suhbatning eshigin ochgil", "Xalqdin og'irlik(ni) ko'tarmak kerak va bu muyassar bo'lmas, magar halol kasb bila "Dast ba kuru, dil ba yor" degan so'z xojagon tariqatlarida amri muqarrar turur"(2; 301).

Xoja Ahror Valiy aytadilarkim, "Jam'e bilan o'lturunlarkim, sizlarga g'olib bo'lmasunlar, to sizlarni yemasunlar va g'olib bo'lmasunlar, ya'ni nafsu havu yuzidin qaviy bo'lmasunlar va sizlarni yemasunlar, ya'ni sizlarni vaqtingizni zoyi' va nobud etmasunlar"(2; 388). Demak, yomon hamsuhbat, nafsga berilgan bo'lsa, u bilan o'tgan vaqt zoe' ketadi, nobud bo'ladi va u sizni yeydi, ya'ni sizdagi ijobiy quvvat, fazilatlarinigizni yo'qotadi.

Shuningdek, Xoja Ahror Valiy yaxshilar bilan suhbatni behisht, jannat bilan tenglashtirib, aziz-avliyolar suhbatini g'animat sanash lozim deganlar. Xoja Ahror Valiy aytgan edilarkim, "Sohibi "Bahr ul-haqoyiq" Shayx Najmuddin Doya alayhir rahma oytib tururlar, "Darig'okim, hech kishi avliyolarning suhbatlari qadrin bilmadi va bilmaslar"(2;375). Bu bilan bizlarga yaxshilarni qadrlash va ular suhbatini g'animat bilish lozimligini ta'kid etmoqdalar. Shu ma'noda yana bu baytni aytganlar:

Bo oshiqon nishinu, hama oshiqi guzin,
Bo har ki nest oshiqi bo o' mashav qarinq(2; 330).

Mazmuni:

Oshiqqlar bilan o'tirginu, hama oshiqlikni olgin,
Kimda-ki oshiqlik bo'lmas, u bilan yaqinlashma.

Bu misralarda oshiq-ilohiy ishqdan sarmast, faqat ilohiylik sifatlarni sevuvchi kishidir. Shunday hamsuhbat bilan o'tirgan insonda ham ishq o'ti alanganib, to'la oshiq bo'ladi. Ammo ishq yo'q, dardi yo'q, kesakka o'xshash kishilar bilan umuman yaqinlashma, deydi Xoja Ahror Valiy. Shu mazmundagi Jaloliddin Rumiyniq "Masnaviyi Ma'naviy" asaridan ham Xoja Ahror Valiy shunday misralarni keltirganlar:

Peshin ustode, ki o' naxvi buvad,
Joni shogirdash az o' naxvi shavad(2; 331).

Mazmuni:

Nahviy (tilshunos) bo'lgan ustoz oldida,
Shogirdning joni (tani, jismi va ruhi) ham tilshunos bo'ladi.

Xoja Ahror Valiyning murosa falsafasiga doir asosiy g'oyalaridan bo'lgan qalbni asrash, yomon hamsuhbatlardan uzoqlashish, yaxshi hamsuhbatning inson kamolotiga oid g'oyalari hozirgi kunda barkamol avlod tarbiyasi uchun ularning ongi va qalбини turli ma'naviy tahdidlar: diniy ekstremizm va fundamentalizm, ommaviy madaniyat, korrupsiya, odam savdosi, boqimandalik, giyohvandlik kabi illatlardan asrashda yordam beradi.

tinchlik, jamiyatda barqarorlikni ta'minlashdagi xizmatlari to'g'risidagi fikr-mulohazalar o'z aksini topgan. Naqshbandiylik ta'limotining jamiyat barqarorligini, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashdagi o'rnini xususida H.Aliqulov, V.Alimasov, S.Karimov, G.Navro'zova, A.Huseynova, N.Safarova, O.Sharipova, M.Mamatov tadqiqotlarida ma'lumotlar berganlar.

O'zbekistonda tinchlik, xavfsizlik va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash uchun ham, albatta, ma'naviy tahdidlarga qarshi keskin va muttasil kurash olib borish bilan bir qatorda xalqimizda murosa qila olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Yangi taraqqiyot bosqichida ma'rifatli jamiyat qurish zarurati vujudga keldi. Bu esa yangicha falsafiy dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. Yangicha dunyoqarashning asosi murosa tamoyilini yuksaltirish muammosini yangicha paradigmalarda asosida hal etishdir. Shuning uchun asrlar davomida jahon falsafasi, xususan milliy falsafiy qadriyatlar asosida yoshlarda falsafiy mushohada, tafakkur etish ko'nikmalarini shakllantirishni uzluksiz ta'lim tizimiga kiritish, milliy mentalitetimizning murosa g'oyasi asosida yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda falsafiy ta'limni rivojlantirishda Sharq allomalarining jumladan, Xoja Ahror Valiy fundamental asarlarini ilmiy o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Maqolada Naqshbandiya ta'limotidagi murosaga xos bo'lgan o'z-o'zini anglash, suhbat, nafsi tarbiyalash, kibri yo'qotish, shukronalik, sabr, zikr, fikr va faqr kabi g'oyalari Yangi O'zbekiston sharoitida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning barqaror bo'lishidagi xizmati, bularning ma'rifatli jamiyatni barpo etishda barkamol avlod mafkuraviy immunitetini tarbiyalashdagi ahamiyati ochib berilgan.

NATIJALAR

Inson o'zi bilan o'zi va atrofdagilar bilan murosali yashashi uchun asosiy mezonlaridan biri uning o'zligini anglashidir. Xoja Ahror o'zlikni anglagan odamda mehr, muhabbat, muruvvat, murosa kuchli bo'lishi, butun borliqqa mehr va muhabbat nazari bilan qarab, murosa holatida bo'lishini quyidagi misralarda keltirgan:

Odami diyd astu boqiy po'st ast,
Diyd on boshad, ki diydi do'st ast.(2; 390)

Mazmuni:

Odamiy, ya'ni haqiqiy inson ko'zdir, boshqasi hammasi po'stdir,
Ko'z agar do'st ko'zi bo'lsa, shundagina ko'z bo'ladi.

Xoja Ahror bu bilan inson qalbi oynasi bo'lgan ko'zdan faqat butun borliqqa do'stona nazar, mehr-muhabbat porlab tursagina, haqiqiy inson nomiga uyg'un bo'ladi, deydi.

Demak, barkamol avlod – o'zini anglagan, o'z qadr-qimmatini, hayot mazmunini, jamiyatdagi o'rnini bilgan va shunga munosib amal qiladigan murosali hayot tarzini kechiradigan shaxsdir. U biror nafasini ham behudaga sarflamaydi, chunki u umrini shu nafaslardan iboratligini biladi. Uning hamsuhbati yaxshi odamlar bo'ladi, chunki yomon hamsuhbat umrini, vaqtni nobud etishi, behuda sarflash ekanligini anglaydi. O'zini anglagan inson barcha borliq, mavjudlik, xususan boshqa insonlarni ham qadru-qiyamatini biladi, chunki ularning har biri uning baxtiyor yashashi murosayu madora, o'zaro tushunish, kelishuv, shukronalik lozimligini tushunadi. O'zini anglagan inson haqiqiy baxtiyordir. Chunki u xirsu havas, nafsu havo, zulmu sitamdan pok. O'zini anglagan inson sevimlidir. Chunki u barchani sevadi, mehr-muhabbat bilan nazar qiladi, insonlar, jamiyat bilan murosada yashaydi, bu esa unga nisbatan boshqalarda ham shunday pok, go'zal tuyg'uni uyg'otadi.

Demak, inson o'zi va atrofdagilari bilan murosayu madorada bo'lishi uchun o'zini anglashi kerak. Xoja Ahrorning fikricha, "odami nusxai jomi'a turur, ondog'kim, malakiy sifatleri bor turur va sab'iy va bahimiy sifatlardan ham xoliy ermastur"(2; 344). Xoja Ahror Valiy bu iboralari bilan insonda ilohiy sifatlar bilan birga hayvoniy salbiy illatlar borligini ham ta'kidlab, insonni "nusxai jami'", ya'ni borliqdagi bor narsalarni o'zida jam' etgan nusxa, deganlar. Ayniqsa, inson jamiyatda yashar ekan, u doimo xalq dardi bilan yashashi va uning dardiga darmon bo'lmog'i kerakligi naqshbandiylik g'oyasi ikkinchi Renessans davri mutafakkirlarining qarashlarida asosiy g'oya hisoblangan. Tasavvufiy ta'limotlarda asosiy e'tibor insonga, uning botiniy va zohiriy sifatlarini yuksaltirishga, iloh jamoliga yetish orqali mukammallik, yetuklik sirlaridan, zavqidan voqif bo'lishga

**MA'RIFATLI JAMIYAT QURISHDA XOJA AHROR VALIY MUROSAGA OID
QARASHLARINING AHAMIYATI**

**ВАЖНОСТЬ ВЗГЛЯДОВ ХОДЖА АХРОР ВАЛИЙ О ПРИМИРЕНИИ В ПОСТРОЕНИИ
ПРОСВЕЩЕННОГО ОБЩЕСТВА**

**KHOJA AHROR VALIU IS ABOUT RECONCILIATION IN BUILDING AN ENLIGHTENED
SOCIETY THE IMPORTANCE OF THEIR VIEWS**

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna¹

¹Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya

Maqolada insonning o'zini anglashi barkamollik asosi ekanligi, inson o'zi va atrofdagilari bilan murosayu madorada bo'lishi uchun o'zini anglashi, Xoja Ahror Valiyning murosa falsafasiga doir asosiy g'oyalardan bo'lgan qalbni asrash, yomon hamsuhbatlardan uzoqlashish, yaxshi hamsuhbatning inson kamolotiga oid g'oyalari hozirgi kunda barkamol avlod tarbiyasi uchun muhimligi o'z aksini topgan. Ma'rifatli jamiyat qurishda Xoja Ahror Valiyning murosaga oid g'oyalarining ahamiyati batafsil yoritilgan.

Аннотация

В статье утверждается, что самосознание человека является основой совершенства, что человек должен познать себя, чтобы быть в гармонии с собой и другими, основная идея философии компромисса Ходжи Ахрора Вали заключается в защите души от плохих желаний, беседа должна быть с хорошими собеседниками, важны для человеческого совершенствования. Отражена важность этих идей для воспитания зрелого поколения. Подробно объясняется значение идей Ходжи Ахрора Вали о компромиссе в построении просвещенного общества.

Abstract

The article states that self-awareness of a person is the basis of perfection, that a person should understand himself in order to be in harmony with himself and others, Khoja Ahror Vali's basic philosophy of compromise is to protect the soul from the desires, to stay away from bad interlocutors, and good interlocutors are important for human perfection. The importance of these ideas for the education of a mature generation has been reflected. The importance of Khoja Ahror Vali's ideas on reconciliation in building an enlightened society is explained in detail.

Kalit so'zlar: Xoja Ahror Valiy, ma'rifatli jamiyat, murosa, barkamollik, o'z-o'zini anglash, hamsuhbat, nafs, nusxai noma.

Ключевые слова: Ходжа Ахрор Вали, просвещенное общество, компромисс, совершенство, самопознание, собеседник, платное, желание, образец письма.

Key words: Khwadja Ahror Vali, Enlightened community, compromise, perfection, self-awareness, conversation, nafs, nusxai noma.

KIRISH

O'zbekistonda taraqqiyotning yangi bosqichida ma'rifatli jamiyat qurish zarurati yuzaga chiqdi. Bu esa yangicha falsafiy dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. Yangicha dunyoqarashning asosi ijtimoiy falsafaning murosa tushunchasi yangicha paradigmalar asosida hal etish zarurati yuzaga keladi. Shu bois, asrlar davomida jahon falsafasi, xususan milliy qadriyatlar asosida yoshlarda falsafiy mushohada, tafakkur etish ko'nikmalarini shakllantirishni uzluksiz ta'lim tizimiga kiritish, nazarimizda, milliy mentalitetimizning murosa g'oyasi asosida yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda falsafiy ta'limni rivojlantirishda Sharq allomalarning fundamental asarlarini ilmiy o'rganish muhim ahamiyatga ega. Xoja Ahror ma'naviy merosida jamiyatdagi insonlar bir-biri bilan murosayu madorada yashashining nazariy va amaliy tomonlarini o'rganib, asosiy e'tiborni insonning o'zini - o'zi anglashi, o'z qadrini bilishi masalasiga qaratadi. Buning uchun inson o'z tana istaklarining me'yorini bilishi va shunga munosib, nafsini jilovlab amal qilishi kerakligini ta'kidlaydi(1; 326).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mustaqillik yillarida Xoja Ahror Valiyning hayoti, faoliyati va ma'naviy merosini o'rganishga katta e'tibor qaratildi. N.Komilov, A.Juzjoniy, E.Karimov, K.Kattayev, M.Kenjabek, Z.Qutiboyev tadqiqotlarida Xoja Ahror Valiy hayoti va ma'naviy merosi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. A.O'rinboyev, M.Hasaniy tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida Xoja Ahror Valiyning

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlariga shunday savol berilgan ekan: “Murosa ilmi” to‘g‘risida eshitganmiz, shu ilm haqida gapirib bersangiz va haddi chegarasi haqida? Hozirda bu ilm faqat musulmonlarga xususan imom-domlalarga kerak, deb o‘ylayman!” Shayx hazratlari: “Murosa ilmining chegarasi yo‘q. Vaziyatga qarab murosa qilinadi, ziddiyatlar murosa yo‘li bilan hal qilinadi”, - deb javob berganlar. Demak, murosa falsafasining sulh, murosa, rizo, shukr kabi tushunchalarga doir g‘oyalari barcha davrlar uchun muhimdir.

Murosa falsafasining muammolari xususida tasavvufshunos olim N.Komilov: “Inson tarbiyasi, insonni nuqsonlar, gunohlardan qutqarish ulug‘ ajdodlarimizning qayg‘usi bo‘lib kelgan. Ular savob va gunoh, soya va nur, rahmon va shayton, xayr chegarasida yaratilgan inson degan mubham xilqatni anglash, unga rahmoniy va shaytoniy quvvatlarni qachon, qayerda kuchga kirishi, bu kuchlarning sababi nima ekanligini tushunishga jiddiy ahd qilganlar”, - deydi. (10;150)

N.Komilovning mazkur nuqtai nazardan naqshbandiya ta‘limotida insonning ilohiy va hayvoniy sifatlarga ega bo‘lishi mumkinligini aytib, uning yon bosish, murosa, sulh, rizo, shukronalik, insonlar manfaati uchun yashash tarzi ilohiylik tomoni, nafsga berilishi, xudbinlik va nizolarni keltirib chiqarishi hayvoniy sifat ekanligini anglash mumkin. Tasavvuf Allohni esdan chiqarmaslikka undaydi, badnafslilik, odobsizlik, adolatsizlik, o‘zlikni anglamaslik kabi qator salbiy illatlarga qarshi kurashadi, qachonki, mazkur holatni inson o‘zida boshqarar ekan holat barqaror bo‘ladi, ya‘ni, tartibsiz holatdan muayyan tartibli holatga o‘tish sodir bo‘ladi. Mutasavviflar mazkur barqarorlikning asosini murosayu madora, shukr, sulh va rizo deb bilganlar.

XULOSA

O‘tmish mutafakkirlarining murosayu madora, sabr, shukronalik haqidagi fikrlari, insonrarvarlik, bunyodkorlik g‘oyalari bugun ham g‘oyaviy-siyosiy madaniyatimizni shakllantirishda qimmatli noyob xazinadir. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib murosa jamiyat barqarorligi, mamlakat tinchligi, xalq osoyishtaligini ta‘minlashning asosi, ziddiyatlar oldini olishning maqbul yo‘li sifatidagi insoniy fazilat bo‘lib, o‘zbek xalqining mentalitetiga xos, milliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan falsafiy tushuncha deb aytish mumkin. Islom so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “ixlos”, “ofatlardan salomat bo‘lish”, “sulh va omonlik”, “itoot va bo‘ysunish” kabi ma‘nolarni anglatadi. Insonlarning qalbida tinchlik haqiqatini qaror toptirishda, tinchlik tamoyili butun jamiyat uchun haqiqatga aylanishida murosa, sulh tushunchalarining mohiyatini anglash katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хаджиева М. Ўзбекистонда толерантлик жараёни. Т – 2008. 25-26 б.
2. Черепанова, Е. С. Философия конфликта: [учеб. пособие]. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 196 с.;
3. Негматова Ш.Ш. Ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиёти шароитида соғлом рақобатни ривожлантиришнинг маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий жиҳатлари. / Фалс. Фан.докт. дисс. – Самарқанд, 2018.
4. Ижтимоий сиёсий терминларнинг қисқача изоҳли луғати. Н.Маҳмудов таҳрири остида. – Тошкент: “Sahhof”, 2021. - 304 б.
5. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. –Т.: “Маънавият”, 2008. – Б. 345.
6. Имамалиева Р.М. Синергетика – дунёга янги қараш усули сифатида. //Синергетиканинг табиий-илмий ва фалсафий муаммолари: илмий-назарий семинар: (илмий мақолалар тўплами) / М.Н.Абдуллаева таҳрири остида. –Наманган: 2009. – Б. 40.
7. Хаитов Ш. Муроsa ва Ўзбекистон фалсафа тарихига кириш. - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти. 2010. –Б.28
8. Raxmatova X.X. Hoja Ahror Valiy ma'naviy merosida murosa falsafasiga doir g'oyalar tahlili. -Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy. 2023. –Б 12.
9. Давлетчина С.Б. Словарь по конфликтологии. Издательство ВСГТУ, Улан-Удэ, 2005. - С 100.
10. Комилов Н.Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавҳид асрори. - Тошкент: Адабиёт ва санъат нашр., 1999. – Б.150

odatlarimiz, dinimiz bevosita xotirjamlik silsilasiga uzviy bog'liqdir. Insoniyat, dov-daraxt, chorva-mol, qurt-qumursqaga havodek zarur bo'layotgan tinchlik, xotirjamlik, osoyishtalikdan ham ziyoda, mo'tabar ne'mat yo'q. Tinchlikka qarama-qarshi tushuncha urushdir. Bu borada O'tkir Hoshimovning quyidagi fikri e'tiborga molikdir: "Urushning yaxshisi bo'lmaydi. Ammo eng dahshatli urush-fuqarolar urushi. Negaki, u avloddan avlodga meros bo'lib, abadiy davom etadi. Urush bilan besh kunda bitadigan muammo tinchlik bilan besh yilda bitsa, shunda hamki, ikkinchi yo'lni tanlash kerak!".(8;12) Bu fikrdan xulosa chiqadiki, fuqarolar o'rtasida tinchlik va ahillikni ta'minlash eng muhim masaladir. Murosa xalqimizning ulug' qadriyatlaridan biridir. Murosa iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy, ma'rifiy munosabatlarning asosini tashkil etadigan adolat, imkoniyat tengligi kabi qadriyatlar tizimidir.

MUHOKAMA

Zamonaviy istilohlarda murosa so'zining sinonimi sifatida kompromiss so'zi qo'llaniladi. Kompromiss deganda ikki yoki uch tomonning vaqtincha murosa holati tushuniladi. Kompromiss holatida tomonlar bir-birlarini toqat qiladilar, raqiblar bilan keskin ixtiloflardan ongli ravishda tiuilib turadilar. Ruhiiy holatlarning o'zgarishi nuqtai nazaridan qaraganda kompromiss holatida ziddiyatlar tashqari shakldan ichkari shaklga o'tadi. Ichki zo'riqish vaziyati muayyan muddatgacha o'zini oshkor etmay turadi. Ammo biror-bir tomon uchun qulayroq ijtimoiy-siyosiy muhit yuzaga kelishi bilanoq, kompromiss holati oshkora ziddiyatga aylanib ketishi mumkin.

Demokratik rivojlanish jarayoni bizdan hatto raqiblar bilan ham kompromissga erishishimizni taqozo etadi. Chunki:

1) Kompromiss yoki murosaga kelish – o'zaro yon berishni ta'minlaydigan hatti-harakatlar strategiyasi;

2) Urushayotgan tomonlarning o'zaro kelishuvlar asosidagi yon berishidir. (9.100)

Hozirgi davrda murosa nizolarni hal qilishning yagona shakli yemas. Agar tomonlardan biri dushmanni yo'q qilishni maqsad qilgan bo'lsa, murosa qo'llanilmaydi. Murosaga kelish tomonlardan o'z manfaatlarini bilishi va ularni ochiqdan-ochiq amalga oshirishini talab qiladi.

Kompromiss holatini milliy mentalitet, axloq-odob, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'ziga xoslik ma'lum darajada jilovlab turadi. Shu narsa ye'tiborga molikki, kompromiss holati muayyan ijtimoiy-siyosiy muhit, davr, ma'naviy-madaniy yondashuvlar o'zgarishi bilan insoniy munosabatlardan chekinish holatlariga ham o'tishi mumkin. Fikrimizcha, Naqshbandiya ta'limotidagi murosa tushunchasi kompromiss tushunchasiga nisbatan kengroq ma'noga ega. Chunki kompromissda tashqi ziddiyat ichki ziddiyatga aylansa, murosada tashqi va ichki ziddiyatlar uyg'un holatda o'z yechimini topadi. Kompromissda tinchlik va osoyishtalik vaqtinchalik bo'lsa, murosada ahillik va xotirjamlik barqaror va bardavomdir.

Sahl as-So'idiy roziyallohu anhudan rivoyat qilingan: **«Bani Amrning orasida urush bo'lgan edi. Bu Payg'ambar sallolohu alayhi vasallamga yetib bordi. Shunda U zot peshinni o'qib bo'lib, ularning orasini isloh qilish uchun keldilar.** Demakki, o'zaro urishib qolgan qavmning yarashtirish uchun Payg'ambarimizning shaxsan o'zlari borishlari, sulh ishi o'ta ahamiyatli ish ekaniga dalolatdir. Payg'ambarimizning mazkur ishlari barcha insonlar, xususan, rahbar shaxslar uchun o'rnak desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Naqshbandiya ta'limotidagi murosa falsafasiga doir tasavvufiy tushunchalarga xos bo'lgan murosayu madora, o'z-o'zini anglash, nafsni tarbiyalash, kibrni yo'qotish, shukronalik, sabr kabi tamoyillar Yangi O'zbekistonda har bir insonga ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash hamda mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish, ma'naviy tarbiyaning uzviyiligini ta'minlash, milliy qadriyatlar va ma'naviy merosni asrab-avaylashdagi ahamiyati kattadir. Mutasavviflarning murosa to'g'risidagi qarashlari sabr, shukr, rizo kabi tushunchalarga tayanadi. Xoja Ahror musulmonlar boshidan jabr-zulmni daf etmoq uchun din va shariatni dastur qilgan holda sultonlarga murojaat qilmoq lozimligini Naqshbandiya tariqatining vazifalaridan deb uqtiradi. Xoja Ahror saroy xizmatidan voz kechmoqchi bo'lgan Alisher Navoiyga xat yozib, aytadi: "...Eshitishimcha, onhazrat, ya'ni sultonga mulozamat qilishdan goho malolat chekar ekansiz. Iltimos shuki, musulmonlarga madad yetkazmoq va biror faqirning dili mushkullikdan xalos topib, shod bo'lmog'i uchun xotiri sharifingizni saroy xizmatidan uzming... Biror kishi ham musulmonlar g'amini yeyishni o'ylamay qo'ygan bu vaqtda ularga g'amxo'rlik qilish — eng xayrli ishdirl.."

adovat, kelishmaslik, konflikt, millatchilik, guruhbozlik, diniy va nosog'lom raqobat kiradi. Bu tushunchalarning tahlili ko'rsatadiki, murosali hayot tarzi jamiyatning rivoji va taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qiladi. Murosasizlik jamiyat ahli o'rtasida norozilik va kelishmovchiliklarni chiqarib, jamiyat ravnaqiga g'ov bo'ladi.

Murosa shaxsning o'zida, shaxslararo, oilada, mahallada, qo'shnilararo, mehnat jamoalari, ijtimoiy hamkorlik jarayonida, millat, din, irq, jinslararo, davlat va shaxs, davlatlararo munosabatlarda namoyon bo'ladi. Murosa ziddiyatlarning eng maqbul yechimidir. Murosa holiga kelish uchun avvalo, inson o'zi-o'zi bilan murosaga kelishi kerak. Murosa – insoniy fazilat, chunki u faqat o'zini anglagan insonda bo'ladi. Insonda o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini nazorat etish, o'z-o'zidan hisob olish muntazam davom etadigan jarayon bo'lsa, inson me'yorda va murosada yashaydi.

Murosa jamiyatda barqarorlikni ta'minlaydigan qonunlardan biridir. Agar qaysi jamiyat a'zolari o'zaro inoqliq, hamfikirlik, uyushqoqlik barqaror hayot omili degan mulohazaga kelsa, bu jamiyatga nisbatan boshqalarda beixtiyor hurmat-ehtiromlar tuyg'usi yuzaga keladi. Mabodo, jamiyatda o'zaro kelishmaydigan, fikri va amali ayri-ayri bo'lgan – millati, dini, irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi boshqa bo'lgan odamlarga nisbatan murosasiz munosabat bildirilsa, buning oqibatida insonlarda ishonchsizlik, begonalashuv holatlari vujudga keladi. Bu jamiyatning xalqaro nufuziga ham ta'sir etadi. Shu boisdan ham jamiyatdagi o'zaro ahillik, inoqlik, ijtimoiy birdamlik hamisha dolzarb ijtimoiy-ma'naviy muammo bo'lib kelgan. Murosa tushunchasi falsafiy dunyoqarash sifatida manfaatlarini, barqaror taraqqiyotni ta'minlashda ijtimoiy hamjihatlikning namunasi hisoblanadi.

Demak, murosa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning omilidir. Barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektik falsafaga xos tushunchalardir. Barqarorlik narsa va hodisalarga xos muayyanlikni ifodalasa, o'zgaruvchanlik ularning ma'lum bir holatdan boshqa bir holatga o'tish jarayonini bildiradi. Mazkur jarayon mutlaq xarakterga ega. Tayin narsalarga oid xossa sifatida esa u nisbiydir, chunki narsalarning o'zgarishi biron-bir muayyanlikka nisbatangina sodir bo'ladi. Dialektika barqarorlik va o'zgarishni o'zaro uzviy birlikda, mavjud dialektik qarama-qarshiliklar tarzida olib qaraydi.(6;40) Barqarorlikning muhim shartlaridan biri murosadir. Chunki, murosa – qarama-qarshi tomonlar ziddiyatlarining bartaraf etishidir.

Fikrimizcha, murosa falsafasi ijtimoiy hamkorlikdan ko'ra kengroq mazmunga ega. Bu falsafa millat, din, irq, jinslararo, davlat va shaxs, davlatlararo munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham murosa eng oliy ne'mat bo'lgan mamlakat tinchligining asosidir. Insoniyat hayoti davomida ezgu maqsadlarga yetish uchun doimo izlanadi va harakatda bo'ladi. Ezgu maqsadli inson orzu-umidini amalga oshirishi uchun eng katta tayanch – tinchlik va osoyishtalikdir. Odatda, tinchlik so'zi insonlar bilan murosa qilishni, ularni bezovta qilmaslikni, holatlarning tinch va osoyishta, urush-janjalsizligini, hayot va turmush tizimini bir me'yorda bo'lishligini ifoda etadi.(7; 28)

Sulh arabcha so'z bo'lib, "kelishuv", "ittifoqlashuv", "janjallashmaslik" ma'nolarini anglatadi. Bu so'zning ziddi: "arazlashmoq", "urishmoq", "kelishuvni buzmoq", "ajrashib ketmoq". Sulh borasida ilohiy qonun bitta: «الصُّلْحُ خَيْرٌ» Sulh – kelishuv, yarashuv, urushmaslik eng yaxshi, eng afzal». Arab tilida خَيْرٌ so'zi odatda اَخِيْرٌ ma'nosi iroda qilinadi. اَخِيْرٌ degani eng yaxshi degan ma'noni anglatadi. Insoniyat tarixi-urushlar tarixidan iborat. Ertaklarda-urush. Dostonlarda-urush. Kitoblarda-urush. Kinolarda – urush... Tabaqalar urushi. Fuqarolar urushi. Mamlakatlar urushi. Jahon urushi. Olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda, so'nggi olti ming yil ichida Yer kurrasida 5700 marta urush bo'lgan ekan. (Mayda-chuyda qabilalar janjali bu hisobga kirmaydi). Yana o'sha olimlarning aytishicha, odamzot o'rtacha oltmish yil umr ko'rarkan. Bundan chiqdi, inson bolasi hayoti davomida 57 yil urush qilib, uch yil "dam olar" ekan. Agar insoniyat o'zaro sulh va murosa munosabatlarida yashaganida shunchalik talafotning oldi olingan bo'lardi.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam biror qabilada urush chiqib qolganini eshitsalar o'sha zahoti borib, ularning orasini isloh qilar edilar. Er-xotin o'rtasida janjal chiqib, bir-biri bilan arazlashib qolganda yaqinlari qarab turmasin, oilani saqlab qolishga harakat qilib, yarashtirishsin. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: «Ro'za, namoz va sadaqa darajasidan ham afzalroq amalni xabarini beray-mi?», dedilar. Sahobalar roziyallohu anhum: "Ha", deyishdi. U zot: "Arazlashib qolganlarning orasini isloh qilishdir. Chunki oralarning buzilishi qiruvchidir",- dedilar.

El-yurtda tinchlik va osoyishtalik davom yetsa, mamlakat taraqqiyoti, farovonligi, yurt ahlining turmushi obod bo'ladi. Bularni aks ettiruvchi muqaddas qadriyatlarimiz, milliy urf-

buyuk mutafakkir murosa tuyg'usining negizini talqin qiladi. Muxtasar qilib aytganda, murosa kishilarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, uning shaxs sifatidagi erkinliklarini ta'minlash kabi g'oyalar bilan sug'orilgan ijtimoiy, diniy, falsafiy, huquqiy, ahloqiy va shular singari barcha insoniy qarashlardan iborat dunyoqarashning asosi bo'lib xizmat qiladi. Abu Iso Termiziyning shoh asari bo'lmish «Al jomi' as-sahih»da ezgulik va murosa inson ma'naviy yetukligining muhim belgilaridan biri ekanligi alohida ta'kidlanib: «Bir-biringizning orangizni buzmag, bir-biringizni yomon ko'rmang, bir-biringizga hasad qilmang», deb uqtirilgan.

Uzoq vaqtlar mobaynida murosayu madora bilan yashash o'zbek xalqining tabiatiga xos xususiyat bo'lib kelgan. Shunday ekan, hozirgi kunda yoshlarning barkamol, yetuk qilib voyaga yetkazishda murosa falsafasiga doir tushunchalarning falsafiy, tasavvufiy mohiyatini to'g'ri anglash o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot ishining bosh g'oyasini tashkil etgan murosa falsafasiga doir kategoriyalarning tahlili psixologik jihatdan A.V.Filippov, konfliktologiya nuqtai nazaridan E.S.Cherepanova, falsafiy jihatdan Sh.Xayitov, Sh.Negmatova(3;122) tomonidan amalga oshirilgan.(2;196) Mutasavviflarning tinchliksevarlik, sulhparvarlik faoliyati G.N.Navro'zova, M.T.Voxidova, O.T.Sharipova, N.O.Safarova, G.S.Yunusovalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurish uchun xalqimiz murosayu madorada yashashi muhim ahamiyat kasb etadi. Murosa falsafasining asosiy kategoriyalari – tushunchalariga tayanib murosa falsafasining mohiyatini ochishga harakat qilamiz. Bunda dialektik, sinergetik, germenevtik va metafizik yondashuvlar asosida murosa tushunchasini metodologik tahlil etish lozim. Ilmiy nuqtai nazardan, har qanday atama yoki tushunchaning ta'rifi va tavsifida u ifodalaydigan mazmun-mohiyat va o'ziga xos jihatlar aks etishi ma'lum. "Murosa" atamasi ham bundan mustasno emas.

Murosa tushunchasi ijtimoiy falsafaning asosiy kategoriyasi bo'lib, ijtimoiy munosabatlarga xos xususiyatdir. Murosa atamasining qaysi tildan olinganligi munozarali masala bo'lmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki turli lug'atlarda bu so'zning qaysi tildan olinganligi turlicha yozilgan.

Murosa ((مُسَالَمَةٌ) arabchadan) bir-biridan rozilik, o'zaro kelishish, o'zaro kelishuvli munosabat, kelishuv degan ma'noni anglatadi,- degan fikrlar keltirilgan.(4; 304)

"Madora" (مَادُورَا) degan arab tilidagi so'z esa, boshqalarga nisbatan lutf bilan munosabatda bo'lish, o'zaro kelishib yashash ma'nosida qo'llaniladi. Shu ma'noda murosayu madora deb birgalikda qo'llanilishi va mazkur birikma kelishish degan ma'noni anglatishidan dalolat beradi. Fikrimizcha, O'rta Osiyoda o'tmishda ko'proq arab yozuvida, forsiy tillarda asarlar yozilganligi sababli forsiy va arab lug'atlariga munosib ravishda murosayu madora shaklini olganligi ehtimoldan xoli emas.

NATIJALAR

O'tish davrida ko'p millatli mamlakatda millatlararo murosa muhitini yaratish katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega. Mazkur muammo mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq hal etilishi dolzarb masala sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatda yurt tinchligini ta'minlash va barqaror muhitni yaratish, millatlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib uning nazariy asoslari ishlab chiqildi va amaliyotga faollik bilan joriy eta boshlandi.(5; 345) Natijada mamlakatda ijtimoiy murosa muvozanat konsepsiyasi dunyoga keldi.

Murosa atamasi o'z mazmun-mohiyati, shakli jihatidan kompromiss, konsensus, ijtimoiy hamkorlik, yakdillik, kelishish, shartnoma kabi so'zlarga qaraganda sermazmun, murakkab, keng qamrovli va ayni paytda mantiqiylik doirasida ularni o'z ichiga sig'diradi. Shularga asoslanib borliq, tabiat, jamiyat, inson faoliyatining turli jihatlarini, sohalarini, yo'nalishlarini u yoki bu ko'rinishda ifodalaydigan har qanday ijtimoiy hodisaga nisbatan murosa umumiylikni hamda genezisi nuqtai nazaridan oldin paydo bo'lganligini bildiradi.

Murosa falsafasining asosiy tushunchalariga *rizo, o'zaro kelishish, o'zaro kelishuvli munosabat, kelishuv, kelishuvchilik, ijtimoiy hamkorlik, kompromiss, konsensus, ahillik, birdamlik, sog'lom raqobat, tinchlik, osoyishtalik, diniy bag'rikenglik, milliy va millatlararo munosabatlarda totuvlik* kiradi. Murosaga qarama-qarshi bo'lgan tushunchalarga *ziddiyat, nizo, urush, janjal,*

MUROSA FALSAFASIGA DOIR TUSHUNCHALARNING TASAVVUFİY MOHIYATI

МИСТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ КОНЦЕПЦИЙ ФИЛОСОФИИ ПРИМИРЕНИЯ

THE MYSTICAL ESSENCE OF THE CONCEPTS OF THE PHILOSOPHY OF RECONCILIATION

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna¹¹Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti**Annotatsiya**

Maqolada murosa falsafasiga doir murosayu madora, sulh, shukronalik, rizo, ixtilof va ixtilot, murosalo tushunchalarining tasavvufiy mohiyati falsafiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Mazkur tushunchalarning Naqshbandiylik namoyandalari qarashlarida insonning barkamolligidagi o'zni asoslab berilgan.

Аннотация

В статье с философской точки зрения анализируется мистическая сущность понятий примирения, мира, благодарности, согласия и раздора. Роль этих понятий в совершенствовании человека обоснована во взглядах представителей Накшбанди.

Abstract

The article analyzes the mystical essence of the concepts of reconciliation, peace, gratitude, harmony and discord, and reconciliation from a philosophical point of view. The role of these concepts in human improvement is justified in the views of Naqshbandi representatives.

Kalit so'zlar: murosa, barkamollik, o'z-o'zini anglash, rizo, shukur, sulh, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Vali, Faxruddin Ali Safiy.

Ключевые слова: компромисс, совершенство, самосознание, шукр, благодарность, мир, Бахауддин Накшбанд, Ходжа Ахрар Вали, Фахруддин Али Сафи.

Key words: compromise, perfection, self-awareness, shukr, gratitude, peace, Bahauddin Naqshband, Khoja Ahrar Vali, Fakhruddin Ali Safi

KIRISH

Hozirgi davrda insoniyat jamiyati taraqqiyotining barqarorligini, dunyoning yaxlitligini, insoniyatning bir butunligini ta'minlash, ijtimoiy hayotning xilma – xil sohalarida erishayotgan yutuqlaridan turli mintaq va davlatlarning faol foydalanishini keltirib chiqarishda aksariyat hollarda toqatsizlik va murosasizlikning turli ko'rinishlarini asoslash, targ'ib qilishga tayanadigan mafkuralar dunyo sahnida ustuvor bo'lishga harakat qilib kelmoqdalar.

“Yoshlarning ongida qanday kayfiyat ustunligini aytsang, men senga keyingi avlodning tabiati qanday bo'lishini aytib beraman”, - deb yozgan edi ingliz siyosiy arbobi Edmund Berk. Shu nuqtai nazardan qaraganda, murosasizlik mafkurasi ijodkorlari jamiyatning ertangi kunini belgilab beradigan avlod ongini egallash, nazorat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligi murosa falsafasini o'rganishni muhim vazifalardan biri deyishimizga asos bo'la oladi.

Insonlarning murosayu madorada yashashi, sulh munosabatlarida bo'lishi kerakligi g'oyasi azaldan faylasuflar, olimu fozillarning diqqat markazida bo'lgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy ta'limotining zamirida xalqlarni bir-biriga qarshi va bir-biridan ustun qo'ymaslik, balki, ularni butun insoniyatning ajralmas qismi sifatida talqin qilish tamoyili yotadi. Abu Rayhon Beruniyning esa o'zga xalq va millatlar qadrini bilmagan kishi o'z xalqi va millatining qadriga yetmasligi haqidagi qarashlari oqilona va umumbashariy ahamiyatga molik bo'lib, faylasufning ushbu fikri bugungi o'zbek xalqiga xos bo'lgan bag'rikenglikning ildizlari ming yillarga borib taqalishining yaqqol isbotidir. Beruniyning nuqtai nazaricha, boshqa xalq va millatlar ongidagi ba'zi bir noo'rin fikr-mulohazalarga xos bo'lgan shak-shubhalardan xalos qiluvchi manba – bu milliy ongdagi murosadir. Alisher Navoiy ham o'zbekona murosa negizida el-yurtga, xalqqa va muhtojlarga beminnat yordam berishni eng yuqori karam, deb hisoblagan. “Karam – bir jabrlanganning qattiqchilik yukini ko'tarmoq va uni o'sha qiyinchilikdan qutqarmoq demakdir. Karam – biron mashaqqat tikani og'irligini ko'tarmoq va u tikan uchidan guldek ochilmoq va o'sha qilingan ishni qaytib tilga keltirmaslik, og'izga olmaslik, ishiga minnat qilmaslik va uning yuziga solmaslik”,(1;25-26) deb

ilmning chegarasi yo'qligi, Muso payg'ambarimiz Alloh bilan gaplashish maqomida bo'lsalarda, barcha ilmga ega bo'la olmaganlari, ilm yo'lida u kishidanda bilimli banda borligi uqtiriladi. "Eng bilimdon inson men bo'lsam kerak" deb o'ylagan Muso payg'ambarimiz, o'zlaridanda bilimdon Xizr alayhissalom bilan uchrashganlari, Xizr alayhissalom yo'l boshchi-ustoz va Muso payg'ambarimiz yo'lovchi-shogird misolida bir qancha manzillarni bosib o'tadilar. Lekin bu yo'ldagi ustozning qilgan ishlariga shogirdning sabr-toqatlari yetmaydi. Ya'ni inson qachonki, barcha ilmlarni egalladim desa, albatta adashadi, chunki bunaka fikr kibrning a'lomati bo'lishi mumkin. Ilm cheksiz bo'lganligi uchun doimo ilm talabida bo'lish lozimligi xalq maqolida ham ta'kidlangan: "Beshikdan to qabrgacha ilm izla". Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ustoz-shogirdlik sifatlarini ta'riflashda, ushbu qissani aytib o'tganlari har birimiz uchun yana bir ibratli o'g'itdir.

XULOSA

1. "Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyaning aytganlaridan" risolasi bir qancha boblardan iborat bo'lib, maqolada ustoz-shogird masalalariga oid boblari falsafiy tahlil etildi.

2. Shogird ilm egallashda har qanday holatda ham ustozga muhtoj va uning xizmatini xolis bajarish bilan kamolga yetadi.

3. Shogird ilm egallashi uchun kibru havo qilmasligi va sabr-bardoshli bo'lishi shart.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyaning ustoz-shogird munosabatlari haqidagi aytganlaridan shunday umumiy xulosaga kelamizki, sabr-toqat bilan ilmu hunar egallashni komillik sari yo'l deb, komillikni daryoga qiyos etamiz. Ilm ahli irmoqlar orqali daryoga kelib qo'shiladi, komillikka erishadi. Irmoqni yo'lini ochuvchi - ustoz bo'lsa, unda mavjlanib oqayotgan suv – shogirdidir. Agar suv irmoq orqali daryoga bormasa, yer yuziga singib, manziliga yeta olmaydi. Shuning uchun ya'na bir bor ta'kidlaymizki, dunyoda mavjudligimizni sababchisi - aziz ota-onamiz bo'lsa, qadrimizni, kimligimizni anglatgan - mo'tabar ustozlarimiz ekanligini chuqur anglashimiz shart. Zotan, ustozlardan ilm o'rganishimiz va ularni shogirdidan roziligi komillik manziliga eltuvchi yagona yo'ldir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Қуръони Карим.

1. Шавкат Мирзиёев. Мамлакатимизда таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш, илм-фан соҳаси ривожини жадаллаштириш масалалари муҳокамаси буйича видеоселектор йиғилиши. 2 ноябрь 2020 йил.

2. Гулчеҳра Наврӯзова. Абдулхолиқ Ғиждувоний. "Имом Бухорий халқаро маркази" нашриёти Самарқанд 2020. –Б. 72;

3. Ойгул Шарипова. Абдулхолиқ Ғиждувоний. Монография. Бухоро 2020. –Б. 28;

4. Маҳмуд Ҳасаний. Хожа Абдулхолиқ Ғиждувоний. –Т.: "Ўзбекистон", 2003. . –Б 113-115;

ham yaroqsiz, keraksiz chiqindiga aylanadi. Demak, ustozini, uning aytgan so'zlarini qadriga yetmaslik oqibati shogirdni jamiyat uchun keraksiz insonga aylantiradi.

Risolaning uchinchi bobi shogirdning ustozga muhtojligi haqida bo'lib quyidagi ibratli so'zlar keltiriladi: "Bilginki, muridning shayxga muhtojligi ko'pdir va hech murid shayxsiz bu yo'ldan yurolmaydi. Chunonchi, Muso alayhis salom payg'ambarligiga qaramasdan, o'n yillar davomida Shu'ayb alayhis salomning xizmatlarini qildilar. Shundagina haq bilan so'zlashish sharafiga muyassar bo'ldilar.

Shayx – Alloh ularning ruhlarini muqaddas qilsin, buyuradilar: "Muridning komili mukammal shayxga muxtoji ko'pdir." Bu yo'lda manzillar va shubhali ishlar ko'p va dovonlar son-sanoqsizdir. Kimki bu yo'lga shayxsiz qadam qo'ysa, shubhalar to'riga ilinib, halokatga mahkum bo'ladi".[4,114]

Risoladagi bu bobda shogirdning ustozga muhtojligi Muso payg'ambarimiz hayotlari misolida izoh beriladi. Muso payg'ambarimiz yigitlik chog'larida qiyin sinovlarga duch kelib, fir'avn zulmidan qo'rqib, yaqinlari va qavmidan ayriliqda qochib, och-nahor, g'arib-bechora ahvolda yurganlari, hayotlari og'ir o'tayotgan bir davrda ustozlari Shu'ayb payg'ambarimizni uchratadilar. Va u kishining xizmatlarida 10 yil bo'lib, ustozlaridan ilm o'rganib, Alloh bilan gaplashish baxtiga muyassar bo'ladilar va zulmkor fir'avn ustidan g'alaba qozonib, yaqinlari va qavmlariga ko'p yaxshiliklar qilib, Haqni tanish ilmiga chorlaydilar. (Bu voqealarning batafsil tafsiloti Qur'oni Karimning "Qasos" surasida yoritilgan..D.V.)

Demak, bu voqeadan o'zimiz uchun ibrat olib, shogird doimo qalb ko'zini iymon nuri bilan yoritadigan ilmu tafakkurli, komil ustozga muhtojligini angalaymiz. Chunki ustozsiz hech bir ilmni ham, kasbu-hunarni ham o'rganib bo'lmaydi. Ilmu kasb-hunar egallashning sir-asrorlari shu darajada ko'pki, samarali o'rganishning yo'llari, tizimli qoidalari, foydali-foydasiz xususiyati faqatgina shu bosqichlarni bosib o'tgan ustozgagina ma'lumdir. Zero, ustoz shogirdiga to'g'ri va aniq yo'l-yo'riq ko'rsatib, har qanday tushunmovchiliklarni osongina bartaraf eta oladi. Natijada shogird o'z maqsadiga erishib, jamiyat uchun komil inson va foydali kadruga aylanib, keyinchalik mohir ustozlik maqomiga erishadi. Agar shogird ustozining yordamisiz, mustaqil ilm, kasb-hunarni o'rganaman desa, turli xil xatoliklarga yo'l qo'yib, duch kelgan shubhali gaplarga amal qilib, oxirida bilimsiz, malakasiz mutaxassisga aylanib qoladi. Hayotda mazmunli o'tkazishi zarur bo'lgan vaqtni bekorga sarflab, umrini zoe ketkazadi. Ayniqsa tasavvuf ilmi botin ilmi bo'lgani uchun uning maqomlaridan o'tib, holatini ilohiy bo'lishi komili mukammal ustozsiz amalga oshmaydi.

Ushbu risolaning beshinchi bobi "Ustozning martabalari va sifatleri haqida" nomlanib, ustoz qaysi tartibda o'rgatsa, shu tartibda o'rganish, shogird barcha holatda ham ustozga muhtojligi, ustozning xizmati uchun riyozat chekish va xizmatda nuqsonga yo'l qo'ymaslik borasida shogirdning farzlari haqida so'z boradi: "Bilginki, bu yo'lning har bir yo'lovchisiga – Alloh ularga muvaffaqiyatlar ato qilsin – haqiqiy yo'l boshchiga ergashmay chora yo'q, chunki bu yo'lning manzili maqomlarida dovon qiyinchiliklar ko'pdir. Yo'lni biluvchi shayxsiz bu yo'ldan yurib bo'lmaydi. Haq ta'olo Xizr alayhis salomni shayx maqomida, Muso alayhissalomni esa muridlik maqomida tutib, ilmi ladunniy ta'limini berdi.

Rasululloh aytadilar: "Ash-shayxu fi-qavmihi k-annabiy fi ummatihi" ("O'z qavmi ichidagi shayx ummat ichidagi payg'ambar kabidir"). Shayx – Alloh ularning ruhlarini muqaddas qilsin aytadilar: "Rosulullohning hadislariga muvofiq, murid barcha holatda ham pirga muhtojdir". (4,115)

Ushbu bobda Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni shogirdni yo'lovchiga, ustozni esa yo'l boshchiga qiyos etadi. Bilamizki, yo'l mashaqqati juda qiyindir, ayniqsa bu yo'ldan oldin yurmagan bo'lsangiz, manzilni aniq bilmasangiz, adashish oson. Hattoki manzilga yeta olmaslik ham mumkin. Ayniqsa, bu yo'l Haqqa yetish, ilm yo'li bo'lsa insondan anchagina zahmat chekishni talab etadi. Agar biz uchun yangi, noma'lum bo'lgan manzil yo'lini yo'l boshchi-ustoz bilan bosib o'tsaq, anchagina oson va tezroq bosib o'tamiz. Chunki birinchidan, "adashmadimmikan" degan shubhalardan holi bo'lib, ixtiyorizni yo'l boshchiga topshirasiz, uning aytganlarini bajarasiz, yo'lda zerikib qolmayasiz, sababi hamsuhbatingiz, yangi narsalarga duch kelganingizda so'rab bilguvchingiz doimo yoningizda bo'ladi. Mohir yo'l boshchining aytganlariga amal qilsangiz, manzilga sog'-salomat, tezroq yetib borib, maqsadingizga erishasiz.

Bu bobda Xizr alayhissalom ustoz sifatidagi, Muso payg'ambarimiz shogirdlik maqomidagi ibratli qissa keltiriladi. Xizr alayhis salom va Muso payg'ambarimiz haqlaridagi qissa Qur'oni Karimning "Kahf" surasi 60-82 oyatlarida keltiriladi. Bu qissadan ibrat olishimiz zarur bulgan xulosa,

nazardan asosli ta'riflab beradilarki, biz uchun bu sharhlar ustoz-shogird munosabati mohiyatini tushunishimizda, nechog'li qadrli yaqinlik tuyg'usi ekanligini anglab yetishimizda metodologiya bo'la oladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ustoz va shogirdning sifatlari qanday bo'lishi kerakligini nazariy jihatdan tahlil etib tushuntirib berish bilan bir qatorda, o'zlari ham ustozlari Xoja Yusuf Hamadoniya ehtimol ko'rsatib, u kishi haqida asarlar yozganlar. Bu haqida zamonamiz ustozlari, Buxorodagi Naqshbandiya maktabi asoschisi, professor Gulchehra Navro'zova monografiyalarida juda ham asosli va ibratli qilib yoritib berganlar. [2,72]

Olima Oygul Sharipova ham "Abdulxoliq G'ijduvoni" nomli monografiyalarida ustoz-shogirdlik munosabatlariga o'z qarashlarini bildirganlar. "Xojai Jahon aytadiki, xudojo'y shaxs, haqshunoslik yo'lga tushgan shogird, muridlarning ma'naviy ruhoni ustozlari-murshidini o'z otasidan ham ko'proq hurmat qilishi lozim. Chunki murshidlik lavozimi, ruhiy murabbiy otalik mavqeidan yuqoridir, zeroki murabbiy so'fiyga haqqa yaqinlashish yo'lini ko'rsatadi...". [3,28] Ya'ni otimiz bizni yer yuzida borligimiz, jismimiz sababchisi bo'lishsa, ustoz esa yer yuzida qanday yashashimiz, ruhiy salomatligimiz, shariat amallarini anglashimiz va ilm yo'lida sa'y-harakat qilib, Alloh buyurganidek mo'min banda bo'lishimizga yordam beradi.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ustozining Xojagon tariqati maktabidagi ta'lim-tarbiya usuli va yozgan qitoblaridagi g'oyalarning barchasi payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sunnatlariga muvofiq bo'lib, ustoz-shogird munosabatlarini yoritib berishlarida ham ushbu uslubga amal qilganlar.

Jumladan, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida saqlanayotgan, muallifi noma'lum, o'n uchta bobni o'z ichiga olgan "Az guftori Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni" ya'ni "Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ustozining aytganlaridan" risolasining bir qancha boblarida ustoz-shogird munosabatlari qanday bo'lishi lozimligi yoritib berilgan. Maqolada birgina ana shu risoladagi mavzuumizga doir keltirilgan boblar g'oyalari falsafiy tahlil etildi.

"Az guftori Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni" risolasining ikkinchi bobida muridni, ya'ni shogirdning sifatlari haqida so'z boradi: "Murid o'z shayxining talabi bilan mashg'ul bo'lishi, bu azizning xizmatida mahkam turishi, uning tasarrufiga o'zini taslim qilishi zarur... Har muridkim shayxning nazaridan qolsa, uning ishlari shunday buziladiki, boshqa hech qanday shayx uning ishini sozlay olmaydi, u go'yoki palag'da bo'lgan tuxumga o'xshab qoladi. Agar olamning barcha tovuqlari to'planib bu tuxumni sozlamoqchi bo'lsalar ham, sozlay olmaydilar va undan hech qanday jo'ja chiqmaydi". [4,113]

Shu o'rinda shayx va murid so'zlariga izoh beramiz. Shayx – tasavvufda kamolotga yetgan, shogirdlarni tarbiyalash ruxsatini olgan ustozga nisbatan aytiladi. Murid – tasavvufiy tushuncha bo'lib, tariqat yo'lga kirmoqchi bo'lgan tolibga nisbatan ishlatiladi. Xojai Jahonning bu so'zlaridan ma'lum bo'ladiki, ustoz shogirdga nimani o'rganishni buyursa, shogird shu ish bilan shug'ullanishi lozim. Chunki ustoz shogirdni amalga oshirishi zarur bo'lgan ishlarning mashaqqatlaridan allaqachon xabardor. Mashaqqatlardagi har qanday voqelikning yechimi ustozga ma'lum. Ustoz tajribasidan kelib chiqib shogirdga to'g'ri yo'nalish beradi. Buning uchun shogird ham ilm o'rganish bilan bir qatorda ustozining xizmatida bo'lish orqali o'zida hayotiylik, insoniylik fazilatlarini ham shakllantirishi kerak. Jismiy ruhini ustoz ixtiyoriga topshirib, boshqa ta'sirlarga chalg'imasligi shart. Agar shogird berilgan ko'rsatmalarga amal qilmasa, shubhalansa, ustozining ko'ngliga ozor beradi va nazaridan qoladi. Natijada shu paytgacha qilgan amallari, o'rgangan ilmu hunari foyda bermaydi. Shogird turli xil muammolar girdobida aylanib, samarasiz harakat qiladi. Bu holatdan chiqishni istab boshqa ustozdan yordam so'ragan taqdirda ham urinishlari be'samar bo'ladi. Chunki ustozni norozi qilgan shogird ham ilmu-hunar o'rganishning qobiliyati, mehnati, mashaqqati, sabru qanoati hali yetarlicha shakllanmagan bo'ladi. Agar shogirdlik xislatlari to'la shakllanganda edi, ustozining nazaridan qolmas, "palag'da bo'lgan tuxum"ga o'xshamas edi. Agar shogirdni ko'chma ma'noda "tuxum"ga qiyoslaydigan bo'lsak, dunyoda tuxumlar juda ko'pdir. Bu tuxumlarning ko'proq qismidan iste'mol uchun foydalanilsa, ozroq qismidan jo'jalar chiqadi va kelajak shu jo'jalar sharofati bilan davom etadi. Jo'ja chiqishi lozim bo'lgan tuxumni tovuq parvarishlamay qo'ydimi, endi boshqa tovuqlarning harakati besamardir. Chunki vaqt o'tdi, endi bu tuxum hattoki iste'molga

**XOJA ABDULXOLIQ G'IJDUVONIYTNING USTOZ-SHOGIRD SIFATLARI HAQIDA
О КАЧЕСТВАХ НАСТАВНИКА-УЧЕНИКА ХОДЖИ АБДУЛХОЛИКА ГИЖДУВАНИ
ABOUT THE QUALITIES OF KHOJA ABDULKHOLIQ GIJDUVANI'S STUDENTS**

Vohidova Dilshoda Vohid qizi¹

¹Buxoro davlat universiteti, Islom tarixi va manbahunosligi falsafa kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning ustoz-shogird sifatları haqidagi ibratli o'g'itlari keltirilib, ustoz-shogird munosabatlari qay tartibda bo'lishi, ustozning sifatları, shogirdning hayotda munosib o'rinni egallashida birinchi navbatda ustozning o'rni beqiyos ekanligi falsafiy tahlil etiladi. Ustozning ko'rsatmalariga sabr-toqat bilan amal qilgan shogird umrini, vaqtini foydali o'tkazib, jamiyat uchun qadri inson va bilimli insonga aylanishi mumkinligi hayotiy misollar orqali izohlanadi. O'z navbatida yosh avlodning jismi-yu ruhiyati aziz ustozga ishonib topshirilar ekan, ustozlar ham bunday ulkan mas'uliyatga jiddiy yondashishlari kerakligi tushuntiriladi. Allomaning ustoz-shogird munosabatlari qadrlash borasidagi o'g'itlari kelajak avlod uchun ham o'rganishi lozim bo'lgan muhim ibrat maktabi ekanligi ushbu maqolada o'z aksini topgan.

Аннотация

В этой статье представлены великие учения Ходжи Абдулхалика Гиждувани о качествах наставника-ученика, а также о порядке взаимоотношений мастера и ученика, качествах наставника, а также о том, что роль наставника несравненна в философски анализируется достойного места студента в жизни. На жизненных примерах объясняется, что ученик, терпеливо выполняющий указания учителя, может провести свою жизнь и время с пользой и стать ценным и образованным человеком для общества. В свою очередь поясняется, что, поскольку тело и душа молодого поколения вверены любимому учителю, учителя также должны серьезно отнестись к такой огромной ответственности. В данной статье отражено, что направление ученого о ценности отношений учитель-ученик является важным уроком, который следует усвоить будущему поколению.

Abstract

In this article, the great teachings of Khoja Abdulkhalig Gijduvani about the qualities of a master-disciple are presented, and the order of the master-disciple relationship, the qualities of a master, and the fact that the role of a master is incomparable in a student's rightful place in life are analyzed philosophically. It is explained through life examples that a student who patiently follows the teacher's instructions can spend his life and time usefully and become a valuable person and an educated person for the society. In turn, it is explained that since the body and soul of the young generation are entrusted to the beloved teacher, teachers should also take such a huge responsibility seriously. It is reflected in this article that Alloma's teachings on valuing teacher-student relationships are an important lesson that should be learned by the future generation.

Kalit so'zlar: tasavvuf, tariqat, shayx, murshid, murid, ilm, ustoz-shogird munosabatlari.

Ключевые слова: Суфизм, секта, шейх, мушид, мюрид, знание, отношения учитель-ученик.

Key words: Sufism, sect, sheikh, murshid, murid, knowledge, teacher-disciple relationship.

KIRISH

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevni: "Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatori tarbiyalagan..." - deya e'tirof etishi bejizga emas.[1] Darhaqiqat, ilmida mohir bulgan ustozlarni ardoqlangan yurtda yuksalish bo'ladi, munosib ilmi shogirdlar yetishib chiqadi. Aksincha, ustozlar behurmat qilingan yurt kelajak inqirozga yuz tutadi, johillik avj oladi. Zero, rivojlanish va tinchlikning asosiy posbonlari ustozlardir. Ular tarbiyalagan shogirdlarning ma'naviy qurollari har qanday zamonaviy texnika va yot mafkuradan ta'siri kuchli bo'lib, yurt ravnaqini munosib mustahkamlab himoya qiladi. Shuning uchun ustoz-shogird munosabatlari har bir zamon va makonda e'tibor markazida bo'lgan.

Ustoz-shogird munosabatlarisiz biror sohaning taraqqiyoti hanuzgacha uchramaganligi, bu munosabatni qadrlashimiz, e'zozlashimiz shart ekanligini Xojagon tariqati asoschisi Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni o'z asarlarida juda chiroyli o'xshatishlar bilan tushuntirib berganlar. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ustoz-shogirdlik munosabatlari muqaddas ekanligini tasavvufiy nuqtai

Oilangiz yoki do'stlaringiz bilan tabiat qo'ynida, toza havoda o'simliklar, hayvonlar, qushlarni tomosha qilishni xohlaringiz? degan savolimizga 55,7 % "juda xohlardim", 21,3 % "Unchalik xohlamayman", 23 % "Umuman xohlamayman" deb javob berganlar. Keltirilgan javoblarga e'tibor qaratar ekanmiz, respondentlarning 50 % dan ko'pi sayr qilishni ijobiy baholagan. Bu esa yana bir bor sog'lomlashtiruvchi skandinavcha yurish boshlang'ich sinf o'quvchilariga har tomonlama mos kelishidan dalolat beradi.

Skandinavcha yurish haqida ma'lumotga egamisiz? degan savolimizga respondentlarning deyarli barchasi bu yurish haqida hech qanday ma'lumotga ega emasliklarini bildirib, skandinavcha yurish qanday sport turi va nima uchun kerakligi to'g'risida ma'lumotlar berilishini so'raganlar. Respondentlarga skandinavcha yurish va uning inson organizmiga foydali taraflari haqida gapirib, ulardan **"Skandinavcha yurishni sinab ko'rishni xohlaysizmi?"** deb so'raganimizda deyarli barcha respondentlar "Albatta, xohlaymiz" deb javob berishgan.

Yuqoridagi anketa so'rovi jarayonida respondentlar tomonidan berilgan javoblarga asosanib, quyidagicha xulosa qilish mumkin: o'tkazilgan so'rovnoma natijalari aholini jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga bo'lgan munosabatlarini rivojlantirish hamda ularning qiziqishini inobatga olgan holda darsdan bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish maqsadida sog'lomlashtiruvchi skandinavcha yurishni qo'llash eng to'g'ri yo'l bo'lib, ushbu yurish aholi bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish bilan bir qatorda, sog'lomlashtirish va har tomonlama jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR

Adabiyotlar va amaliy tajribaning tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz va dunyo hamjamiyatida so'nggi yillarda o'quvchi yoshlarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan, ammo darsdan tashqari bo'sh vaqtlarda turli xil innovatsion metodlardan foydalanish orqali jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda yangicha sport mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish muammolari yetarlicha o'rganilmaganligi ushbu masala o'z yechimini topishni taqozo etadi.

Jismoniy tayyorgarlik darajasi har xil bo'lgan o'quvchi yoshlarni sog'ligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan darsdan tashqari vaqtlarda skandinaviya usulida yurish mashg'ulotlari yordamida jismoniy tayyorgarlik hamda sog'lik holatini baholashda tegishli normativlar ishlab chiqish orqali o'z-o'zini nazorat qilishda hozirlovchi mashqlar tizimini yaratish hisobiga skandinaviya usulida yurish mashg'ulotlarining organizm funksional holatiga ta'sir etish darajasi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 2017-yil 3 iyundagi PQ 3031- sonli qarori. LEX.Uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha xarakatlar strategiyasi" ning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.
3. F.A.Kerimov Sportda ilmiy tadqiqotlar. T.: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2018. -348 B.
4. Алексеева Н. V.Технология обучения скандинавская ходьба как компоненту здорового юз жизни / Н. V. Алексеева // Вестник Ленинградского государственного университета им. А. С. Пушкина. - 2013. №4. S. 19-22.
5. Полетаева А. Скандинавскажа ходьба. Легким шагом / А. Полетаева, М.: "копиринг", 2012. - 80-йиллар.

Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning bilim darajasini pasayishiga, ota-onalarning bolalarga kam e'tibor qaratilyotkanidan dalolat beradi.

Aqliy mehnat faoliyatidan so'ng o'zingizni qanday his qilasiz ? degan savolimizga respondentlar quyidagicha 58 % "yaxshi", 23 % "charchayman", 19 % "boshim og'riydi" deb javob berdilar. Keltirilgan javoblarga asoslanadigan bo'lsak, respondentlarning deyarli yarimida aqliy mehnat faoliyatidan so'ng o'zini yomon his qilishi va buni oldini olish uchun hech qanday harakatlar amalga oshirilmaydi. Bu esa jismoniy mashg'ulotlar orqali aqliy faoliyatni tiklash imkoniyatining borligi haqida tushuncha yo'qligidan dalolat beradi.

Sizga piyoda yurish yoqadimi? degan savolimizga respondent o'quvchilarning atiga 28,4 % "juda yoqadi", bu holatga 19,5 % "befarqman", 36,4 % "yoqmaydi", 15,7 % "mutlaqo yoqmaydi" deb javob berdilar. Demak, javoblardan ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining 50 % dan ortig'i piyoda yurishni yoqtirmaydi. Bu o'z navbatida kamharakatlikdan dalolat beradi, kamharakatlilik oqibatida juda ko'p yurak-qon tomir kasalliklari, semizlik kabi turli xil kasalliklarga sabab bo'ladi.

Necha yoshda sport bilan shug'ullanishni boshlash ma'qul, deb o'ylaysiz? degan savolimizga quyidagicha javob berdilar 29,7 % "7 yoshgacha", 6,8 % "9-10 yoshda", 15,7 % "11-12 yoshda", 48,1% "12 yoshdan keyin" sport bilan shug'ullanish ma'qul, deb hisoblashar ekan. Berilgan javoblarga tanqidiy yondashadigan bo'lsak, mazkur savolga berilgan javoblar tahminiy ekanligini bilishimiz mumkin (1-rasmga qarang).



1 - rasm. Respondentlarning sport bilan shug'ullanishni boshlash uchun eng ma'qul deb topgan yosh % da

Biroq 12 yoshdan keyin, degan javob barcha ko'rsatkichlardan yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. To'g'ri ayrim sport turlariga yosh chegaralari mavjud, ayrim holatlarga ko'ra jismoniy ko'rsatkichlar yuqorida keltirilgan barcha yosh davrlarida xam rivojlanishi mumkin, lekin shuni unutmaslik lozimki, sport bilan shug'ullanish qancha erta boshlansa, maqsadga erishish shuncha oson bo'ladi.

Sog'likni saqlash va mustahkamlash uchun o'rtoqlaringizga nima maslahat berasiz? deb so'ralganda 36,7 % "dori – darmon", 21,5 % "ko'p uxlash", 8,3 % "doimo qorin to'q yurish", bor yo'g'i 29,7 % respondentlar "sport bilan shug'ullanish" ni maslahat beraman, deb aytgan. Bu juda achinarli holat, chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'liqni saqlash va mustahkamlash bo'yicha bilimlar yetarli emas.

Sizning fikringizcha kunlik jismoniy faoliyatingiz sog'lom bo'lishingiz uchun yetarlimi? ushbu savolimizga deyarli barcha respondentlar "yetarli emas" degan javobni berishgan. Bu esa o'z navbatida maktablarda o'tiladigan jismoniy tarbiya darslariga bo'lgan ehtiyojni yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Skandinavcha yurish (tayoq bilan yurish, Shimoliy yurish) - bu odatiy, ya'ni odatiy yurishdir, buning uchun maxsus ishlab chiqilgan tayoqlar bizga yordam beradi. Skandinavcha yurish bu eng samarali va jismoniy faoliyatning xavfsiz turi bo'lib, maktab o'quvchilarining umumiy rivojlanishi va sog'ligini mustahkamlashda katta yordam beradi.

Bugungi kunda faol bo'lmagan turmush tarzi jamoat salomatligi uchun global muammodir, ayniqsa yoshlar o'rtasida turli xil yurak-qon tomir kasalliklari, semizlik, yassi oyoqlik, umurtqa pog'onasida qiyshayishlar, ko'rish, nafas olish organlari faoliyatlari bilan og'rikan bolalar soni ortib borishiga va bu o'z navbatida bolalarning kasalliklarga qarshilik qilish qobiliyatini kamayishiga olib kelmoqda.

Shu sababdan ham, aholi salomatligiga katta e'tibor qaratish lozim. Ayniqsa, aholini bo'sh vaqtlardan unumli foydalanish, ko'zlangan natijalarga erishish uchun eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. Mazkur muammolarni o'rganish va uni bartaraf etish maqsadida Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi yashovchi aholi turli qatlamlaridan anketa savollari orqali holatni o'rganish ishlari olib borildi (1 – jadvalga qarang)

1-jadval

Aholi salomatlik darajasini hamda skandinavcha yurishga bo'lgan qiziqishini o'rganish maqsadida o'tkazilgan so'rovnoma natijalarining statistic tahlili

№	Savollar	Javoblar % xisobida					
		1-javob	(sonda) %	2-javob	(sonda) %	3-javob	(sonda) %
1	Ertalab badantarbiya mashqlarini qilasizmi?	Bajaraman	54%	bajarmayman	22%	Ba'zan	24%
2	Siz bo'sh vaqtlaringizda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulatlar bilan shug'ullanishni xohlaysizmi?	Xoxlayman	35%	Xoxlamayman	50,7%	Menga farqi yo'q	14,3%
3	Aqliy mexnat faoliyartidan so'ng o'zingizni qanday xis qilasiz ?	Yaxshi	58%	Charchayman	23%	Boshim og'riydi	19%
4	Sizga piyoda yurish yoqadimi?	Juda yoqadi	28,4%	Befarqman	19,5%	Yoqmaydi	52,1%
5	Necha yoshda sport bilan shug'ullanishni boshlash ma'kul, deb o'ylaysiz?	7 yoshgacha	29,7%	11-12 yoshda	22,2%	12 yoshdan keyin	48,1%
6	Sog'likni saqlash va mustahkamlash uchun o'rtog'rlaringizga nima maslahat berasiz?	Dori-darmon	36,7%	Ko'p uxlash	21,5%	Sport bilan shug'ullanish	41,8%
7	Oilangiz yoki do'stlaringiz bilan tabiat qo'ynida, toza havoda o'simliklar, hayvonlar, qushlarni tomosha qilishni xohlaringiz?	Juda xoxlardim	55,7%	Unchalik xoxlamayman	21,3%	Umuman xoxlamayman	23%
8	Skandinavcha yurish haqida ma'lumotga egamisiz?	Ma'lumotga ega emasman	85%	Eshitganman	10%	Ma'lumotga egaman	5%

Anketa savollarida respondentlarning umumiy salomatligi, jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishi, sportning inson hayotidagi o'rni, aholining bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishi hamda aholing skandinavcha yurish bo'yicha ma'lumotlar olindi va tahlil qilindi.

Ertalab badantarbiya mashqlarini qilasizmi? deb so'ralganda, respondentlarning 54 % badantarbiya mashg'ulotlarini bajaradi, 22 % turli sabablarga ko'ra bajarmaydi, 24 % respondentlar esa "Ba'zan" deb javob berganlar.

Bundan ko'rinadiki, o'quvchilarning sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishi past hamda bolalarning salomatligi ota-onalar tomonidan nazorat qilinmaydi. Bu esa o'z navbatida bolalar orasida kasallanish holatlarining ortib borishiga hamda turli xil kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatining pasayib borishiga olib keladi.

Siz bo'sh vaqtlaringizda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulatlar bilan shug'ullanishni xohlaysizmi? degan savolimizga respondent o'quvchilarning 35 % "xoxlayman", 50,7 % "xoxlamayman", 14,3 % o'quvchilar esa "menga farqi yo'q" deb javob berishdi. Keltirilgan javoblardan shuni aytish mumkinki respondentlarning deyarli 50 % i uyga berilgan vazifalarni bajarish istagi yo'qligini qo'rish mumkin.

MAVZUNING O'RAGANILGANLIGI

Mavzuga doir ilmiy-metodik adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, respublikamizning bir qator olimlari T.S.Usmanxodjaev, I.A.Koshbaxtiyev, A.Sh.Abdullaev, Sh.X.Xankeldiev, R.S.Salamov, L.Z.Xolmurodov, I.I.Saidov va boshqalar sog'lomlashtirish va jismoniy tarbiya muammolariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy-tadqiqot natijalari alohida e'tiborga sazovor. Aholi salomatligini saqlash va mustahkamlash yo'nalishidagi muammolari bo'yicha T.S.Usmonxodjaev, F.G.Xo'jaev, K.M.Mahkamjonov, Sh.O'.Atamurodov, Sh.D.Abdullaev, Z.Sh.Yusupova va boshqalar tomonidan izlanishlar olib borilgan

Sog'lomlashtirish yo'nalishidagi jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish muammolari M.V.Zvereva, A.M.Kozin, L.V.Smurgina, I.A.Sennikova, A.G.O'edrin, T.A.Daminova, B.T.Xalmatova va boshqalar [3,4]

Tadqiqotning maqsadi: Aholining individual imkoniyatlarini inobatga olgan xolda sog'lomlashtirish va rehabilitatsiya qilish, aholining barcha yosh qatlamlariga mos keluvchi xamda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshiruvchi mashqlar kompleksini ishlab chiqish, sog'lomlashtirishga qaratilgan skandinavcha yurish sport turi bilan mustaqil ravishda shug'ullanish imkonini beruvchi inovatsion raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Skandinaviya usulida yurish bilan shug'ullanuvchi aholining antropometrik, morfofunktsional va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatgichlarini inobatga olib harakatli o'yinlar, gimnastika va skandinaviya tayoqchalari yordamida bajariladigan maxsus mashqlar majmuasini uchta metodik blokka jismoniy sifatlarga ta'siri bo'yicha mashg'ulotga kiritish hisobiga skandinavcha yurish texnikasiga o'rgatish metodikasi ishlab chiqish.

Aholining salomatligini mustahkamlash, funksional rivojlantirish, rehabilitatsiya qilish hamda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan skandinaviya usulida yurish innovatsion mashg'ulot dasturiga yurish tezligi, mashg'ulot darajasi, mashqlar davomiyligi, takrorlanish soni, musobaqa rejimi va tiklanish jarayonini aniqlovchi hamda shug'ullanuvchilarga mustaqil nazariy va amaliy o'zlashtirish imkonini beruvchi innovatsion mobil ilova ishlab chiqish.

Skandinaviya usulida yurish mashg'ulotlarining inson organizmiga (nafas olish, yurak-qon tomir, yog' to'qimasi, muskul, suyaklar, nerv sistemasi va ruhiyat) ta'sir etish darajasini aniqlash orqali, funksional rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi hamda salomatlik holatini baholash ko'rsatgichlari bo'yicha vaqt birligi ichida bosib o'tgan masofasini haftalik mashg'ulotlar soniga nisbatan yig'ilgan ballarini majmuaviy nazorat qilish hamda pulsni aniqlovchi sensorlar va qadamni sanab beruvchi dachchiklarni qo'llash.

Sog'lomlashtirish va tibbiyot markazlari, davlat tashkilotlari hamda barcha ta'lim muassasalarida markazlashgan tartibda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali, aholi salomatligi holatini monitoring qilishning yagona tizimini yaratish, zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalarini qo'llash bilan birga umrni uzaytirish va aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan yagona elektron dasturiy ta'minotni ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari: ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlili, pedagogik kuzatuvlar, anketa so'rovnomasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, hamda tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi: Shimoliy yurish (skandinavcha yurish, fin yurush, tayoq bilan yurish, shimoliy yurish) butun dunyoda mashxurlik kasb etmoqda. Ushbu sog'lomlashtirish sporti Finlyandiyada, o'tkan asrning o'ttizinchi yillari boshlanishi, chang'ichilarni tayyorlash usuli sifatida paydo bo'ldi. Skandinavcha yurish-maxsus mo'ljallangan tayoqlar yordamida ma'lum bir usul va yurish usulidan foydalanadigan yuqori samarali jismoniy faoliyat turi. Finlyandiyalik olimlar tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, skandinavcha yurish bel og'rig'ini kamaytiradi, umurtqa pog'onasini tuzatadi. Skandinavcha yurish tezligi odatda oddiy yurishdan ko'ra ancha kuchli. Shu bilan birga, qo'l harakatining amplitudasi qadamning kengligini va shunga mos ravishda tananing mushaklaridagi umumiy yukni aniqlaydi. Qo'llarning yuk hajmini kamaytirganda, qadam kichikroq bo'ladi va yuk kamayadi va agar yurish yanada qizg'in bo'lishi kerak bo'lsa, qo'l harakati amplitudasi oshadi. Skandinavcha yurish usuli turli xil variantlarni taqdim etadi: sekin va tez yurish, keng va kichik qadamni almashtirishingiz mumkin.

**SKANDINAVCHA YURISH SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH DASTURLARINI
OPTIMALLASHTIRISHNING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA**

**СКАНДИНАВСКАЯ ХОДЬБА КАК ОСНОВНОЙ ИНСТРУМЕНТ ОПТИМИЗАЦИИ
СПОРТИВНЫХ И ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ**

**SCANDINAVIAN WALKING AS THE MAIN TOOL FOR OPTIMIZING SPORTS AND
WELLNESS PROGRAMS**

Azizov Mirzoxid Mirzolim o'g'li¹

¹Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti doktoranti (DSc).

Annotatsiya

Mazkur maqolada sog'lomlashtiruvchi skandinaviya usulida yurishning aholi salomatligini saqlash va mustahkamlashdagi ahamiyati hamda skandinavcha yurish texnikasiga o'rgatish metodikasining inson organizmiga ijobiy ta'siri, mashg'ulotlar olib borishning qonun-qoidalari hamda skandinavcha yurishning boshqa sport turlaridan farqi haqida so'z borgan.

Abstract

This article talks about the importance of healthy walking according to the Nordic method in preserving and strengthening the health of the population, its positive effect on the human body, legal rules for conducting exercises, as well as the difference between Nordic walking and other sports.

Аннотация

В данной статье говорится о значении здоровой ходьбы по скандинавскому способу в сохранении и укреплении здоровья населения, ее положительное влияние на организм человека, правила проведения упражнений, а также отличие скандинавской ходьбы от других видов спорта.

Kalit so'zlar: Skandinavcha yurish, jismoniy tarbiya, shaxsiy yondashuv, innovasion texnologiya, sog'lom hayot, kislorod iste'moli, funksional rivojlanish, hozirlovchi mashqlar, nerv-muskul, immunitet tizimi, mikroserkulyatsiya, adaptatsiya, o'z-o'zini nazorat qilish, jismoniy tayyorgarlik.

Ключевые слова: Скандинавская ходьба, физкультура, личностный подход, инновационные технологии, здоровый образ жизни, потребление кислорода, функциональное развитие, тренировочные упражнения, нервно-мышечная система, иммунная система, микроциркуляция, адаптация, самоконтроль, физическая подготовка.

Key words: Nordic walking, physical education, personal approach, innovative technologies, healthy lifestyle, oxygen consumption, functional development, training exercises, neuromuscular system, immune system, microcirculation, adaptation, self-control, physical training.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Dunyo hamjamiyatida ommaviy sportni rivojlantirish, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish hamda salomatlikni saqlash va mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aholi barcha qatlamlarini individual imkoniyat va qobiliyatlarini inobatga olgan holda sog'lomlashtirishga qaratilgan mashg'ulotlarni zamon talablariga moslashtirish yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylanib, millat genofondini yaxshilash, yosh avlodni yuksak jismoniy va intellektual salohiyatga ega etib tarbiyalash vositasi sifatida milliy istiqloq g'oyalarini targ'ib etishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim soha sifatida foydalanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi"ning PF-4947-sonli Farmoni, 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy- ahloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli farmoni, qarorlaridan ma'lumki yoshlarga ayniqsa jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak yetibordan dalolat beradi. [1,2]

ILMIY AXBOROT

albatta, oliy ta'lim muassasalari ekologiya kafedralarida ekologiya va ekologiyaga oid fanlardan mashg'ulotlar olib borayotgan professor-o'qituvchilar bilan birgalikda barcha fan o'qituvchilarini ekologik bilimlari, malakasi, tajribasi va albatta ma'suliyati muhim o'rin tutadi, bu borada konsepsiyada ta'kidlab o'tilganidek, o'qitiladigan fanlar mazmuniga ekologik bilimlarni singdirish (integratsiya), ekologiya bilimlarni zamonaviy, innovatsion usullarda yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 434-sonli Qarori <https://lex.uz/docs/4354743>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5863 sonli Farmoni/<https://lex.uz/docs/4574008>
3. Mamajonov.Sh.A. Determinants of environmental education aimed at the development of mechanisms of environmental education in higher education // International Scientific and Practical Conference: "The role of science and Innovation in the modern world". London, United Kingdom. 2022. P. 38-46.
4. Kiyimet Selvi. "Axborot kommunikatsion texnologiya kompetensiyalari". Turkiya 2015, monografiya.
5. Sh.A.Mamajonov, N.B.Odilxo'jazoda, X.M.Jo'rayev "Oliy ta'lim muassasalari kimyo o'qituvchilarining ekologik kompetentlik darajasini rivojlantirish" Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2022/№9. 170-176-betlar.

o'quv-metodik ta'minoti, ilmiy-pedagogik ta'minot, metodik-texnik ta'minot va axborot-dasturiy ta'minot bilan ta'minlanganlik holatlari zaruriy ahamiyat kasb etishi ayon bo'ldi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirish borasida ekologiya kafedralari va yo'nalish talabalari mas'ulligida ekologik markazlar, ekologiya klublari faoliyatini yo'lga qo'yish, muntazam ravishda ekofestivallar hamda turli tanlovlar, sport musobaqalari o'tkazish yaxshi samara beradi. Atrof-muhit muhofazasiga bag'ishlangan maxsus kechalar o'tkazilishi, ularda "Ekologik madaniyat", "Ekologik tarbiya", "Tabiatni asrang", "Ekoturizm", "Biz kelajak uchun javobgarmiz", "Jamiyat va unda ekologiyaning roli", "Atrof-muhit musaffoligiga mening hissam", "Biz – sog'lom turmush tarafdorimiz" kabi mavzularda ma'ruza, seminar trening, davra suhbatlari, turli tadbirlar o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Mazkur tadbirlarni ko'proq talabalarning tashabbuslari va faolliklarida o'tkazishga erishish, bu orqali ularni ekologik va estetik madaniyatini yuksaltirish, ona tabiat haqidagi bilimlari, qarashlari, tushunchalari va intellektual salohiyatlarini oshirish, tabiat va uning ne'matlariga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu borada turli tashabbus, loyihalarni va yangi dasturlarni ishlab chiqish, tizimga tatbiq etish singari masalalar muhokama etilishi lozim.

Talabalar bilan mashg'ulotlar yakunida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, ularni ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik kompetentlik, ekologik xavfsizlik tushunchalari bo'yicha bilim darajalari 84% ni tashkil etganligi ma'lum bo'ldi.

O'qituvchining ekologik kompetensiyasi deganda uning samarali ekologik ta'lim muxitini yaratish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan pedagogik faoliyatda "ekolog" bo'lish qobiliyati va tayyorligi tushunilishi kerak.

Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligini Turkiyaning "Onado'li" universiteti professori, doktor Kiyomet Selvi 9 ta komponentga ajratadi. Ularning ichida 9-raqamda Environmental competencies – atrof-muxit kompetensiyalari, bu kompetensiya tabiat haqidagi bilim va ko'nikmalarni, ekologik resurslarni boshqarishni, foydalanilish kerak bo'lgan tabiiy resurslarni va atrof muxitni toza saqlashni o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyalar ekologiya va atrof-muxitni saqlashga qaratilgan extiyojlardir [4].

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining ekologik kompetentligini shakllantirishda o'sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahonning ilg'or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirish, ekologik ta'lim sifatini, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini, ta'lim oluvchilarning e'tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatni qayta tiklanmas manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha mas'uliyatni kuchaytirishdan iboratdir.

XULOSA

Bo'lajak kimyo o'qituvchilari ekologik kompetensiyasini shakllantirishda birinchi navbatda maktab kimyo darsliklarida ekologiya va atrof muhit bilan bo'g'liq mavzularni o'rganish, tahlil qilish, bu boradagi materiallarni yanada boyitish bo'yicha qo'shimcha manbaalar, internet ma'lumotlari, sohaga doir yangiliklarni o'rganish, shuningdek, ekologiya va atrof-muhit masalalariga oid me'yoriy hujjatlar (qonun, kodeks, farmon, qaror, farmoyish va xokazo) mazmun mohiyatini bilish, ushbu hujjatlar ijrosi bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish, ommaviy axborot vositalari va internet manbalarida berilayotgan ekologiyaga doir yangiliklarni muntazam kuzatib borish, global va mintaqaviy ekologik muammolarni, atrof muxit muxofazasi, atmosfera havosini ifloslanish darajasi, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan va yangidan qurib foydalanishga topshirilgan kimyoviy ishlab chiqarishlar va zavodlar, ularda boradigan kimyoviy jarayonlarni bilishi va o'quvchilarga tushuntirib bera olishi, o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish uchun auditoriya va undan tashqari mashg'ulotlarda umumiy va ta'limiy ekologik yo'naltirilgan vazifalarni bajarishi (o'quvchilarni tabiat go'zalliklaridan baxra oluvchi turli tabiat maskanlari, qo'riqxonalariga sayrlarini tashkillash yoki xududdagi ishlab chiqarish korxonalariga amaliyotlarini yo'lga qo'yish va boshqalar), tabiatga, insonlarga va jamiyatga oqilona mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, o'quvchilarning ekologik yo'naltirilgan kognitiv faoliyatini shakllantirish tajribasi bo'lishi maqsadga muvofiq [5].

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining, umuman barcha fan o'qituvchilarining ekologik kompetensiyasi oliy ta'lim muassasalarida taxsil olish jarayonida shakllantirib boriladi. Bunda

ekologik tarbiya, ekologik madaniyat tushunchalariga javob berish bilan cheklanilgan. Ekologik kompetentlik, ekologik xavfsizlik tushunchalari bo'yicha to'liq javoblar deyarli kuzatilmadi. Shundan kelib chiqqan holda, biz o'z mashg'ulotlarimizda talabalarni ekologik kompetentliklarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratdik. Bu borada birinchi navbatda yuqoridagi tushunchalarni mazmun-mohiyati bo'yicha ularga to'liq ma'lumotlar yetkazildi. Jumladan, ekologik kompetentlikni shakllantirishda ekologik determinantalar alohida o'rin tutishi ta'kidlandi.

Determinantalalar – shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ekologik shartlar, sabablar, omillardir. Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarda determinantalarga (D.B.Elkonin, N.V.Pavlova, A.V.Podlasiy, I.A.Zimnyaya, E.G'oziyev, Sh.Abdullayeva) shaxsning ijtimoiy-madaniy muhitda o'zaro faoliyat va muloqot jarayonida egallagan alohida sifati deb baho beriladi. Ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ekologik tarbiya determinantalari sirasiga quyidagilar kiradi:

– **ekologik tarbiya** – tabiat haqidagi bilim va intellektual salohiyatini oshirishga maqsadli yo'naltirilgan, ona tabiat va uning ne'matlariga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan jarayon;

– **ekologik ta'lim** – tahsil oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ijodiy qobiliyatlari va ekologik qarashlarini rivojlantirishdagi faol o'quv va bilish faoliyatini tashkil etish va rag'batlantirishning maqsadli pedagogik jarayoni;

– **ekologik ong** – barcha fuqarolarning, shu jumladan, yoshlarning tabiatni muhofaza etish borasida maqsadga yo'naltirilgan amaliy faoliyati individual ekologik ongning shakllanishida zaruriy shart hisoblanadi. Ekologik ong insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri sohasidagi bilim va e'tiqodini mujassam etadi;

– **ekologik madaniyat** – insonning tabiat va uning ne'matlariga ongli munosabati, ona zamin uchun tabiat muhofazasi borasidagi faol hayotiy nuqtai nazarning shakllanganligi. Aholining ekologik madaniyatini va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni shakllantirishga qaratilgan ushbu faoliyat – butun insoniyat kelajagi xavfsizligining garovidir;

– **ekologik kompetentlik** – ekologik ongni, madaniyatni shakllantirishda nazariy ekologik bilimlarni egallash, tabiat, yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy resurslar haqida tushunchalarga ega bo'lish va ular haqida xabarlar bera olish, tabiatga nisbatan e'zozda bo'lish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalana olish, ekologik ta'lim va ekologik tarbiya yo'nalishida madaniy-ma'rifiy ishlarning barcha samarali shakllari va uslublaridan, jumladan, ommaviy axborot vositalaridan, og'zaki, ko'rgazmali va texnika vositalaridan keng foydalanish malakalariga ega bo'lish;

– **ekologik xavfsizlik** – bu faoliyatning holati bo'lib, ma'lum ehtimollikda ekologik xavflarning kelib chiqishini bartaraf qilishga qaratilgan maqsaddir. Tabiiy muhit va insonning xayotiy muhim manfaatlarining tabiiy hamda texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlarini extimoliy salbiy ta'siridan himoyalanganlik holati [3].

Tadqiqotlar natijasidan ayon bo'lishicha, ekologik ta'lim va ekologik tarbiya tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashga yo'naltirilgan definitsiyalar sifatida qaralar ekan, ularni alohida kategoriya sifatida sharhlash maqsadga muvofiqligi inobatga olindi va oliy ta'lim muassasalarida "ekologik tarbiya" istilohiga kam e'tibor berilganligini qayd etgan holda, ularga mualliflik nuqtai nazaridan quyidagicha ta'rif berdik:

Ekologik ta'lim - tabiat haqidagi bilim va intellektual salohiyatni oshirishga mo'ljalangan maqsadli jarayon. Ushbu jarayon atrof-muhitga bo'lgan munosabat, bilim, ko'nikma va malakalarda namoyon bo'ladi va atrof-muhitga e'tiborni kuchaytirish orqali insonning shaxsiy uzluksiz rivojlanishiga yordam beradi;

Ekologik tarbiya - atrof-muhitga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lishni shakllantirishga qaratilgan jarayon bo'lib, uning ishtirokchilari tabiat va atrof-muhitga g'amxo'rlik qilish, o'zlarining har bir harakati sayyoramiz ekologiyasi uchun oqibatlariga olib kelishi mumkinligini tushunish va resurslardan oqilona foydalanishni o'rganadilar. Ekologik tarbiyalanganlik faqat talabani o'zi uchun emas, balki jamiyat va uning taraqqiyoti, kelajak avlod taqdiri uchun zarurligini anglash juda ham muhimdir.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ekologik tarbiya berish mexanizmlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari o'rganilganda, muhim shartlardan biri bu-jarayonning

amaliy bilimlar uyg'unligiga, o'quvchilarda ekologik madaniyat hamda tarbiyaning bosqichma-bosqich shakllanishini ta'minlaydigan maqsadli tizimga aylanishi kerakligi, ekologiyaning nazariy asoslariga oid bilimlar va ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan bilim, ko'nikma va malakalar mavjud o'quv fanlari mazmunida uzviylik asosida berilishi va bir butun kompleks tarzda ifodalanishi belgilab qo'yilgan. Natijada umumiy o'rta ta'lim tizimini tamomlagan shaxs minimal darajada ekologik tushunchalar, xulq-atvor qoidalari (ekologik madaniyat) to'g'risida bilimga ega bo'lishi ta'kidlangan.

O'quvchilarga Konsepsiyada qo'yilgan talablar darajasida bilim berish maktab o'qituvchilarini eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Biz ana shu maqsaddan kelib chiqib, bo'lajak kimyo o'qituvchilarini ekologik kompetentligini shakllantirish borasida kichik tadqiqotlar o'tkazdik, bunda 2023-2024-o'quv yilida Farg'ona davlat universiteti kimyo yo'nalishi 4-bosqichida tahsil olayotgan 76 nafar talaba ishtirok etdi.

Jamiyatning ekologik madaniyati yuksalishida tez natija beruvchi usul oliy ta'lim talabalarining ekologik bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirishdan iboratdir. Zero, bugungi talaba ertaga jamiyatning yetakchi ziyoli qatlami sifatida yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishdek sharaflil va mas'uliyatli kasbni egallaydi.

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda zamonaviy ekologik ta'lim tarbiyani amalga oshirishda zamonaviy mutaxassisning ekologik kompetentligiga asos bo'ladigan ekologik tayyorgarlikning pedagogik modelini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Barqaror rivojlanish ta'limi ekologik bilimlar ustiga qurilishi lozim bo'lgan binodir. Uning asosiy tayanch ustunlari esa ekologik kompetentlik bo'lib, mukammal barqaror rivojlanish ta'limiga erishish uchun talabalarga beriladigan ekologik bilimlar tabiiy fanlar, falsafa, iqtisodiyot, matematika, jamiyatshunoslik va ijtimoiy fanlar bilan uzviy aloqada bo'lishi lozim.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, OTMlarda o'qitilayotgan o'quv kurslari va o'quv modullari mavzulariga insonning hayoti mobaynida ekologik xavfsiz yashashini ta'minlash masalalarini yoritib beruvchi ma'lumotlarni singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish hamda takomillashtirish masalasi kompleks xarakterga ega ekanligini ta'kidlagan holda, sohada innovatsion yondashuv, ilmiy izlanishlar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish e'tirof etadigan darajada emasligi ayni haqiqatdir.

Fikrimizcha, oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi determinantalar quyidagi maqsad va vazifalarda o'z aksini topadi: o'quv jarayoniga zamonaviy ekologik yondashuvlarni, talabalarda ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologik tarbiyani rivojlantirishni innovatsion usullarini joriy etish; ekologik masalalarga ongli munosabat bildirish; ta'sirchan va samarali yangi ekologik targ'ibot vositalarini ommalashtirish; har bir o'quv muassasasida ekologik xavfsiz o'quv sharoitlarini yaratish va boshqalar.

Statistik axborotlarga ko'ra, 2018-yilda respublika bo'yicha atmosfera havosiga chiqarilgan jami ifloslantiruvchi moddalar miqdori 2,492 mln tonnani tashkil etgan, shuning qariyb 63 foizi ko'chma manbaalar hissasiga to'g'ri keladi [2]. Tabiatni ifloslantiruvchi moddalar, metallar, chang, pestitsidlar, radiaktiv moddalar dunyo osmonida chegara bo'lmagani uchun bitta texnobiologik tizimni tashkil qiladi. Tabiatdagi bu o'zgarishlar inson uchun izziz qolmaydi, ya'ni unga o'z ta'sirini ko'rsata boshladi yoki 750 xildan ortiq tashlandiq moddalar inson tanasi uchun g'oyat zaharli ekani hozirda odamlarga sir emas. Bu moddalar mutogen o'zgarishlargacha olib boradi. Hozirda atrof-muhit muhofazasi deyilganda, nafaqat XXI asr odamlari uchun, balki, kelgusi avlodlar uchun ekologik toza Vatan, makon, jamiyat qoldirishdir. Manbaalar va adabiyotlar tahlillari va statistik ma'lumotlarga tayangan holda, aytish mumkinki, ekologik tanazzul ayrim regionni chetlab, dunyoviy masalaga aylandi, bunga misol qilib uglerod dioksidining ortishi, azot oksidi va oltingugurtning ko'payishi atmosferani dunyo bo'yicha ifloslantirdi.

Tadqiqotlarimiz davomida talabalarni ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir bilimlarini o'rganish maqsadida mashg'ulotlar avvalida ularga ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik kompetentlik, ekologik xavfsizlik tushunchalarini qay darajada tushunishlari, bir-biridan farqlay olishlari bo'yicha anketa savollari bilan murojaat qildik. Natijalar tahliliga ko'ra, talabalarni 62% ushbu tushunchalar haqida umumiy bilimlarga ega, 69% talaba ekologik ta'lim,

**BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARIDA EKOLOGIK KOMPETENTLIKNI
SHAKLLANTIRISH****ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
ХИМИИ****FORMATION OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE AMONG FUTURE CHEMISTRY
TEACHERS****Mamajonov Shuhratjon Asqarovich¹**¹Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrası dotsenti, p.f.n.**Jo'rayev Xusniddin Maxammadaliyevich²**²Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrası o'qituvchisi**Annotatsiya**

Maqolada bo'lajak kimyo o'qituvchilarida ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik kompetentlik, ekologik xavfsizlik tushunchalarini shakllantirish, kimyo fani mazmuniga ekologik bilimlarni singdirish masalalari batafsil yoritilgan.

Аннотация

В статье подробно освещаются вопросы экологического образования, экологического воспитания, экологической культуры, формирования понятий экологической компетентности, экологической безопасности у будущих учителей химии, внедрения экологических знаний в содержание химии.

Abstract

The article highlights in detail the issues of environmental education, environmental upbringing, environmental culture, the formation of concepts of environmental competence, environmental safety for future chemistry teachers, the introduction of environmental knowledge into the content of chemistry.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik kompetentlik, ekologik xavfsizlik, fanlararo integratsiya.

Ключевые слова: экологическое образование, экологическое воспитание, экологическая культура, экологическая компенсация, экологическая безопасность, междисциплинарная интеграция.

Key words: environmental education, environmental upbringing, environmental culture, environmental compensation, environmental safety, interdisciplinary integration.

KIRISH

Ekologik muammolar mamlakatimiz siyosatini eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi-ki, keyingi yillarda atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslarni asrab-avaylash, tabiat ne'matlariga oqilona munosabat, aholini ekologik madaniyatini oshirish, yoshlar o'rtasida ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifati masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan aniq maqsad va vazifalarni hamda yo'nalishlarni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ekologik ta'lim tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi [1].

ASOSIY QISM

Konsepsiyada ekologik ta'limni uzluksiz ta'limni barcha bosqichlarida amalga oshirish belgilab qo'yilgan. Jumladan, umumta'lim maktablarida ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish bo'yicha bir qator vazifalar belgilangan. Bu borada o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim mazmuniga keng singdirish, ekologik bilimlar o'quvchilarning yoshi, jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda sinflar darajasida farqlanishi asosida tashkil etilishi, bunda bilim berish "oddiydan murakkabga", "uzviylik va uzluksizlik" kabi pedagogik tamoyillarga tayangan holda nazariy va

3. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent;O'zbekiston-2017.-104 b.
4. Adizova T.M. O'quvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari.- Toshkent, TDPU, 1997.
5. Adilova M., Raxmonova D.R. Farzandlar mehrimizga muhtoj. Ayollar psixologiyasi: anhanaviylik va o'zgaruvchanlik. Respublika ilmiy - amaliy anjumani mahruzalari to'plami. - Toshkent, 2002.
6. Анастази А. Психологической тестирование-М 1982 Т2.
7. Баратов Ш.Методы изучения личности студента.-Ташкент. Учитель 1995.
8. Беспалков И.Г. Гилгяшев. И.Н.Проективной.Метод.Психологической и коррекси личности –Л 1983

ILMIY AXBOROT

O'g'il va qiz bolalarning natijasi bo'yicha asimmetriya va eksess ko'rsatgichlari -1 dan Q1 gacha oraliqda ekanligi mazkur ko'rsatgichlarning statistik taqsimlanishining qo'ng'iroqsimon shakldagi simmetrik normal taqsimlanish qonuniga yaqin ekanligini ko'rsatadi.

Odamlarga ishonish bo'yicha o'tkazilgan test natijalariga ko'ra shahar hududi bo'yicha ballari 3 balldan 17 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari $9,96 \pm 3,89$ chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 54 foizini qamrab olmoqda. Qishloq hududi bo'yicha esabu ko'rsatgich 3 balldan 17 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari $6,62 \pm 2,15$ chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 58 foizini qamrab olmoqda.

Shahar hududining natijasi bo'yicha eksess ko'rsatgichlari -1 dan yuqori ko'rinishda bo'lganligi uchun mazkur ko'rsatgichlarning statistik taqsimlanishining yuqori qismlari o'ng tomonda joylashganligidan dalolat beradi va bu sinaluvchilarning natijalari nisbatan yuqoriligini ko'rsatadi (diagramma3).

Qishloq hududining natijasi bo'yicha asimmetriya va eksess ko'rsatgichlari -1 dan Q1 gacha oraliqda ekanligi mazkur ko'rsatgichlarning statistik taqsimlanishining qo'ng'iroqsimon shakldagi simmetrik normal taqsimlanish qonuniga yaqin ekanligini ko'rsatadi.

3-diagramma orqali farq yo'qdek ko'rinishi mumkin lekin chastatali tahlil qilinganda ularning o'rtasidagi farq ko'rinadi. Ushbu diagrammadan ko'rish mumkinki shahar hududida yashovchi sinaluvchilarning o'ng tomonda ya'ni yuqori ball ko'pligini ko'rsatadi. Qishloq hududining natijalari esa chap tomonda bu esa natijalarda past ko'rsatgichning ko'pligini ko'rsatadi. Bu esa ularda shahar aholisiga qaraganda odamlarga ishonish yuqoriligidan dalolat beradi (2-rasm).



Bu natijalar yigit va qizlarda ishonch hissini qay darajada ekanligini farqlanganligini ko'rsatmoqda. Bunda asosan ko'proq qiz bolalarda ishonch hissi pastroq yigitlarda ishonch hissi yuqoriroq ekanligi isbotlandi. Bunga asoslangan holda yigitlarda ishonch hissi qizlarga qaraganda kuchliroq ya'ni ishga qo'l urishdan avval aniq ishonch hosil qilib, so'ng faoliyatni boshlashi, ikkilanish holati yuz bermasligi kuzatildi. Statistik tahlil qilinganda ular orasidagi farqlar mavjudligi aniqlandi. Natijalar tahlili quyida 2- diagrammada keltirildi.


ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent; O'zbekiston -2017-104b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T; "O'zbekiston". 2017-488b.

Assimetriya	0,641191441
Ektsess	-0,388973665
Xmin	3
Xmaks	17

Odamlarga ishonish bo'yicha o'tkazilgan test natijalariga ko'ra sinaluvchilarning umumiy ballari 3 ballardan 17 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari $8,29 \pm 3,55$ chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 67 foizini qamrab olmoqda.

Ushbu testning umumiy natijasi bo'yicha asimmetriya va ekstsess ko'rsatgichlari -1 dan Q1 gacha oraliqda ekanligi mazkur ko'rsatgichlarning statistik taqsimlanishining qo'ng'iroqsimon shakldagi simmetrik normal taqsimlanish qonuniga yaqin ekanligini ko'rsatadi (1-rasm).



Ular asosan yolg'iz qolganda fikr mulohazalarini bildiradi boshqalarni so'zlarini ma'qullamaydi. Ular asosan o'ziga ishonishni ma'qul deb ko'rishadi.

	yigit	qiz	shahar	qishloq
O'rta	8,90625	8	9,96	6,62
St.og'ish	3,44879	3,586875	3,891173	2,156055
Asimmetra	0,683407	0,677786	0,035733	0,236313
Ekssess	-0,39249	-0,31925	-1,10086	0,66717
Xmin	3	3	3	3
Xmaks	16	17	17	12

Odamlarga ishonish bo'yicha o'tkazilgan test natijalariga ko'ra o'g'il bolalarning ballari 3 ballardan 16 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari $8,91 \pm 3,45$ chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 71 foizini qamrab olmoqda. Qiz bolalarning ballari 3 ballardan 17 ballgacha oraliqda taqsimlangan bo'lib, ularning o'rtacha va standart og'ish qiymatlari $8 \pm 3,58$ chegarasida o'zgarib turadi. O'rtacha qiymat ko'rsatgichidan bir sigma va bir sigma chapga og'gan qismi umumiy sinaluvchilarni 63,2 foizini qamrab olmoqda.


ADABIYOTLAR TAHLILI METODOLOGIYASI

“Ishonch“ tushunchasi odamlar o‘rtasidagi kundalik munosabatlar amaliyotini aks ettirish oddiy holdir degan fikriniyam ilgari surishgan. Sharq allomalaridan Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, rus olimlaridan B.F.Borshnev, V.N.Kulikov, T.P.Skripkina bevosita ijtimoiy-psixologik omillar o‘z tadqiqotlarida ishonch tushunchasini qanday paydo bo‘lganini ishonchni avvalo oilada, do‘stlar davrasida, maktab davrlarida paydo bo‘lishini, ya’ni ishonchni paydo bo‘lishini o‘smir yoshdagi bolalarda, asosan, kamroq, chunki u yoshda ko‘proq mehrga, shirin so‘zga muhtojligini aytib o‘tishgan (1.79 b)

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki ishonch tushunchasini paydo bo‘lishi, asosan oilaga, muhitga, fikr mulohazalarga ijtimoiy-psixologik omillar, mehnat jarayonlari, qo‘rquv, ishonchsizlikni yengishda, asosan mamalakatimiz olimlaridan M.Adilova, E.G‘oziyev, Adizova T.M va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

NATIJALAR

Natijalarimiz shuni ko‘rsatadiki tadqiqotimiz Farg‘ona shahrida joylashgan 4-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabi va Oltiariq tumani 17- umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida amalga oshirildi. Maktablarning 7-sinf o‘quvchilari tadqiqotda ishtirok etishlari avvaldan rejaga kiritilgan bo‘lib, tajribada ishtirok etishlari taklif etildi. 4-maktabning 7-A sinfdan 25, 7-B sinfdan 30 nafar, 17-maktabdan 7-B sinfdan 32, 7-V sinlaridan 25 nafari sinluvchilar qatnashdi. Tadqiqotimizda shahar maktabidan 55, qishloq maktabidan 57 nafar o‘quvchilar tajribada ishtirok etdilar. Har bir ishtirokchiga test matni berildi. Ularning har biriga test bilan ishlayotganda amal qilish lozim bo‘lgan harakatlar tushuntirildi. Dastlab o‘tkazilgan «Odamlarga ishonasizmi?» so‘rovnomasi bo‘yicha natijalar quyidagicha bo‘ldi.



diagrammada ko‘rinib turibdiki, respondentlarning 34 foizi ishonuvchan, ochiq va rashq nimaligini bilmaydigan, atrofdagilar bilan tez til topishib keta oladi, ko‘ngilsizliklarni xafagarchiliklarni tez unutadigan toifa ekanliklari aniqlandi. 56 foiz ishtirokchilar har doim ham boshqalarga ishonmasliklari, begona va yo‘lida uchragan kishilar bilan darhol hamkorlik qilishga shoshilmasliklari, ishdan tez ko‘ngil sovish, atrofdagilarga emas balki, o‘zlariga bo‘lgan ishonch hissini ortiqligi kuzatildi. 10 foiz respondentlarda faqat o‘ziga bo‘lgan ishonchni yuqoriligi, mustaqil harakat, qarorga kelish kabi xususiyatlari yuqori darajada shakllangan biroq boshqalarning manfaatlari, qiziqishlari, orzu umidlari va armonlari umuman qiziqitirmasligi kuzatildi. Mazkur holat bo‘yicha olingan natijalarning ishonchligi quyidagi ko‘rinishni berdi.

	umumiy ko‘rsatgich
o‘rta arifmetik qiymat	8,29
St.Og‘ish	3,55134062

O'SMIRLARDA ISHONCH HISSI VA UNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

CONFIDENCE IN ADOLESCENTS AND ITS SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS

ЧУВСТВО УВЕРЕННОСТИ У ПОДРОСТКОВ И ЕЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Saidova Yulduzxon Akbarjon qizi¹

¹Farg'ona davlat universiteti, psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada o'smir yoshdagi bolalarning psixologik holati, ishonchni qanday paydo bo'lishi, do'stlari, ota-onasiga, oilasiga, bo'lgan ishonchini aniqlash va oshirish to'g'risida ma'lumotlar ko'rsatilgan. Ishonch borasida olib borilgan ishlar asosan o'smir yoshdagi bolalarning idrokini, xotirasini, diqqatini oshirishda o'zlariga bo'lgan ishonchlarini oshirishga yordam berish. Ishonchini oshirishda asosan oila a'zolari, maktab o'qituvchilari, do'stlarini o'rni qay darajada ekanligini yoritib berilgan.

Аннотация

В статье приведены сведения о психологическом состоянии детей-подростков, о том, как определить доверие друзей, родителей, семьи и как повысить доверие. Работа, проводимая над уверенностью направлена главным образом на улучшение восприятия памяти внимания и уверенности в себе детей подростков. Подчеркнута роль членов семьи школьных учителей и друзей в повышении доверия.

Abstract

The article shows information about the psychological state of adolescent children, how to identify trust in friends, parents, and family. The role of family members, school teachers, and friends in increasing confidence has been highlighted

Kalit so'zlar: o'smir, ishonch, hissiyot, mehr, oqibat, diqqat, hayol, idrok, tafakkur, fikrlar mosligi, oiladagi farovonlik.

Ключевые слова: подросток, доверие, эмоции, привязанность, внимание, воображение, восприятие мышление, конгруэнтность, выделено.

Key words: Adolescent, confidence, emotion, affection, attention, imagination, perception, thinking, compatibility of thoughts, well-being in the family.

KIRISH

Mamlakatimiz barcha sohalarda ilg'or va taraqqiy etib borayotgani hech birimizga sir emas, zero O'zbekiston mustaqillikga erishgach har jabhada salmoqli ishlarni amalga oshirib, tub islohotlarni olib borgan, hususan ta'lim tizimida ham o'zgarishlar bo'lganligi va bu o'zgarishlarning barchasi yosh avlod va uning kelajagiga qaratilganligi bejiz emas. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" asarida ta'kidlaganidek. "Maktab – faqatgina ta'lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma'naviyat beshigiga farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o'rgatuvchi dargohga aylanishi zarur"

Izchil bilimlar hamda amaliy malakalarga ega bo'lgan va yangi zamonaviy muammolarni muvaffaqiyatli hal qila oladigan mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Respublikamizning rivoji, ravnaqi yoshlarga bog'liq ekan, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash kerak. O'qituvchi bilan o'smirning hamkorlikdagi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish bo'lajak mutaxassislar kasbiy tayyorgarligining asosiy omillaridan biridir. Mamlakatimizda yangi "Ta'lim to'g'risidagi qonun" loyihasining muhokama qilish jarayonida - o'z kasbining zukkolari, o'ta zehni, kuchli intellektual salohiyat egasi, o'zida mukammal dunyoqarash va boy ma'naviyatni mujassamlashtirish, ularni jahon hamjamiyatida raqobatbardoshligiga erishishni maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, o'smir va o'spirin shaxsini, kelajak avlodni o'zining sog'lom va mustaqil fikriga ega bo'lgan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash hozirgi kunda ko'ndalang qo'yilgan asosiy vazifalardan biriga aylangan. Bugungi kunda psixologlarni qiynayotgan muammolardan biri bu o'quvchilar guruhlarida shaxslararo munosabatlarni, shaxs xususiyatlarini iloji boricha to'liq va mukammal o'rganib chiqishdir.

O'smirlarda odamlarga ishonchning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Апраксина А.О. Методика музыкального воспитания в школе. – Москва: Просвещение, 1983. – 222 с.
2. Йўлдошев Ж.Ф. Малака оширишнинг назарий ва методологик асослари: (ёхуд ўқитувчи бўлиш осонми?). – Т.: «Ўқитувчи», 1998.
3. Холиқов А. Педагогик маҳорат. – Т.: «Иқтисод-Молия», 2011. – Б. 208-212.
4. Omanqulova Sh. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini modulli o'qitish texnologiyalari asosida kasbiy kompetentligini takomillashtirish. "Oriental Art and Culture" Scientific – Methodical Journal - (3) III/2020. – B. 61-65.
5. Yuldoshev U.Y. Musiqa o'qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli va professiogrammasi. Zamonaviy ta'lim / Современное образование 2019, 9(82). – Б. 47-53.

xos xususiyatlarni hisobga olgan holda zamonaviy modeli va unga mos holda profesiogramma tuzish zaruratini keltirib chiqaradi. Mazkur modelning asosini musiqa o'qituvchisi tashkil qilib, u shaxs sifatida:

- ~ yuksak ma'naviyatli va madaniyatli;
- ~ uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish uchun istiqbol rejalarni ilgari surish va hal etishga qodir;
- ~ ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil xulosa qila oladigan va undan amaliyotda to'g'ri foydalanadigan;
- ~ o'zida milliy istiqloq mafkurasi va g'oyalarini singdirgan;
- ~ jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan;
- ~ shuningdek, yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadr sifatida:
- ~ ijodiy va ijtimoiy faol;
- ~ g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy yetuk bo'lishi;
- ~ mumtoz musiqani tushunish uchun ijodiy tafakkuri bo'lishi;
- ~ o'zbek musiqa merosining sarchashmasi hisoblangan maqom asarlari haqida yetarlicha bilimga ega bo'lishi va uni amaliyotda qo'llay olish darajasini egallaganligi;
- ~ yuqori darajadagi ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy metodik, tashkiliyuslubiy jihatdan tayyorgarlik orqali yuksak kasb-hunar madaniyatiga ega bo'lishi nazarda tutildi[5:48].

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak:

- talabalar bilan birgalikda "ta'lim bo'shliqlarini" mustaqil ravishda to'ldirib o'rganish;
- talabalarning musiqiy ijrochilik va mustaqil faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish;
- o'quvchilar bilan turli tadbirlar tashkil qilish va tadbirda qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish;
- faoliyatni tashkil etishning turli shakllaridan, shu jumladan o'quvchilarni turli xil ish va faoliyatlarga jalb qilib, ularning moyilligi, o'ziga xos xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini "baholash";
- muloqot va muhokamalar rejimida darslarni olib borish, o'quvchilar muhokama qilindigan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini va musiqiy ijrochilikni ifoda etishni istagan muhitni yaratish, nafaqat bir-birlari bilan, balki o'qituvchi bilan ham o'z musiqiy ijrochiliklarni ham so'roq qilish va tanqid qilish mumkin;
- ijrochilik malakalariga ega bo'lish va ularni o'quv jarayonida qo'llash.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarni jamoaviy ijodiy, kasbiy va texnik tayyorgarligi bugungi kunda quyidagilarni ta'minlashi zarur. Birinchidan, yetarlicha yuqori darajadagi kasbiy bilim va malakalar bu bilimlar nafaqat ijro amaliyotida shuningdek, ilmiy tushuncha va qonunlarni qo'llashda imkon berishi kerak. Ikkinchidan, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish sharoitida samarli ishlay olishi uchun shaxsda individual xususiyatlar va dunyoqarashni shakllantirish zarur.

XULOSA

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash zaminida ularning bilimlarni muntazamligini tekshirish, umumlashtirishni, umumta'lim, uyg'unlik va kasbiy-pedagogik darajasida tekshirilish zarur. Bu bilim darajalari, pedagogik faoliyatda o'zaro munosabatda bo'ladilar. Musiqa madaniyati o'qituvchilarini maxsus tayyorgarlik shakllarini ishlab chiqish, nazariy darajaga ko'tarish, nazariy jihatdan ishlab chiqilgan o'qituvchilar tayyorlashni samaradorligini takomillashtirish yollari orqali amalga oshirilishi zarur.

Xulosa sifatida aytib o'tish joizki, musiqa o'qituvchisining metodik tayyorgarligiga o'z navbatida metodologik, gnoseologik, kommunikativ, konstruktiv, loyihalash va tashkilotchilik bilim, ko'nikma va malakalardan iborat bo'libgina qolmay, quyidagi yakuniy natijalarga erilishildi. O'qituvchining metodik tayyorgarligining tarkibiy qismlari sifatida metodologik, gnoseologik, kommunikativ, loyihalash va tashkiliy faoliyatga oid bilim, ko'nikma va malakalar belgilandi. Yuksak kasb-hunar madaniyatiga ega bo'lgan mutaxassis sifatida o'zida ijtimoiy va ijodiy faollik, g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy yetuklikni mujassamlashtirsa, yuqori malakali raqobatbardosh pedagog sifatida respublikaning iqtisodiy tarmoqlarida malakali kadrlar tayyorlash ishida o'zining munosib hissasini qo'sha oladi.

malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borish lozim[3:208-212].

Pedagog, olim J.G'.Yo'ldoshev o'z tadqiqotlarida respublika o'qituvchilari shaxsining kasb uchun ahamiyatli xususiyatlari sifatida kirishimlilik, hissiy barqarorlik, yetakchilik, ijtimoiy yetuklik, ishonuvchanlik, ijtimoiy jasorat, dadillik, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat qilish, qo'zg'aluvchanlik kabi jihatlarni belgilab bergan[2].

Har bir kasb o'z xususiyatiga ega. Musiqa o'qituvchisining o'ziga xos "sirlari" bor. Musiqa, san'atga bo'lgan muxabbat, o'zini bolalarga bag'ishlash, o'zining ishiga sodiqlik – bu pedagoglarning doimiy his-tuyg'ulardir. Bu kasbning murakkabligi, – deb yozadi mashhur pedagog O.A.Apraksina, musiqa madaniyati o'qituvchining ham musiqachi tushunchalariga kiruvchi elementlarni o'zaro bir-biriga jipsligining zaruriylikni aniqlash bilan ifodalansa, ularning har biri ko'p qirrali tushuncha ekanligini unutmazlik zarur[1]. Musiqa o'qituvchisi o'quv-tarbiyaviy ishlarni olib boradi, o'quvchilarning dunyoqarashlarini, fikrlashini va didni shakllantiradi. U nafaqat o'z fanini yaxshi biluvchi keng dunyoqarashli va ma'lumotli shaxs bo'libligina qolmay, balki cholg'u so'zning ustasi hamda keng ma'nosida jamoa shaxsi bo'lib qolishi zarur.

B.V.Asafyev o'z asarlarida musiqa o'qituvchisi faqat bir sohadagi "mutaxassis" bo'lmashligi kerak degan fikrlarni bildirib, u nazaryachi, musiqa tarixchisi, musiqa etnografi va har doim ham bir tomondan diqqatni jalb qilish uchun musiqa asbobini yaxshi biladigan ijrochi bo'lishi kerak deb aytib o'tgan[4:62].

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

O'sib kelayotgan yosh avlodni musiqa va ashula san'atlari yordamida tarbiyalash jarayoniga tizimli yondashish o'zining maqsadlilik va izchilligi bilan tavsiflanadi. Hozirgi zamon sharoitida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini shaxs sifatida shakllanishlari, ijtimoiy munosabatlarini rivojlanishi bilan bir jarayonda sodir bo'ladi. Shaxsni tarbiyalash jarayoni rejalashtirilgan mazmun va mohiyat evaziga amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida musiqiy ta'limning barcha institutlarini ta'lim-tarbiya funksiyalarining koordinatsiya asosida optimal boshqarishga imkoniyat beradi. Ular orasidagi maktab, oila, mehnat jamolarini o'zaro harakatlari, o'ziga xos ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik nuqtai nazardan, undagi nazariy va amaliy ta'limning o'qitilishi keng tarmoqli texnologiyalarga tayanganligidir.

Oliy ta'limda bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining jamoaviy ijodiy ishni takomillashtirish zarurati bir qator ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va pedagogik omillar bilan belgilanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining jamoaviy ijodiy ishni tashkil etishda musiqiy san'at va pedagogikaning integratsiyalashuvi bo'lgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining kelajakdagi pedagogik faoliyati tarkibiy qismlarining butun majmuasi hali to'liq aks ettirilmagan. Shu tufayli oliy ta'limda musiqa o'qituvchisi tayyorlash tizimi juda murakkab bir qator (musiqiy pedagogik, amaliy va nazariy, uslubiy, dirijor, vokal-xor, instrumental ta'lim) komponentlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, pedagogik ilm-fanning zamonaviy darajasi bo'lgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy tayyorgarlik jarayonining alohida jihatlarni o'rganish uchun integral yondashuv zarur.

Oliy ta'limda o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish davlat va jamiyatning muhim vazifasidir. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining jamoaviy ijodiy ishini takomillashtirish mazmuni va texnologiyasi asosan aniq shartlar, ta'lim mafkurasi, ustuvor ijtimoiy qadriyatlar bilan belgilanadi. Kasbiy tayyorgarlik haqida ham shunday deyish mumkin: undagi o'zgarishlar jamiyatning rivojlanishi, ta'lim tizimi rivojlanayotgan sharoitlar bilan bog'liq.

Respublikamizda tayyorlangan pedagoglarning umumlashtirilgan modelining tahlili va uning bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda yana bir qator vazifalarni qo'yilishi bejiz emas. Chunki butun dunyo ta'lim tizimida bo'lgani kabi, uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan talablar davr va zamon o'zgarishlari bilan takomillashtirilib, yangi-yangi innovatsion g'oyalar asosida rivojlantirilib, kam mehnat sarflab, ko'proq natija olish uchun harakat qilinib boriladi. Bu holat bevosita musiqa ta'limi o'qituvchisining mutaxassislik modeli xususiyatlariga ham taalluqlidir. O'qituvchilarning pedagogik faoliyatidagi asosiy masalalarni kiritish va ilmiy-pedagogik nuqtai nazaridan qayta ishlash lozimligini ko'rsatdi. Shu sababli Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida har bir fan o'qituvchisi, shu jumladan, musiqa o'qituvchisi mutaxassisligining pedagogik faoliyatidagi o'ziga

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING JAMOAVIY IJODIY, KASBIY VA TEXNIK TAYYORGARLIGINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ОСОБЕННОСТЬ КОЛЛЕКТИВНОЙ, ТВОРЧЕСКОЙ, ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ И ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ

PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF COLLECTIVE CREATIVE, PROFESSIONAL, AND TECHNICAL TRAINING OF FUTURE MUSIC TEACHERS

Muxiddinova Mohidil Asiljon qizi¹

¹Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Bo‘lajak musiqa ta‘limi o‘qituvchisining pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi uning bilim, ko‘nikma va malakalari bilan bog‘liq bo‘lib, u egallagan kasbiy kompetensiyalari orqali musiqa ta‘limi jarayonida yuzaga kelgan pedagogik muammolarini hal qilishni ta‘minlaydi. Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli va profesiogrammasi xususidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

Готовность будущего учителя музыкального образования к осуществлению педагогической деятельности связана с его знаниями, умениями и квалификацией, а через приобретенные профессиональные компетенции он обеспечивает решение педагогических задач, возникающих в процессе музыкального образования. В данной статье изложены мнения о современной модели и профиограмме специальности будущего учителя музыки.

Abstract

The readiness of the future music education teacher to carry out pedagogical activities is related to his knowledge, skills and qualifications, and through the acquired professional competencies, he ensures the solution of pedagogical problems that arise in the process of music education. This article describes the opinions on the modern model and professionogram of the future music teacher specialty.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, musiqa madaniyati, musiqa san‘ati, badiiy vositalar, ijodkorlik, musiqa o‘qituvchisi, pedagogik faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy-pedagogik daraja, metodik tayyorgarlik, ma‘naviy-axloqiy yetuklik.

Ключевые слова: педагогическая технология, музыкальная культура, музыкальное искусство, художественные средства, творчество, учитель музыки, педагогическая деятельность, профессиональная подготовка, профессионально-педагогический уровень, методическая подготовка, духовно-нравственная зрелость.

Key words: pedagogical technology, music culture, musical art, artistic tools, creativity, music teacher, pedagogical activity, professional training, professional-pedagogical level, methodical training, spiritual and moral maturity.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta‘lim tizimi ham rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarildi. Ta‘lim tizimida olib borilayotgan keng islohotlar o‘qituvchi shaxsini o‘z ustida ishlashi, yangilik va innovatsiyalarga bo‘lgan talabni bir qadar oshirdi. Har bir o‘qituvchining shaxsiy, tabiiy va individual xususiyatlari bo‘lib, hozirgi zamon o‘qituvchisi mutaxassisligi modelini loyihalashtirish lozim. O‘qituvchi mutaxassisligi modelini umumiy va yagona holda tuzish, eng muhimi uning o‘z xususiyatlarini rivojlantirishi, o‘ziga xosligini saqlab qolishi, o‘z qiziqishlariga muvofiq holda ilgoriga intilishiga imkon berilishi zarur. Mazkur masalada ko‘p yillardan buyon ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Biroq, mutaxassis modelini yaratish va uni amalda qo‘llash bo‘yicha olib borilgan ishlar hali yetarli emas, deb hisoblaymiz. Chunki, davr, zamon, taraqqiyot o‘zgarishi bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli va profesiogrammasiga qo‘yiladigan talablarni o‘zgartirishni va takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Barcha kasblar orasida o‘qituvchilik kasbi o‘zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi yosh avlod qalbi – kamolotining me‘mori, yoshlarga ta‘lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g‘oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rgatadi. Doimo o‘qituvchilarning kasbiy mahorati, ko‘nikma va

ILMIY AXBOROT

4. Sbornik Turkestanakaya vostochnogo instituta, Tashkent, 1923.
5. Karimov S. Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixidan. –T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2016.
6. Qodirov Pirmqul. Til va el. –T.: “Ma’naviyat”, 2010.
7. Ibrohim Haqqul. Ijod iqlimi. –T.: “Fan”, 2009.
8. Hoshimxonov M va boshq. Nur Sharqdandir. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2003.
9. Ibrohim Xaqqul. Tasavvuf va she’riyat. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi. 1991.
10. Mallayev N. M. O‘zbek adabiyoti tarixi. T.: “O‘qituvchi”, 1965.
11. Golpunarli, Abdalbaki, Tasavvuftan dilimize gecen deyimler ve ata so‘zleri.
12. Adham Jabajio‘g‘li. Ahmad Yassaviy va tasavvufiy qarashlari. To‘plam. Xoja Ahmad Yassaviy hayoti, ijodi va an‘analari. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Ibrohim Haqqul va boshq. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. –T., 2001.
13. Usmon Turar. Yassaviyning turk – islom tarixidagi o‘rni va mutasavvifligi. To‘plam. Xoja Ahmad Yassaviy hayoti, ijodi va an‘analari. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Ibrohim Haqqul va boshq. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. –T., 2001.

Zoti ulug' xojam sig'nib keldim senga.

Shayximiz Parvardigoridan hojat so'rar ekan, haqiqiy so'fiy o'laroq Allohdan boshqasiga ehtiyoj sezmaydi. Fikrimizcha, uning tilagi Haqning xushnudligini qozonmoq edi. U komil inson bo'lishiga qaramay, o'zini hali ham nafsi tarbiyalanmagan, xato qiluvchi va qusurli deb bilib, tavba qilmoqda[16].

Yassaviyning murshidlari Arslonbob va Yusuf Hamadoniylarning ma'naviy fayzlaridan bahramand bo'lib, ulardan zohiriy va botiniy ilmlar o'rganishi natijasida, o'zi voyaga yetgan, O'g'uz davlatining poytaxti bo'lgan Yassida mustaqil tariqat qurib, sodda va ravon tilda tasavvufiy rang bilan jilolangan islom e'tiqodi, axloqi va madaniyatini targ'ib qilib, turkiy jamiyat nazdida uni bir joziba markazi holiga keltiradi, oqibatda turkiylar orasida islomiyat tezda tarqalib, keng ildiz otadi. Diniy – tasavvufiy haqiqatlarni avom xalq tushunadigan sodda tilda, hikmatlar tarzida ifodalagan Yassaviyning dargohida turli diyorlardan kelgan ko'plab talabalar ta'lim – tarbiya olgan. Kamolga yetgandan keyin bu muridlar turkiy olamning to'rt tarafiga tarqalib, din va tasavvuf asoslarini yoydilar. Yassaviy boshlab bergan bu musulmonlashtirish faoliyati O'rta Osiyo, Kavkaz, Onado'li va Bolqon yarim oroliga qadar keng hududni qamrab oladi. Bugunga qadar mazkur o'lkalarda islomning saqlanib qolishiga eng katta hissa qo'shgan so'fiylar, ayniqsa, yassaviylik maktabi vakillaridir. Bu esa yassaviylikning turk – islom tarixidagi o'rni va ahamiyatining nechog'li nufuzga ega ekanligini ko'rsatadi[17].

Yassaviy "Hikmatlar"i bir – biridin pur'ma'no va teran mazmunga ega. Unda ilohiy ishq-yaratganga bo'lgan muhabbat ustuvor. Jamiyatning notengligidan ko'ngli ozor chekkan shoir "Ishqsizlarning ham joni yo'q, ham imoni" deb, o'sha vaqtdagi davlat, raiyat tepasida turganlar, xalqni o'ylovchi kishilar emas, balki odamlarga hurmatsiz va e'tiqodsiz, hissiz va shafqatsiz kimsalar deb biladi. Agarda ular Xudoni o'ylasalar, Yaratganga e'tiqodi bo'lsa, yurt ustida na urush va na mojarbo bo'ladi, xalq osoyishta va farovon yashaydi, deb fikr yuritadi Yassaviy.

"Haq yo'liga kirib bo'lmas pok bo'lmasang" deb hisoblagan shoir odamlarni Haqdan qo'rqish va unga sig'inishga chaqiradi, podsho ham, gado ham Allohning amriga quloq solishini va undan saboq olishini maslahat beradi, dardli va xoksor kishini Alloh suyadi, deb o'git berarkan, bunday kishilar parvardigorining suygan qullaridir, orif kishilar haqiqatgo'y va ilimli bo'ladilar, deb biladi. Uning nazdida orif kishi dunyoda har bir narsani to'g'ri idrok etadi, mavhumlikdan qochadi, tangri borligiga imon keltirib umr o'tkazadi va Haq nomidan so'zlaydi, unki uning quroli – Allohning Qur'oni.

Haq deyajak nafasi Haqdin kelur,
So'ylayajak so'zlari Qur'on bo'lur.

Ahmad Yassaviy she'riyati falsafaga boy. Uning she'riy asarlari ohangi arab va fors she'riyati yo'nalishiga hamohang. She'riyatidagi qofiyalar yo'li esa turkiy xalqlar diniy qo'shiqlaridan ilhom olib yozilganligi ma'lum. Uning she'riyati yuqori darajadagi donishmandlik ruhi bilan yo'g'rilgandir.

XULOSA

Ushbu ilmiy maqola haqida xulosa qilinganda, mutafakkirning tasavvufiy – irfoniy qarashlari uning "Hikmatlar" va "Faqrnoma" asarlarida bayon etilgan bo'lib, u asos olgan ta'limotda irfonga yetishish, ma'rifatli bo'lish, haqiqatni anglash va Allohga oshiqlik yo'li ekanligi tahlil etilgan.

Irfon – anglash, tushunish, bilishdir. Haqni bilgan kishi, uning (Alloh) diydoriga vosil bo'lishdir;

Xoja Ahmad Yassaviyning turk – islom tarixidagi g'oyaviy qarashlarining eng asosiy xususiyatlari buyuk so'fiy, zabardast pir va yassaviyadek tariqatning asoschisi bo'lganligidadir. Shuning uchun "Piri Turkiston", "Hazrati Turkiston" kabi nisbalar, ulug' shayxulmashoyixning, oriflar sultonining shuhrat topishi, turkiylarni bu dinga kirishlariga, islom dunyosi xalqlarini shariat, tariqat, ma'rifatga chorlashi, umuminsoniy oliy ma'naviyat ruhida tarbiyalab kelishlari bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Orif Usmon. "Vahdat sharbatini ichtim". Muallif – tuzuvchi Z. Jo'rayev. To'plam. G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. T.: "O'zbekiston"
2. Rustamov Ergash. Yassaviy hikmatlarida tarix va hayot sadosi. To'plam. Xoja Ahmad Yassaviy hayoti, ijodi va an'analari. To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Ibrohim Haqqul va boshq. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. –T., 2001.
3. Mo'minov. I.M. Tanlangan asarlar. –T.: "Fan". 1969.

Yassaviy hikmatlarining axloqiy, falsafiy, ilohiy ildizlari to'g'ridan – to'g'ri “Qur'on” g'oyalari va Muhammad payg'ambar hadislariga borib bog'lanadi. Ahmad Yassaviy uchun “O'n sakkiz ming elni “g'arib birla yetimg'a” muruvatga chorlashi, “yo'ldan ozg'on gumroh”larga to'g'ri yo'l ko'rsatishi, “rost yurigan qulini” g'oyatda e'zozlashicha, “yolg'onchilar qavmini ummat”ga qo'shmasligi va Allohdan o'zgaga tobe bo'lmaslikka da'vat etishi bilan olamshumul qimmatga ega edi. Agar biz masalaning bu jihatini tushunmasak- Yassaviy ijodiyotini ham xolis tushuna olmaymiz. Qadimiy turkiy adabiy yodgorliklaridan birida o'qiyimiz: “Bilingkim, payg'ambar alayhissalom uch karra aydikim, “Din nasihatdur”. Ayturlar, “YO rasululloh, nasihat ne narsadur?” Aytdi: “Musulmonlarg'a dinu imon yo'lini o'rgatmoqlikdur, Tengrini bilmakdur...”[11].

Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham hokim ruh – nasihat ruhi. Lekin shoirning deyarli barcha pandu – nasihat so'zlari bitta maqsadga qaratilgan. Bu – mutlaq haqiqatni bilish, haqni sevish – chunki “Haqni suygan oshiqqlar” yo'ldan ozib, nafsu dunyo uchun imonsotarlik qilmaydilar.

To'g'ri yurgan oshiqqlardin Xudo rozi,

Oshiq ishi oson emas qilma bozi,

Yolg'onchilar oshiq men der, Alloh qozi,

Imonini puchak pulga sotar emish,- deydi shoir[12].

Akademik A. Ye.Krimskiy turkiy xalqlarning so'fiylik g'oyalari e'tibori to'g'risida fikr yuritib, Ahmad Yassaviy ijodiyotini shu qiziqishning ehtiyojij mahsuli sifatida baholagan. Yassaviy turkiy adabiyotdagi dastlabki so'fiy ijodkorlaridan. Uning mushohada va haqiqat yo'llari so'fiylik tamoyiliga ega. Lekin bu yo'nalishni o'zi kashf qilgani yo'q. Arab va forslardagi tasavvuf adabiyoti tajribalariga tayangan. Turkiy xalqlar og'zaki ijodiyotida yaratilgan diniy qo'shiqlardan ilhomlangan. Yassaviy hikmatlarining vazni xalq she'riyatidan o'zlashtirib, poyetik obrazlarining ko'pchiligi og'zaki adabiyotdan olingan. Biroq Yassaviy ijodiyotini mistitsizm tarixi, tasavvuf falsafasi, eng asosiysi, sharq tasavvuf she'riyatining poyetik obrazlar sistemasi bilan qiziqmasdan to'g'ri anglash ham, xolis baholash ham mumkinmas. Shu yo'nalishda o'zbek ilmida qanday natijalarga erishildi? Asosan Yassaviy “o'ta reaksion shoir” deb qoralanib keldi. To'g'ri, Yassaviy hikmatlaridagi g'oyalarning “reaksion” emasligini tasdiqlashga bag'ishlangan ayrim maqolalar ham chiqdi. Bumarhum olim Ergash Rustamovning “Ahmad Yassaviy” (“Toshkent oqshomi” gaz. 1973-yil, 15-yanvar soni) nomli maqolasi edi[13].

Professor N. Mallayev yozadi: “Ahmad Yassaviy mazlumlarga qarata: “Zolim agar jafo qilsa Ollo degil”... – der ekan u bu bilan mazlumlarni zolimlarga qarshi bosh ko'tarmasdan Xudoga... sig'inishga, har qanday kurashdan voz kechishga chaqiradi”. To'g'ri, Yassaviy Xudoga sig'inishga chaqirgan. Tabiiy savol tug'iladi: o'tmishda yashab ijod etgan sharqning qaysi ulug' shoiri Xudoga sig'inmaslikka chaqirgan? Hofiz yo Sa'diymi? Navoiy yoki Boburmi? Yassaviy she'rida zolimga qarshi bosh ko'tarma deyilmagan. Balki zolimni yengishga da'vat qilingan. “Haqdin eshitib bu so'zlarni aydim mano”, - deydi u. Bu yuzaki e'tirofmas. “Haqdin eshitib” degani “Qur'on”ga ishora. Demak, hikmatdagi g'oyani u “Qur'on”dan o'zlashtirgan. Afsuslanarlisi shundaki, “bo'yin sung'il” iborasi yaratganga emas, zolimga “bo'yin eg” ma'nosida anglagan va izohlangan. Holbuki, birinchi ikki satrdagi mantiq bunday: “Zolim agar jafo qilsa, Ollo degil. Munojotlar aylab undan madad va quvvat tila. Yolg'iz haqqa bo'yningni ham qill!”. Baytdagi fikr ana shunday tushunilishi va sharhlanishi kerak[14].

Ilohiy ishq dardida jo'shib, o'zini yoqavayron etgan Yassaviy, Mansur Halloj kabi muztarib holda jonini fido qilishga ham tayyor bir erdir. Ilohiy ishq o'tida yongan kishi har qanday qiyinchiligu dardlarga chiday oladigan holga keladi. Oshiq hayotida tikanlar yo'q, balki gul –lolalar, go'zalliklar, xayr – ezguliklar va kamollar bor. Oshiq ehson miqyosida o'lmasdan burun jannatdagi qalbiy huzur va taskin – qoniqishga erishadi. YA'ni, u “o'lmasdan burun o'ladi” va ruhiy dunyodagi jannatning ma'naviy mevalaridan oziqlanadi.

Ma'lumki, tasavvufda Mansur Halloj ilohiy ishq timsoli sifatida tasvirlanadi. Qudsiy ishq yo'lida jon bergan “ishq dori” Mansur” o'laroq bora so'fiylar uchun jonlaridan kechishning ramziy ko'rinishidir[15].

Qirq besh yoshida:

Qirq beshimda sendin hojat tilab keldim,

Tavba qildim har ish qildim xato qildim,

Yo ilohim raxmatingni ulug' bildim,

Yassaviyning hayoti, tasavvufiy va adabiy merosini o'rganish o'ziga xos jarayondirki, uning ildizlari olis davrlarga borib tutashadi. XX asrga kelib, yassaviyshunoslikda keskin o'zgarish, ziddiyatli bir evrilish hosil bo'ldi. Chunonchi, Yassaviyning olqishlash bilan birga tahqirlash ham boshlanib, bu hodisa sho'ro davlati barham topguniga qadar davom etdi. Mana o'shanday bir sharoitda qardosh Turkiya diyori buyuk bobomiz Ahmad Yassaviyning qutlug' nomi, sharafi va merosini muhofaza etishning daxlsiz qo'rg'oni bo'lgan. Bu ham tasodifiy hol emas. Zero, turk tadqiqotchilari takror – takror e'tirof etganlaridek, Onado'lida islomning mustahkam qaror topishi, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotning o'nglanishida Xoja Ahmad Yassaviy mafkurasi hamda yassaviya darveshlari faollik ko'rsatishgan. Muhammad Sarhon Tarshiy, Mekoil Bayram, Ahmad Yashar O'choq, Mustafo Qara, Usmon Turar, Xasan Komil Yilmaz kabi olimlarning maqolalaridagi faktlar bunga dalildir. Jumladan, Mustafo Qara Ahmad Yassaviy ta'limoti usmonli davlatining ma'naviy poydevori bo'lganligini qayd etsa, Hasan Komil Yilmaz Avliyo Chalabiyning "Sayohatnoma" sig'a asoslanib, yassaviya izdoshlarining kasb – hunarga qo'shgan hissalaridan bahs yuritgan[6].

Sobiq sho'ro davlati qaramligida yashagan qardosh mamlakatlar mustaqillikni qo'lga kiritgach, Ahmad Yassaviy shaxsiyati va ijodiga qiziqish o'z – o'zidan kuchaydi. Natijada, O'zbekistonda 1993-yil "Ahmad Yassaviy yili" deb e'lon qilindi[7].

Ahmad Yassaviyning qudratli shaxsiyati va faoliyatini tahqirlash, qoralashga urinish yolg'iz sovet zamonining tashabbusi emas. Buning tarixi ancha uzoq. So'fi Olloyor "Sabot ul ojizin" manzumasida "Oti mo'min vale nafsiga shaydo" "bir firqa" paydo bo'lganligi, ular Yassaviyning zikr majlislarida erkaklar bilan ayollar ham ishtirok qilishlarini dastak etib, nomaqbul ishlarga tashabbus ko'rsatganlarini aytib, yana yozadi:

Xudoning do'sti bo'lsa Xoja Ahmad,
Qilurmi hech muningdek bid'ati bad.
Shariatda edi ul oftobe,
Qolubdur bizga ul erdin kitobe...

U yoki bu ma'noda Yassaviyga, xususan, yassaviylik tariqatida ayollarning o'rniga e'tiroz qiluvchilar hatto hozir ham mavjud. Kamol Eraslon o'sha tarixiy anglashilmovchiliklar qayta bosh ko'tarmasligini ko'zlab, Yusuf Bayzoviy tilidan hikoya qilingan hikmatlarni yigirma beshinchi raqam ostida majmuaga kiritgan[8].

Buyuk mutafakkirning dunyoqarashi uning "Hikmatlar" asarida bayon qilingan. "Hikmatlar" turkiy adabiyotning nodir yodgorliklaridan bo'lib, Yassaviy unda islom dini, islom falsafasi, tasavvufi bilan emas, balki o'sha davr ijtimoiy tartiblari, chorvadorlar, hunarmandlarning hayoti va ruhiyatini chuqur bilib, uni "Hikmatlar"ida tahlil etib berganligining guvohi bo'lamiz.

Tasavvuf maslagining namoyandalarining Ibrohim Adham, Boyazid Bistomiy va Mansur Halloj so'fiy sifatida o'zlarini Haq oldida, Alloh vasliga yetishgan deb hisoblaganliklari uchun hukmron sinf fatvosi bilan oliy jazoga mustahiq etilgan edilar. Yassaviy ham o'zini Alloh bilan birga biladi va "Anal-Haq" – "Men - Haqman" deb hisoblaydi, o'zini "Men -Haqman" degani uchun dorga osilgan va e'tiqodidan qaytmagan Mansur Halloj darajasiga yetishgan deb biladi[9].

Ayo do'stlar, pok ishqini qo'lga oldim,
Bu dunyoni dushman tutib yurdim mano.
Yaqom tutib dargohiga sig'inib keldim,
Ishq bobida Mansur bo'ldim mano...
Ey mo'minlar man ham Mansur bo'ldim mano...

Yassaviy dunyoqarashi bo'yicha, bu dunyo rohatini qidiradigan so'fiy - so'fiy emas, toat – ibodat qilib, halollik va poklikni targ'ib etib, dunyoning g'am – g'ussasini chekib, xalq tashvishi bilan o'tkazgan zotgina haqiqiy so'fiydir.

Shubhasiz, Yassaviy ta'limoti xalq orasida dinning ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan bo'lsa – da, uning tariqatiga mansub bo'lgan mutasavviflar xalq ommasini o'z tomoniga og'dirib olish maqsadida zolim va poraxo'rlarni, amaldor va shayxlarni tanqid qilar edi. Markaziy Osiyodagi darveshlar harakatining rivojlanishi Ahmad Yassaviy nomi bilan bog'liqdir. Tarixiy kitoblarda buzib talqin etilgan yassaviychilik aslida Chingizxon va uning bosqiniga qarshi safarbar qilishda ijobiy rol o'ynagan[10].

kambag'allikni shamchirog', quyosh deb ataydi. Ahmad Yassaviyning nuqtai nazaricha, "... dunyoning noz – ne'matlarini iltijo qilgan so'fiy so'fiy emas, baxtsizlik va g'urbatni toat – ibodat hamda yig'i bilan o'tkazgan kishi so'fiydir"[4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ahmad Yassaviyning tasavvuf falsafasida insonning o'zligini bilib olishini barcha masalalardan ustun qo'yadi. Chunki Yassaviy nazarida insonning o'zini bilishi bu haqni bilishidir. Haqni bilish esa, undan qo'rqish va insofga kelishdir. Haqni bilish Yassaviy uchun kamtarlikdan, sabr – qanoatlilikdan, hokisorlikka qul bo'lishdan, ba'zan tuproq bo'lishdan boshlanadi. Xuddi shu sifatlar bilan inson o'z qalbini Iloh nuri bilan to'ldirishi, xorlikni pesh qilmasdan o'z nafsini o'ldirish sabab bo'la oladi. Bu esa mutafakkirning diniy e'tiqodlar orqali insonni ezgulik va ezgu xulq egasi bo'lishga, muruvvatli va toza qalbli bo'lishga chaqirayotganligi sezilib turadi[5].

Yassaviy ijtimoiy qarashlarini o'rganar ekanmiz, uning ijtimoiy – falsafiy ruhiyatida dunyodan butunlay yuz o'girish g'oyasi yo'q. Balki unda insonga zid bo'lgan sifatlarni, ya'ni nodonlik, badnafslilik, molu dunyoga hirs qo'yish illatlarini shakllantiradigan ijtimoiy omillarni tanqid qiladi.

Ahmad Yassaviy ta'limotida fano tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Fano Yassaviy nazarida Xudoga yetishishning eng yuqori bosqichi va bu bosqichda inson o'zining kimligini unutadi va Alloh visoliga yetishni bosh maqsad qilib qo'yadi. Xuddi shu narsa Yassaviy qarashlarining muhim tomonini tashkil qiladi. Yassaviy ta'limotidagi fano tushunchasining ijtimoiy mohiyati shundaki, u insonni nodonlik va g'afatdan, jaholat va zulmdan ozod etadi, manmanlikdan poklanishga chaqiradi va iymonsiz bo'lishidan xalos etadi, gumrohlik kibru havoga qul bo'lishga chek qo'yadi, tubanlikni o'ldiradi.

Ijtimoiy va ahloqiy bir qahramon sifatida maydonga chiqqan Ahmad Yassaviy nazarida ijtimoiy jarayonning har bir hodisasiga to'g'ri yondashish uchun inson avvalo, nopoklikdan xalos bo'lishi va u asliy hamda ruhiy poklangan bo'lishi kerak. Bu mezonlar Yassaviy ijtimoiy qarashlarining negizini tashkil qiladi. Bu poklanish oshiqlik, ishq hol, oriflik tushunchalari bilan amalga oshadi[6].

Avvalo, Yassaviy hikmatlaridek ulkan ma'naviy boylikni bizgacha yetkazib kelgan darveshlardan minnatdor bo'lish kerak. So'ngra, Yassaviy o'z hikmatlarini bu darveshlarning ona tillarida yaratganligi uchun ham, ularni yodlash va avloddan avlodga yetkazib berish imkoniyati ko'proq bo'lganini hisobga olish lozim.

Ahmad Yassaviy mol – dunyoga hirs qo'ygan, mudom amal talashib xalqni qirg'in - urushlar girdobiga tashlagan podsho va beklarga nafrat bildirib yozadi:

Dunyo mening deganlar,
Jahon molin olganlar,
Mullo, mufti bo'lganlar,
Oqni qora qilganlar,
Harom yegan hokimlar,
Totliq – totliq yeganlar,
Turluk – turluk kiyganlar,
Oltin taxtga chiqqanlar,
Yer ostig'a kirmishlar.

Kekkeygan barcha hukmdorlar axiyri qabrga kirib tuproq bo'lishlarini aytish bilan shoir odamlarni nafsga, o'tkinchi manfaatlarga bunchalik berilmaslikka, insofli va adolatli bo'lishga, Allohni va oxiratni unutmaslikka chorlaydi.

Buyuk vatanparvar Ahmad Yassaviy XII asrdayoq ona tilining himoyachisi va targ'ibotchisi bo'lib maydonga chiqqan.

Ahmad Yassaviy hikmatlari va uning adabiy maktabi Turon va Xurosondan tashqari, sharqda Mo'g'ulistonu, shimoli – g'arbda Volga bo'ylaridagi Oltin O'rdagacha, Qora dengiz va O'rta Yer dengizi bo'ylaridagi Turkiyagacha ulkan hududlarda ijod qilgan turkiyzabon shoirlarni bir adabiy til atrofiga jipslashtiradi[5].

Ahmad Yassaviy ijodiyotini xalqdan ajratishga qanchalik urinilmasin, ulug' mutafakkirning muborak nomi va she'rlari elimizning ko'nglida va xotirasida yashab keldi. Shuning uchun qayta qurish davri boshlanishidanoq amalga oshirilgan ishlardan biri "Devoni hikmat"ni nashrga tayyorlab, keng o'quvchilar ommasiga yetkazish bo'lgandi.

XOJA AHMAD YASSAVIYNING IRFONIIY – FALSAFIY QARASHLARI

МИСТИКО-ФИЛОСОФСКИЕ МЫСЛИ ХОДЖИ АХМАДА ЯСАВИ

MYSTICAL - PHILOSOPHICAL VIEWS OF KHOJA AHMAD YASSAVI

Xoshimxonov Xondamir Muminovich¹

¹Sambhram universiteti NTM xodimlar bo'limi boshlig'i, erkin tadqiqotchi

Аннотация

Ushbu maqolada shoir va mutafakkir, so'fiy donishmand Xoja Ahmad Yassaviyning irfoniiy-falsafiy qarashlari falsafa tarixi negizlari nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье мистико-философские взгляды поэта и мыслителя, суфийского мудреца Ходжи Ахмада Яссави анализируются с позиции истории-философской основы.

Abstract

In this article, the mystical-philosophical views of the poet and thinker, Sufi sage Khoja Ahmed Yassavi are analyzed from the perspective of the foundations of the history of philosophy.

Kalit so'zlar: *mutafakkir, mutasavvif, donishmand, orif, shayx, hadis, ma'rifatparvar, masjid, payg'ambar, Buxoro, Turkiston, Yassi, dehqon, chorvador, kosib, hunarmand, Haq, islom, fano, baqo.*

Ключевые слова: *мыслитель, мистик, мудрец, учёный, шейх, хадис, просветитель, мечеть, пророк, Бухара, Туркестан, Яси, земледелец, пастух, ремесленник, Хак, Ислам, смерть, вечность.*

Key words: *wise man, mystic, sage, scholar, sheikh, hadith, enlightener, mosque, prophet, Bukhara, Turkestan, Yassi, farmer, herdsman, farmer, craftsman, Right, Islam, death, forever.*

KIRISH

Ergash Rustamovning ma'lumotiga ko'ra, Xoja Ahmad Yassaviyning masjidi peshtoqiga o'z davrida payg'ambar alayhissalomning "Talabul ilmi farizatun ala kulli muslimin va muslimatin", ya'ni ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayol uchun farz, degan hadisi bitib qo'yilgan ekan. Bu esa Xoja Ahmad Yassaviy o'z zamonasidagi eng ulkan ma'rifatparvar, mutafakkir va mutasavvif donishmandlardan biri bo'lganligi borasida hech kimda hech qanday shak – shubha qoldirmaydi. Va eng muhimi, bu narsa Xoja Ahmad Yassaviyning shu paytgacha "tarki dunyochi", "ijtimoiy" deb kelingan fikrlarning puch va beasos va g'ayriilmiy ekanligini ham isbotlaydi[1].

O'rta asrlarda Sharq va G'arbda istilochilikka qarshi kurash yoki uning aksi – bosqinchilik siyosatini oqlash, muqaddas dinni himoya qilish bayrog'i ostida olib borilgan. Bu vaqtda G'arbda iqtisodiy va ma'naviy boylikni qo'lga kiritish, uni talon – taroj etish uchun salb yurishlari e'lon qilindi. Yuqoridagi misralarni o'qir ekanmiz, Ahmad Yassaviyni boshqa dindagi xalqlar dushmani deb o'ylash to'g'ri kelmaydi:

Sunnat ermish, kofir bo'lsa, berma ozor,

Ko'ngli qottig' dilozordin Xudo bezor.

U g'ayridinlarga emas, balki g'ayridin niqobidagi istilochilarga qarshidir[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ahmad Yassaviy XII asrda yashagan. u ham Yusuf Hamadoniya o'qigan, lekin o'z maktabini ochgandan keyin, O'rta Osiyoda so'fiylikning o'taketgan mistik oqimini vujudga keltirdi. Ahmad Yassaviy maktabining dunyoqarashi "Hikmat" mashhur asarda she'riy shaklda bayon etilgan. Bu falsafiy asar ravon, kitobxon uchun oson bo'lgan o'zbek tilida yozilgan. "Hikmat" o'zbek adabiyotining qimmatbaho yodgorligidir va uning muallif islom dinini, islom falsafasini, so'fiylikni, dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlarning turmush va hayotini va umuman o'sha davrning ijtimoiy tartiblarini yaxshi bilgan mashhur kishi bo'lganidan guvohlik beradi. Yassaviyning saviyasi keng va chuqur bo'lganligi uchun u o'zbek tilida birinchi marta ana shu yirik haqqoniy asarini yoza oldi[3].

Ahmad Yassaviy Movarounnahrda mistitsizmning ko'zga ko'ringan namoyandasi sifatida "Hikmat" asarida so'fiylik asoslarini to'la ravishda bayon qilib beradi. U shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatning o'n rivoyati haqida yozadi, so'fiylikning prinsiplarini bayon qiladi, so'fiylarning o'n xil afzalliklari haqida, qashshoqlik va kambag'allikning yo'llari hamda sifatleri to'g'risida gapiradi,

1. Pyesa ustida ishlash.
2. Qo'g'irchoq eskizlari va dekoratsiya xususida qo'g'irchoq ustasi bilan ishlash.
3. Aktyorlar bilan bir stol atrofida va shirmada ishlash.
4. Spektakl montaji (musiqa va chiroq bilan ishlash jarayoni)[6].

Dastlab rejissor vazifa qo'yadi, uni butun ijodiy jamoa hal qiladi, har bir pyesaning umumiy konsepsiyasidagi ana shunday uyushgan holda ish olib borish spektakl muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Qo'g'irchoq teatrlari repertuarini shakllantirishda teatrlarning badiiy kengashlari faoliyatlari muhim ahamiyatga ega. Tanlangan asarlar rejissor va adabiy hamkor tomonidan badiiy kengash muhokamasiga qo'yilib, shundan so'ng "O'zbekteatr" birlashmasi qoshidagi badiiy kengashda ko'rib chiqilgach, sahnalashtirilishiga tavsiya etiladi. Bunday jarayonni o'tash va yosh tomoshabinga badiiy jihatdan puxta, g'oyaviy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan spektakllar yetkazilib berishga imkon yaratadi. Teatr jamoalari keyingi vaqtlarda ba'zi iqtisodiy qiyinchiliklarni ro'kach qilib, tayyor tarjima asarlarini yoki avval sahnalashtirilgan asarlarini qayta-qayta sahnaga olib chiqishga urinmoqda, bolalar hayotini, o'y-fikrlari, orzu-istaklari, oilaviy munosabatlari, maktab hayoti kabi aks ettirgan zamonaviy mavzulardagi spektakllarga e'tibor susaygan. Holbuki, bugungi kunda milliy dramaturgiya sohasida o'ttizdan oshiq taniqli va yosh ijodkorlar qalam tebratmoqda. Ular orasida qo'g'irchoq teatrlari uchun asar yozadiganlari ham ko'p. O'zbekiston xalq shoiri Po'lat Mo'min, taniqli olimlar Muhsin Xalil, Toir Islom, iste'dodli hajvchi shoir Anvar Obidjon, Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Po'lat Aytmurotov kabi dramaturglar bilan hamkorligi yetarli deb bo'lmaydi. Zeroki, yaqin hamkorlik tufayligina to'laqonli asarlar yaratilganligi ko'pchilikka ayon. Ayniqsa, dramaturgiya sohasiga kirib kelayotgan ijodkorni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish lozim.

"Milliy qo'g'irchoq dramaturgiyasi o'zining barcha tematik yo'nalishlarida folklor va mumtoz she'riyatga yondashadi"[7].

Xuddi shuningdek, bugungi kunda teatr ham milliy o'ziga xoslikni sahnada ifodalashda an'anaviy vositalarga tayanmoqda. Qo'g'irchoq teatrida doimo hayotimiz, bizni o'rab turgan olam, atrofimizdagi yaxshilik va yomonliklar ro'yi-rost va mo'jizaviy ohangda ifodalanishi lozim. Chunki bolalarni aldab bo'lmaydi. Ularga hayot haqiqatini o'rgatib borish lozim. "Qo'g'irchoq teatri, ulug', sehrli, maishiy bo'lib boshlanganligidan qat'iy nazar, hayotdan unib chiqqan hamda doimo, barcha tarixiy davrlarda u bilan juda ham uzviy bog'liq bo'lgan"[8].

Teatrning ijodiy faoliyati shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda ham u hayotdan ajralmagan holda rivojlanishda, shakllanishda davom etmoqda[9].

Qo'g'irchoq teatri aktyorini tarbiyalash aslida juda murakkab hisoblanadi. Aktyorni tarbiyalashda quyidagi yo'nalish bo'yicha ishlar olib boriladi:

1. Aktyorning ijod jarayonidagi o'z ustida ishlashi (jonli plan).
2. Zamonaviy qo'g'irchoq turlarini o'zlashtirishi.
3. Aktyor ijodi jarayonidagi obraz ustida ishlash va uning uslublari
4. Aktyorning qo'g'irchoq obraz talqini ustidagi ishi (qo'g'irchoq personajining plastik yechimlari)[10].

XULOSA

Qo'g'irchoq bilan birinchi uchrashuv aktyor uchun juda muhimligi, agar shu vaqtda aktyor qo'g'irchoq ustasi yasagan qo'g'irchoqni qabul qilmasa noaniqlik yuz beradi, ular yonma-yon bo'lsalar ham bir-birlari bilan kelishmaydilar biroq bir-birlariga halaqit beradilar. Unda qo'g'irchoq teatr san'ati o'zgacha shukuh bermaydi, jonlanmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Talqin, 2006y.
2. Qodirov M. Qo'g'irchoq san'ati // O'zbekiston san'ati. – Toshkent: 2001y.
3. Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Talqin, 2006y.
4. И.Сперенский. Актёр театр кукол.- Москва: 1965г.
5. Hayitboyev Sh. Qo'g'irchoq teatri rejissurasi. – Toshkent: 2007y.
6. Kadirov M. Teatr kukol – teatr misli // Zvezda Vostoka jurnal. 1976g.
7. Смирнова Н. И. Искусство играющих кукол. – Москва: Искусство, 1983г.
8. Ismoilov A. Respublika qo'g'irchoq teatri rejissorlik izlanishlari // Teatr jurnal. -Toshkent: 2015y.
9. Ashurova M. Qo'g'irchoq teatr san'atining aktyorlik maktabi. Darslik. – Toshkent: 2007y.

nafaqat qo'g'irchoqlar, balki sahna yuzasi, to'sqich va pardalar tuzilishi, sahna bezaklari singari spektaklning tasviriy tomonlari qayta ishlandi va takomillashtirildi. Tomoshabop tasviriy jihati bo'lmasa, qo'g'irchoq teatrining o'zi ham bo'lmaydi. Bu o'rinda rejissor va rassom hamkorligi boshqa teatrlarga qaraganda muhimdir. Musiqa, raqs, pantomima kabi san'at turlari qo'g'irchoq dunyosiga tobora chuqurroq kirib kelmoqda. Qo'g'irchoq teatrini qo'g'irchoqbop niqob taqib olgan aktyorlar bilan uyg'un ravishda namoyon etish tobora ommalashib, teatrning sahnaviy lisoni xilmaxil va ko'pqirrali bo'lib boryapti. Bugungi kunda qo'g'irchoq teatri ilgari imkoniyat bo'lmagan mavzu va g'oyalarni ko'tarib chiqyapti. Bolalar uchun repertuarda dramaturglar ko'proq urush va tinchlik, ezgulik va yovuzlik, tabiat ekologiyasi va inson qalbini asrash singari global mavzularga murojaat qilyapti. Bularning barchasi nafaqat aktyor, rejissorlar, balki ssenariychi, libos rassomi, qo'g'irchoq ustalari oldiga murakkab ijodiy vazifalar qo'ymoqda. Qo'g'irchoq teatrlari har qanday davlatda turli hamda o'zigacha tarzda rivojlangan. Shunday bo'lsada, qo'g'irchoq teatrining to'rt turini ajratib olish mumkin:

1. Qo'lga kiyib o'ynaladigan;
2. Ipli qo'g'irchoqlar;
3. Soyada boshqariladigan qo'g'irchoqlar;
4. Aktyor tomonidan o'ynaladigan qo'g'irchoqlar.

Qo'g'irchoq spektakllarida skulptor-rassom yaratgan jonsiz siymoga qo'g'irchoqboz jon baxsh etadi. Qo'g'irchoqning bitta haqqoniy xarakterini yaratish uchun qo'g'irchoqbozni soatlab sabot bilan oyna oldida mashq qilishga to'g'ri keladi. Shuning uchun qo'g'irchoqboz jismoniy sog'lom, qo'l va barmoqlari abjir, epchil bo'lishi kerak. Chunki qo'g'irchoqbozning har bir qo'l harakati qahramon fikrini ifodalaydi. Qo'g'irchoqboz har holatda tizzalab o'tirgan holda, yotgan holda to'siq ortida rol ijro etadi. Oddiy to'siqning umumiy balandligi 160-170 sm. bo'ladi. To'siq qanday balandlikda bo'lishidan qat'iy nazar, uning ustki qismiga birlashtirilgan reyka qo'g'irchoq uchun taxminiy yuradigan yer hisoblanadi. Aktyor sahnada qanday yursa, qo'g'irchoq ham shartli maydonda shunday yurish kerak, ya'ni reykaning pastga tushib ham chiqib ham ketmasligi kerak. To'siqdan qo'g'irchoqning uchdan ikki qismi tomoshabinga aniq ko'rinishi shart. Sahnaga ichkarisiga uzoqlashgani sari qo'g'irchoqni balandroq ko'tarish kerak. Chunki to'siqdan uzoqlashganda qo'g'irchoq tomoshabinga kichrayib ko'rinadi. Qo'g'irchoq teatri dekoratsiyalari ixcham bo'lishi kerak. To'siqda jihozlar qancha ham bo'lsa, shuncha yaxshi, chunki qo'g'irchoqlar xarakati va ijrosida uchun erkinlik va osonlik tug'iladi. Dekoratsiyalar rang-barang, yorqin va ravshan bo'lishi, lekin meyoridan chiqib ketmasligi kerak.

Dekoratsiyalar bir necha spektakllarda ishlatilishi uchun faneradan yasalgan. Qutichalardan, aylantirish mumkin bo'lgan ustunchalardan foydalanish mumkin. Dekoratsiyaning quyi qismi to'siqdan sal pastroq bo'lishi kerak, aks xolda dekoratsiyani aylantirganda qo'llar ko'rinib qolishi mumkin. Qo'g'irchoq spektaklini musiqasiz tasavvur qilishi qiyin, musiqa parda ochilganda, yopilganda, ko'rinishi o'rtasida, sahna o'zgarishdagi bo'shliqlarni to'ldirib turadi spektaklni mukammallashtiradi. Bundan tashqari musiqa ko'rinishlarining o'zida personajlar kuylaganda va raqs tushgan paytlarda ham kerak. Spektakllarga musiqalarni o'ziga mos xalq kuylaridan zamonaviy kuylardan topish mumkin.

Bugungi kunda qo'g'irchoq teatrlarida qo'yiladigan spektakllarni qatnashuvchilar to'siq oldida boshlovchi, hikoyachi rovida ishtirok etadilar. Bunday qatnashuvchilar o'zlarini xuddi spektaklning muallifi, shuningdek, rejissoridek his qilishi, go'yo sahnadagi qo'g'irchoqlar va zaldagi tomoshabinlarning vositachisi bo'lishi kerak. Boshlovchining tashqi qiyofasi spektakldagi qo'g'irchoqlar kiyimi ko'rinishiga mos bo'lishi muhim. Sahnada foydalaniladigan qo'g'irchoqlarning bir necha turi mavjud. Petrushka – qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar, qo'llarida sim o'rnatilgan mexanizmlil qo'g'irchoqlar, ip bilan boshqariladigan – marionetka, qo'g'irchoqlar, parolonda ishlangan boshi yog'ochdan yo'nalgan, to'siq ortidan soyasi tushirilib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar va boshqalar. Qo'g'irchoq teatri rejissorsiz ishlay olmaydi. Rejissor teatni boshqarish bilan birga, spektakl yaratishda katta mas'uliyatni o'z bo'yniga oladi. K. S. Stanislavskiy yozishicha, "Rejissorlikka o'rgatib bo'lmaydi, rejissor bo'lib tug'ilishi lozim". Spektaklni sahnalashtirish jarayoni juda murakkab bo'lib, mashaqqatli va qiziqarlidir.

Rejissorning spektakl ustida ishlash jarayonini shartli ravishda to'rtta bosqichga ajratib olish mumkin:

sahnalashtirgan bo'lib, bu teatrdan S.Seduhin va V.Orlovlarning "Oltin jo'ja", F.Jo'rayevning "Qanotli odamlar" shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Istiqloq davrida bir necha yangi davlat qo'g'irchoq teatrlari va o'nlab teatr-studiyalari hamda havaskorlik qo'g'irchoq guruhlari, Qoraqalpoq davlat qo'g'irchoq teatri 1990-yil 27-fevralda, Farg'ona viloyati qo'g'irchoq teatri 1993-yil 1-martda, Xorazm viloyat qo'g'irchoq teatri Xiva shahrida 1993-yil 14-mayda ish faoliyatlarini boshlagan. Farg'ona viloyat qo'g'irchoq teatrida I. Kalvinoning "Uch apelsin" (1994), "Isqirt o'rdakcha", "Qishki ertak", "Kitsik, Mitsik va masxaraboz amaki", "Ming bir kecha", "Alpomish" (2000) kabi spektakllar sahnalashtirildi. Aynan shu davrda qo'g'irchoq teatrlarida xalq og'zaki ijodiga, an'anaviy qo'g'irchoq teatri uslubi va vositalariga murojaat kuchaydi. Jumladan, Buxoro va Toshkent qo'g'irchoq teatrlarining "Chodiri jamol", Xiva teatrlarining "Afandi hangomali", Jizzax teatrlarining "Tomoshada tomosha", Andijon "Lola" teatrlarining "Bor ekanu yo'q ekan..." kabi spektakllari ana shularga misol bo'ladi[2].

Dastlab mustaqillik yillarida qo'g'irchoq teatrlarida quyidagi tendensiyalar mavjud bo'lgan:

Birinchidan, qo'g'irchoq teatrlarimiz barcha tarkibiy qismlarda (chodirlar, qo'g'irchoqlarning yasalishi va o'ynalishida, ijrochilik, musiqada, "jonli" ijrochining qo'g'irchoqlar bilan muloqotida, janr shakllarida) rang-baranglikka intilib kelmoqda. Bir qolipdagi shakllarni buzib, qo'g'irchoqlar chodiridan tashqariga chiqish va peshsahnani, qanotlarni egallab, tomoshabinlarga tobora yaqinlashib borish mayli kuzatilmog'da. Bu rejissorlarni ishi edi. Shu bilan bir qatorda, spektakllarda "jonli" chiqishlar qo'g'irchoqlar ishtirokidagi sahnalarni ba'zan bosib ketmoqdaki, bu bora-bora qo'g'irchoq teatri poetikasining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, qo'g'irchoq teatrlarida xalq ijodiga, an'anaviy qo'g'irchoq teatri uslubi va vositalariga qiziqish mavjudligi e'tiborlidir.

Uchinchidan, qo'g'irchoq teatr sahnalarida rassomning ovozi tobora baralla yangray boshladi. To'g'ri, bunda rassomning o'rnini ham katta bo'lgan. Ammo, istiqloq davrida Toshkent teatrlaridagina emas, viloyat teatrlarida ham sahnalashtiruvchi rejissor bilan bir xil, ba'zan hatto yetakchi mavqega ega bo'la boshladi[3].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qo'g'irchoq teatr san'atining o'ziga xosliklariga kelsak, – bu faqat tajriba orqali orttiriladigan sehrliligi hususiyatlar yangi turdagi qo'g'irchoq teatri san'atida mavjud edi va ko'p yillar mobaynida rivojlanib, o'zining jozibadorligini ko'rsatdilar. Biroq, ochiqdan ochiq emas, faqat spektakllardagi rejissor talqinlari, aktyorlar sahna obrazlari yaratish uslublari va rassom kompozitorlarini ifodaviy – tasviriy, musiqaviy ijodiy mahsulotlarini sintezi orqali namoyon bo'ldilar. Mashhur qo'g'irchoq teatri aktyori YE.Sperenskiy: "Men 40 yil teatr shirmasi ortida faoliyat olib borgan bo'lsada hamon shirma ortidagi aktyor kimligini bilmayman. Garchi dramatik teatr sahnasida ijod qilmagan bo'lsam ham, ammo dramatik aktyor kimligini tasavvur eta olaman..."[4]. uning tasavvuricha, qo'g'irchoqbozlar kasbi siyosati (imidi) hamon aniq konturlarga ega emas. "San'at an'analarga tayanib, ba'zida ularni inkor etib rivojlanadi. An'analar haqidagi bilim nafaqat bizning dunyoqarashimizni boyitadi, shu bilan birga, tasavvurlarimizni qo'zg'aydi va amaliy jihatdan bizning ijodimizga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu ma'noda menga qo'g'irchoq teatr – xalqning sevikli go'dagi va shuning uchun uning demokratik tabiati umuminsoniy ahamiyatga egadir"[5], deb xulosa qilgan.

